Талабанинг ўқитувчи раҳбарлигида олган билимлар – ўқув ва амалий кўникмаларни аудиториядаги натурадан амалга ошириши зарур бўлган вазифаларни мустақил бажариш жараёнида мустаҳкамлайди. Шу билан бир қаторда дарслик ёки ўқув қўлланмалар бўйича – рассомлар асарлари альбомларм, интернетнинг тасвирий санъатларга бағишланган, турли методик қўлланма ва услубий ишлар асосида амалга оширилади.

Мустақил ишларни ташкил этишнинг мазмуни: талабалар мустақил ишлари мавзулари келгусида бажариладиган курс ишлари ва битирув малакавий ишлари мавзулари билан узвийликда бажарилади. Мустақил ишлар учун мўлжалланган мавзулар: натурадан турли этюдлар бажариш, натюрморт, манзара ва чизматасвирга таалукли ўқув топшириқларини бажариш.

Мустақил таълимнинг турли хил шакллари мавжуд бўлиб, талаба янги билимлари, ўқув ва кўникмаларини ўзлаштириш, ижодий фаолиятини амалга ошириш мақсадида бажара олади.

### **3. Дастурнинг информацион - услубий таъминоти**

#### **3.1. Фойдаланиладиган асосий дарсликлар ва ўқув қўлланмалар рўйхати**

##### **Асосий адабиётлар:**

1. Ростовцев «Учебный рисунок». – М.:1983.
2. Ростовцев «Академический рисунок».- М.:1985
3. Soibov T.Z. «Inson boshini tasvirlash o‘quv surati(portret)»:1992
4. Soibov T.Z. Dizayn, o‘quv qo‘llanma. 2003.
5. Sanayev X.S «Rangtasvir va qalamtasvir fanidan o‘quv uslubiy qo‘llanma» TDTU., 2004
6. Boymetov B. «Qalamtasvir» OTV nashriyoti, 2006.
7. Nozilov D.A. Markaziy Osiyo me‘morchiligida interyer., “Fan”, 2005
8. Soibov T.Z. Rasm chizich metodik qo‘llanma. 1991.
9. R. Xudoyberganov«Tasviriy san’atda rang».
10. Soibov T.Z. Rangtasvir va interyer. O‘quv qo‘llanma 2001.

##### **3.2. Qo‘shimcha adabiyotlar:**

1. Культура чувств. “Искусство”–М.: 1968.
2. Учебный рисунок головы человека. –М.: 1984.
3. Опыт программы по преподаванию рисования. 1995.
4. Назилов Д.А. «Мастера школ горного зодчества Средней Азии. ТГТУ, 2001.
5. Xudoyberganov R. «Kompozitsiya» “Sharq”, 2007. O‘quv qo‘llanma, 2004.
6. Abdurahmonov G. Rangtasvir va kompozitsiyadan merodik tavsiyalar, 1995.

##### **3.3 Электрон ресурслар**

1. [www.ziyo.net](http://www.ziyo.net)
2. [www.jivopis.ru](http://www.jivopis.ru)
3. [www.sadro.ru](http://www.sadro.ru)

**РАНГТАСВИР** фани

ўқув дастури

## КИРИШ

Маънавий кадриятлар устувор аҳамият касб этган жамият тараққиётнинг равон йўлига тушган ҳисобланади.

Жамият ва давлат ўзлигини англаган, ватанпарварлик туйғуси билан миллат, халқ манфаатлари, ижтимоий, иқтисодий, маданий равнақи учун маъсулиятли, илмий билим, меҳнат ва касб-кор кўникмалари, ишбилармонлик асосларини эгаллаган, руҳий соғлом, жисмонан етук, умуминсоний ва миллий хулқ-атвор нормаларини ўз онги ва фаолиятида мужассам этган маънавий маданиятли шахсни тарбиялаб етиштиришдан манфаатдордир.

Рангтасвир таълимни янгилаш ишини, рангтасвир фанларида содир бўлган ўзгаришлар моҳиятини англаган ҳолда, уларга хос хусусиятларни ҳисобга олиб амалга ошириш кутилган натижаларни беради. Ҳозирги замон талаби аввало, мустақиллик миллатимиз рангтасвир фанига хос бўлган етакчи йўналишларни белгилаб, бу фаннинг тараққиёт тенденцияларини бадиий ижодий жиҳатдан асослашдир. Янгиланган тафаккур меваси бўлган рангтасвир фани тизимида, рангтасвир фани қандай ўрин тутуди ва уни йўлга қўйишнинг бадиий ижодий асослари нималардан иборат бўлиши керак деган саволга шундагина тўғри жавоб топиш мумкин бўлади. Чунки ижтимоий ўзгаришларнинг, рангтасвир фанидаги янгиланишлар таълимни ташкил этишда тўлиқ акс этиши аниқ.

Янгиланган педагогик тафаккур ва олий таълим муассасаларида рангтасвир фанини ўқитишнинг бадиий ижодий асослари янгиланаётган миллий рангтасвир фанининг талаблари асосида рангтасвир таълим жараёнида рўй берган, бераётган ва бўлиши муқаррар ўзгаришларнинг асосий хусусиятларини илмий-назарий жиҳатдан умумлаштиришга эҳтиёж туғилади. Рангтасвир таълимнинг ўзак масалаларини ҳал этмай туриб, унинг хусусий муаммоларини тўғри ечиб бўлмайдигани, айнан мазкур жараён орқали шахс маънавияти шакллантирилади.

Рангтасвир фанларини ўқитишнинг асосларини белгилаш, рангтасвир таълимнинг мақсади, вазифалари ва мазмуни тушунчаларини янгича педагогик тафаккур нуқтаи назаридан изоҳлаш, рангтасвир таълим жараёнида ўқувчи ўқитувчи муносабати характерини кўрсатиш, рангтасвир дарслари талаба-ўқувчилар маънавиятини шакллантириш воситаси эканини асослашга алоҳида эътибор қаратилиши мақсадга мувофиқдир.

Янгиланаётган рангтасвир фани миллий асосларга таяниши, ўзига хос руҳият соҳиби бўлмиш халқ вакиллари билан, алоҳида кадриятлар тизимида мувофиқ яшаётган кишилар қатлами билан иш кўраётганини ҳамиша ёдда тутиши лозим. Бу нарса асосий рангтасвир тушунчаларни белгилаш ва бадиий таълим-тарбиянинг мазмунини талқин этишда ҳам, рангтасвир тажрибаларга муносабатда ҳам, рангтасвир меросга ёндашишда ҳам, тарбиявий тадбирларнинг ижодий, руҳий-жисмоний асосларини тайин қилиш, назарий қарашларни амалиётга тадбиқ этишда ҳам беистисно ҳисобга олиниши керак бўлади. Конкрет адресати бўлмаган педагогика яқин ўтмишда бўлгани сингари муваффақиятсизликка маҳкумдир. Педагогик тадбирлар, тарбияшуносликка доир қарашлар фақат миллий асосларга таянилгандагина, таълим-тарбия

объектлари ва субъектларининг миллий хусусиятларини ҳисобга олиб иш кўра билгандагина ўз олдига қўйган натижаларга эришмоғи мумкин. Чунки педагогик тадбир умуман одамларга эмас, балки муайян миллатга мансуб конкрет одамларга тадбиқ этилади. Муайян миллат дунёга бугун келгани йўқ ва ўзининг тарихий умри давомида ўзига хос ижтимоий тажриба тўплаган, маънавий кадриятлари, жойлашган ўрни, иқтисодий, сиёсий ва маданий шароитга мувофиқ руҳиятлар тизимига эга. Педагогика ўзи сингдирмоқчи бўлган сифатларни ана шу тажрибалар, кадриятлар, психологиядаги ўзига хосликлар устига курсагина бирор ижобий натижага эришади.

“Рангтасвир” ўқув фани бўйича таълим технологияси амалий машғулотларни лойиҳалаш технологиялари асосида ишлаб чиқилган.

Мазкур қўлланма кириш, таълим технологиясининг концептуал асослари ҳамда амалий машғулотларда ўқитиш технологияларидан таркиб топган.

Таълим технологиясининг концептуал асослари бўлимида “Рангтасвир” ўқув курсини ўқитишнинг долзарблиги асосланган, мазкур курснинг тузилмаси келтирилган ҳамда курс бўйича ўқитишнинг мазмуни очиб берилган. Шу билан бирга ўқитиш, коммуникация, ахборот ва таълим жараёнини бошқариш усуллари ва воситаларининг концептуал асослари ёритилгандир.

Сўнгра курс бўйича ўқитиш технологиялари лойиҳалаштирилган:

3) амалий машғулотларини олиб боришнинг кириш-маъруза, мавзу асосида ранг билан ишлаш, муаммоли алмашув, визуаллаштирилган амалий машғулот ва яқунловчи асар кўринишлари қўлланилиши;

4) амалий машғулотларни олиб боришнинг топшириқларни индивидуал тарзда ёки гуруҳда бажарилиши, вазиятли ишланма – кейс-стадилар усули, назарий билимлар асосида билимлар ва кўникмаларни чуқурлаштиришга йўналтирилган амалий топшириқларни бажарилиши.

Маъруза ва амалий машғулотларнинг бу тарзда олиб борилиши ўқув жараёнининг қизиқарли ва жонли бўлишига олиб келади.

Мазкур таълим технологияси барча “Рангтасвир” ўқув курсини олиб боришда ўқитувчи томонидан қўлланилиши мумкин.

## **1.1. Фан мақсади ва вазифалари**

Академик рангтасвир атроф муҳитни тафаккур этиш ва бадиий шаклларни ифодалаш, реал борлиқни бутун бойлигини намоён этган ҳолда тасвирлаш, бадиий образлар шаклида амалга ошириш, ёруғ ва соя; умумтон, ранг муносабатлари ва тасвир яхлитлиги, натурадан (натюрморт, манзара), портрет ишлаш, эмоционал бадиий ифодасини бера билиш, шакллилик, ашёлилик ва фазо сифатларини рангтасвир ифода воситалари орқали бера билиш, рангтасвир мактаблари замонавий йўналишларини ўргатади.

Рангтасвир тасвирий санъат асари яратишдаги асосий восита бўлиб, ҳаётийликни акс эттирмоқ, англамоқ ва бадиий образ сифатида амалга оширишни назарда тутати. У эмоционаллик ва мантиқийликнинг табиий бирлашуви ҳамда шаклнинг аниқ ифодаси, пластик сифатлари ва ашёлилик даражасининг ички мазмун билан бойитилиши, соялар теорияси қоидалари –

ёруғ, ёруғ соя, соя, рефлекс ва ёруғда (блик) ўтаёруғ, рангтасвирда ёруғ-соя ва тон муносабатлари қонун қоидалари, шакл жихатидан мураккаб ашёлар рангтасвири шаклланиши ва ривожини ўргатади.

Рангтасвир фани «Архитектура ва Дизайн» соҳаларида ўқийдиган асосий фанлардан бири ҳисобланади. Рангтасвир фани талабаларни инсон қиёфасини қаламда чизиб олиб уни рангда тасвирлашгача бўлган ўқув жараёнини ўз ичига олади.

Бу босқичда талабалар оддий геометрик предметлар, уй-рўзғор буюмлари, мева ва гуллардан тузилган натюрмортларни композицион жойлаштириш ва қуриш, энгил ранглар билан ранглар уйғунлигини кўрсатган ҳолда ишлаш ва умумий яхлитликда тугаллаш босқичини амалда бажаришлари лозим.

Тасвир асосан икки этапга бўлиб ишланади. Куз ва баҳор мева ва гулларида тузилган натюрмортни композицион ва ранг жихатидан мураккаблаштирилган ҳолда бажариш талаби қўйилади.

Архитектура ва Дизайн соҳаларида ўқийдиган талабаларига “Рангтасвир” фанининг ўқитишнинг асосий вазифаси талабаларда ижодий тасаввурни ўстириш; ҳаётда воқеаликни кўриб идрок этиш; бадиий дид ва маданиятни таркиб топитириш, барча санъат соҳаларида композицияни қўллаш билиши; фандан олган билимларини ҳаётда ва ўқитувчилик касбида унумли фойдаланишни таъминлашдан иборат. рангтасвир фанининг принциплари билан танишиш, рангтасвир фани ҳақида умумий суҳбат арихитектор ва дизайнер талабаларига акварел, яъни сувбўёқ билан ишлаш услуги ва рангтасвирнинг иссиқ ва совуқ рангларга бўлиниши ҳамда улардан қандай фойдаланиш ҳақида тушунча бериш, рангтасвир фанининг асоси амалий машғулотлар жараёнида ижодкорликка йўналтириш ва мустақил тасвирий санъат намунасини яратиш устида ишлашни шакллантиришга йўналтирилгандир, санъатда мазмун ва ғоянинг энг яхши ечимини топиш, ижодий маҳоратни ошириш нафосат тарбиясининг зарурий қисми, муҳим ўрни ўргатиш, рангтасвирнинг тасвирий санъатда тутган ўрни; дастгоҳли, монументал, декоратив рангтасвирнинг фарқловчи томонлар, реалистик рангтасвир қонунлари, композиция асослари, иссиқ ва совуқ ранглар, колорит, ритм, тус, ёриғлик, ранг доғи, умумий тус ва ранг бўёғи, турли тасвирлаш материаллари хусусиятлари, ранг уйғунлиги қонуниятлари, турли тасвирлаш воситаларидан фойдаланиш йўллари, ранг гаммаси, мотив, ҳиссийлик, яхлит кўриш, рангтасвир ишлаш методлари; суюлтиргичлар, мато, грунтлар, суюқ ишлов бериш, суртма; рангтасвир ашёлар; акварель, темпера, гуаш ва мойбўёқлар тўғрисида кўникмаларига эга бўлмоғи керак.

## **1.2. Талабаларнинг билими ва кўникмаларига талаблар**

“Рангтасвир” фани бўйича талабаларнинг билими, ўқуви ва кўникмасига кўйиладиган талаблар:

- а) тасаввурга эга бўлишлари керак:

- фанга тегишли бўлган назарий ва амалий маълумотларни ўрганиш, аниқ тасаввурга эга бўлишлари;
  - ҳар бир элементга эътибор берган ҳолда, фан сирларини тўлиқ ўзлаштириб олишлари лозим.
  - Рангтасвир фанини бозор иқтисодиёти шароитидаги ўрни ва аҳамиятини билиш;
  - жамоа меҳнатини ташкил этиш ва бошқаришдаги рангтасвир қонуниятлар, ижтимоий мулоқот ва муомаланинг сирлари; меҳнатга тўғри мотивация муносабатини шакллантириш омиллари тўғрисидаги тасаввурларга эга бўлиш;
  - шахснинг индивидуал, жинсий ва ёшга боғлиқ хусусиятлари, етуклик даврида шахс тараққиётининг рангтасвир қонуниятлари; эътиқод ва соғлом дунёқарашни шакллантириш омиллари, ҳар бир ижтимоий вазиятда фуқаролик онги ва масъулиятини шакллантириш воситаларини аниқлай олиш.
- б) бажариш лозим:
- талабалар фаннинг мазмунидан келиб чиққан ҳолда ҳар бир мавзуга тегишли бўлган мустақил равишда керакли адабиётлардан фойдаланишлари, ижодий асарлар тайёрлашлари;
  - кунлик дарсларда керакли маълумотларни йиғишлари, ноанъанвий усулларни такомиллаштирилган вариантларини ишлаб чиқишда иштирок этишлари.
  - ўз устида мустақил ва ижодий ишлаш кўникмалари;
  - ўзгалар меҳнати ва ижодий фаолиятини холис ва объектив баҳолаш.

### **1.3. Ўқув режасидаги бошқа фанлар билан мантиқий боғлиқлиги**

Архитектура ва дизайн йўналишларида рангтасвир фанни ўқитиш жараёнида бир қанча фанлар яъни, архитектуравий лойиҳалаш, архитектура ва ландшафт графикаси, санъат тарихи, ҳайкалторошлик, қаламтасвир, компьютер графикаси, пластик анатомия каби фанлар билан алоқадор.

### **1.4.-Ўқитишдаги педагогик ва ахборот-коммуникация технологиялар**

Мазкур фан учун ишчи ўқув дастурини тайёрланаётганда Республика бўйича рангтасвир ва дизайн йўналишидаги кафедралар ютуқларидан фойдалана қолмай балки СНГ давлатларидаги, шу йўналишлар бўйича янгиликлар ўрганиблиб чиқиб улардан фойдаланилган.

Шундан келиб чиққан ҳолда шахсга йўналтирилган таълим. Бу таълим ўз моҳиятига кўра таълим жараёнининг барча иштирокчиларини тўлақонли ривожланишларини кўзда тутди. Бу эса таълимни лойиҳалаштирилаётганда, албатта, маълум бир таълим олувчининг шахсини эмас, аввало, келгусидаги мутахассислик фаолияти билан боғлиқ ўқиш мақсадларидан келиб чиққан ҳолда ёндошилишни назарда тутди.

Ахборотни тақдим қилишнинг замонавий воситалари ва усулларини қўллаш – янги компьютер ва ахборот технологияларини ўқув жараёнига қўллаш.

Келтирилган концептуал йўриқларга асосланган ҳолда, «Рангтасвир» фанининг мақсади, тузилмаси, ўқув ахборотининг мазмуни ва ҳажмидан келиб чиққан ҳолда, маълум шароит ва ўқув режасида ўрнатилган вақт оралиғида ўқитишни, коммуникацияни, ахборотни ва уларни биргаликдаги бошқаришни кафолатлайдиган усуллари ва воситалари танлови амалга оширилди.

Ўқитишни ташкил этиш шакллари: диалог, полилог, мулоқот ҳамкорлик ва ўзаро ўрганишга асосланган фронтал, коллектив ва гуруҳ.

Ўқитиш воситалари ўқитишнинг анъанавий шакллари (дарслик, маъруза матни) билан бир қаторда - компьютер ва ахборот технологиялари.

Коммуникация усуллари: тингловчилар билан оператив тескари алоқага асосланган бевосита ўзаро муносабатлар.

Тескари алоқа усуллари ва воситалари: кузатиш, блиц-сўров, оралиқ ва жорий ва яқунловчи назорат натижаларини таҳлили асосида ўқитиш диагностикаси.

Машғулоти босқичларини белгилаб берувчи технологик карта кўринишидаги ўқув машғулотларини режалаштириш, қўйилган мақсадга эришишда ўқитувчи ва тингловчининг биргаликдаги ҳаракати, нафақат аудитория машғулотлари, балки аудиториядан ташқари мустақил ишларнинг назорати.

Ўқув машғулотида ҳам бутун курс давомида ҳам ўқитишнинг натижаларини режали тарзда кузатиб бориш. Курс охирида просморт топшириқлари ёрдамида тингловчиларнинг билимлари баҳоланади.

Талабаларнинг танқидий (таҳлилий) фикрини ривожлантиришда интерактив услубларнинг муҳим ўрни бор, булар ҳамкорлик субъектларини ижодий изланишга йўналтириш, номаълум ҳолатни очишга, кашф этишга кўмак берувчи назарий-ақлий мулоҳазаларда ифодаланади.

Дарсни бошлаш жараёнида талабаларда кўтаринки кайфият, юксак эҳтирос, ижодий руҳланиш кузатилса дарс жараёнининг самарадорлиги юқори бўлади. Бунда ўқитувчининг фаолияти аниқ режа асосида, олдиндан тайёрланган ҳолда бўлиши зарур. Демак, ўқитувчи томонидан дарс давлат таълим стандартлари асосида олиб борилади.

## **2. Фаннинг мазмуни**

### **2.1. Амалий машғулотлар мазмуни, ташкил этиш бўйича кўрсатма ва тавсиялар**

Янгиланган педагогик тафаккур ва олий таълим муассасаларида рангтасвир фанини ўқитишнинг бадиий ижодий асослари янгиланаётган миллий рангтасвир фанининг талаблари асосида рангтасвир таълим жараёнида рўй берган, бераётган ва бўлиши муқаррар ўзгаришларнинг асосий хусусиятларини илмий-назарий жиҳатдан умумлаштиришга эҳтиёж туғилади.



Рангтасвир таълимнинг ўзак масалаларини ҳал этмай туриб, унинг хусусий муаммоларини тўғри ечиб бўлмайдигани, айнан мазкур жараён орқали шахс маънавияти шакллантирилади.

Рангтасвир фанининг асоси амалий машғулотлар жараёнида ижодкорликка йўналтириш ва мустақил тасвирий санъат намунасини яратиш устида ишлашни шакллантиришга йўналтирилгандир. Санъатда мазмун ва ғоянинг энг яхши ечимини топиш, ижодий маҳоратни ошириш нафосат тарбиясининг зарурий қисми, муҳим.

Рангтасвир фани бўйича талабаларнинг бадиий ва ижодий билимлари даражасини кенгайтириш.

Рангтасвир усталари мероси ва улар ғояларига нисбатан тўғри муносабатда бўлиш, кўникмаларни шакллантириш;

Республикамизда комил инсонни вояга етказишнинг бир бутун ҳолатдаги муаммоларини ҳал қилиш;

Рангтасвир фани долзарб вазифалари, муаммоларини таништириш,

Рангтасвир курси бўйича ўтказиладиган амалий машғулотларнинг мақсади – мустақил фикрлашга ўргатиш, фикрлашга оид кўникмаларни ривожлантириш ва муомала сирларига ўргатишдан иборат бўлиб, пировардда бу билим ва кўникмалар орқали рангтасвир билимларни амалиётга тадбиқ этиш соҳа ва йўналишларини аниқ тасаввур қилишга кўмаклашади.

1. Рангтасвир фани ҳақида умумий суҳбат.
2. 2-3 предметдан тузилган натюрморт.
3. Куз гулларидан тузилган натюрморт.
4. Куз меваларидан тузилган натюрморт.
5. Куз манзараси - этюд
6. Уй рўзғор буюмларидан тузилган натюрморт

### **I семестр**

1. Натюрморт гризайл.
2. Драпировкали натюрморт.
3. Баҳор манзараси
4. Баҳор гулларидан тузилган натюрморт.
5. Миллий буюмларидан тузилган натюрморт.
6. Архитектуравий манзара.

### **II семестр**

Куз меваларидан тузилган натюрморт  
Табиатдан манзара чизиш.  
Куз гулларидан тузилган натюрморти.  
Мураккаб тузилган натюрморт.  
Геометрик шакллар мажмуасидан тузилган постоновкага турли ранглар ишлатиб ҳаёлан композиция яратиш

### **III семестр**

Интерьерда тузилган натюрморт.

Табиатдан баҳор манзараси холатини топиб чизиш.  
Баҳор гулларида тузилган мураккаб натюрморт.  
Амалий санъат буюмларидан тузилган натюрморт.

#### **IV семестр**

«Куз саҳовати» тематик натюрморт.  
Санъат атрибутларидан тузилган натюрморт.  
Кўп планли куз манзарасини чизиш.

#### **V семестр**

Дераза фонидан баҳор гулларида тузилган натюрморт.  
«Юртим баҳори» мавзу асосида кўп планли манзара, шаҳар манзараси.  
Натурадан портрет ишлаш

#### **VI семестр**

Техник буюмлардан тузилган мураккаб натюрморт.  
Интерьерда тузилган мураккаб натюрморт.  
Натурадан портрет чизиш, бино интерьерини натурадан ишлаш

#### **VII семестр**

Кўп планли баҳор манзараси.  
Кийимли фигура расми.  
Бино интерьер ва экстерьерда бино функциясига доир панно ишлаш.

---

### **2.5. Мустақил ишни ташкил этишнинг шакли ва мазмуни**

Рангтасвир таълими асосларини ўрганиш – натюрморт, портрет, инсон қиёфаси- тасвирланувчи ярим қомат, яхлит қиёфа, икки жуссадан иборат гурухли ўқув топшириқлари- тарихий ва замонавий либосдаги ҳамда либоссиз жусса этюдларини ишлаш жараёнида аудиторияда талабанинг ўқитувчисиз юритадиган иш фаолияти ҳисобланади.

Талабанинг ўқитувчи раҳбарлигида олган билимлар – ўқув ва амалий кўникмаларни аудиториядаги натурадан амалга ошириши зарур бўлган вазифаларни мустақил бажариш жараёнида мустаҳкамлайди. Шу билан бир қаторда дарслик ёки ўқув қўлланмалар бўйича – рассомлар асарлари альбомлар, интернетнинг тасвирий санъатларга бағишланган, турли методик қўлланма ва услубий ишлар асосида амалга оширилади.

Мустақил ишларни ташкил этишнинг мазмуни: талабалар мустақил ишлари мавзулари келгусида бажариладиган курс ишлари ва битирув малакавий ишлари мавзулари билан узвийликда бажарилади. Мустақил ишлар учун мўлжалланган мавзулар: натурадан турли этюдлар бажариш, натюрморт, манзара ва рангтасвирга таалукли ўқув топшириқларини бажариш.

Мустақил таълимнинг турли хил шакллари мавжуд бўлиб, талаба янги билимлари, ўқув ва кўникмаларини ўзлаштириш, ижодий фаолиятини амалга ошириш мақсадида бажара олади.

#### **Мустақил иш мавзулари:**

«Олма, анор, шафтоли, тарвуз, қовунлардан иборат натюрморт»  
Ҳар бир талаба ўзи хоҳлаган куз неъматларидан натюрморт тузиб, енгил ранглар орқали куз меваларининг ранглар гаммаси, уйғунлигини топиш.

Рассомларнинг натюрморт соҳасидаги асарларини ўрганиш, таҳлил қилиш орқали ранг бўёқ қоидалари асосида эркин ишлаш.

Куз меваларининг бир-бирига ўхшамас формалари, нозик рангларини уфуриб турган куз нафасини сезган ҳолда чиройли ранглар билан мустақил эркин ҳолда, натюрмортни мукамал тугатиш

## **II семестр 76 соат**

Техник буюмлардан тузилган натюрморт

Талаба ўзи хоҳлаган баҳор гулларидан натюрморт тузиб, енгил ранглар орқали баҳор гулларининг уйғунлигини топиш

Рассомларнинг натюрморт соҳасидаги асарларини ўрганиш, таҳлил қилиш орқали ранг бўёқ қоидалари асосида эркин ишлаш

«Баҳор манзараси» этюдлар асосида манзара ишлаш

«Ўлкамда куз» тематик манзара

Куз гулларидан тузилган натюрморт

Шаҳар архитектураси манзараси

Интерьер кўриниши

Қишлоқ архитектураси

Эркин ижодий композиция

## **IV семестр**

«Баҳор манзараси»

«Менинг хонам» Интерьер

Эски шаҳарда баҳор

Серень гулларидан тузилган композиция

## **V семестр 73 соат**

Куз композицияси

Куз гулларидан тузилган композиция

Эркин ижодий композиция

Уй жиҳозларидан тузилган натюрморт

## **VI семестр 73 соат**

Тоғларда баҳор

Биоларнинг экстерьер кўринишини ишлаш

## **VII семестр**

Натурадан портрет ишлаш

Эркин мавзуда композиция

Табиат фонида портрет

Ҳаракатдаги отлар композицияси

## **VIII семестр**

Эркин композиция

Методик иш

Натурадан портрет ишлаш

### **3. Дастурнинг информацион-услубий таъминоти**

#### **3.1. Фойдаланиладиган асосий дарсликлар ва ўқув қўлланмалар рўйхати**

##### **Асосий адабиётлар.**

1. Ростовцев «Учебный рисунок» М.1983
2. Ростовцев «Академический рисунок» М.1985
3. Соибов Т.З. «Дизайн» ўқув қўлланма 2003 й.
4. Санаев Х. «Рангтасвир ва қаламтасвир фанида ўқув услубий қўлланма» 2004 ТДТУ
5. Мухаммадиев Э. Рангшунослик. Самарқанд 2002
6. Кузиев Т., Эгамов А., Қаноатов Т., Нурқобилов А. Рангтасвир. Тошкент. 2003
7. Барчаи «Пластическая анатомия для художников» Будапешт 1981
8. Бамес А.Д «Пластическая анатомия» Берлин 1986
9. Соибов Т.З. Рангтасвир ва интерьер. (ўқув қўлланма 2001 й.)
10. Нозилов Д.А. Марказий Осиё меъморчилигида интерьер. тошкент, Фан, 2005
11. Санаев Х. Рангтасвир. ТошДТУ, 2006
12. Н.К Ахмедов «Одам анатомияси атласи» Тошкент 2002
13. Язык живописного произведения Изд. Искусств. Ленинград. 1987 й

##### **Кўшимча адабиётлар**

4. Культура чувств – Издательство. Искусство М., 1968
5. Чурилин Учебный рисунок головы человека. М., 1984
6. Раевская Иванова М.Д Опыт программы по преподаванию рисования. 1995 г
7. Пучков А.С. «Методика работы над рисунком» Москва 1992
8. Санаев Х.С. «Қаламтасвир бўйича ўқув услубий қўлланма» ТошДТУ 2004
9. Р. Худойберганов «Тасвирий санъатда ранг» ўқув қўлланма. 2004 й
10. Г. Абдурахмонов рангтасвир ва композициядан методик тавсиялар. 1995 й
11. Репродукциялар, таблицалар фотосуратлар, слайдлар

##### **Электрон ресурслар**

- 1 [www.ziyo.net](http://www.ziyo.net)
- 2 [www.artni.ru](http://www.artni.ru)
- 3 [www.jivopis.ru](http://www.jivopis.ru)
- 4 [www.galleries.ru](http://www.galleries.ru)
- 5 [www.sadco.dp.ua](http://www.sadco.dp.ua)

**ҲАЙКАЛТАРОШЛИК**  
фани

ўқув дастури

## I. Кириш

Маънавий қадриятлар устувор аҳамият касб этган жамият тараққиётнинг равон йўлига тушган ҳисобланади.

Жамият ва давлат ўзлигини англаган, ватанпарварлик туйғуси билан миллат, халқ манфаатлари ижтимоий, иқтисодий, маданий равнақи учун маъсулиятли, илмий билим, меҳнат ва касб-кор кўникмалари, ишбилармонлик асосларини эгаллаган, рухий соғлом, жисмонан етук, умуминсоний ва миллий хулқ-атвор нормаларини ўз онги ва фаолиятида мужассам этган маънавий маданиятли шахсни тарбиялаб етиштиришдан манфаатдордир.

Ҳайкалтарошлик таълимини янгилаш ишини, ҳайкалтарошлик соҳаларида содир бўлаётган ўзгаришлар моҳиятини англаган холда, уларга хос хусусиятларни ҳисобга олиб амалга ошириш кутилган натижаларни беради. Ҳозирги замон талаби аввало, миллатимиз Ҳайкалтарошлик фанига хос бўлган етакчи йўналишларни белгилаб, бу фаннинг тараққиёт тенденцияларини бадиий ижодий жиҳатдан асослашдир. Янгиланган тафаккур меваси бўлган тасвирий санъат тизимида, ҳайкалтарошлик фани қандай ўрин тутуди ва уни йўлга қўйишнинг бадиий ижодий асослари нималардан иборат булиши керак, - деган саволга шундагина тўғри жавоб топиш мумкин бўлади. Чунки ижтимоий ўзгаришлар, ҳайкалтарошлик фанидаги янгиланишлар таълимни ташкил этишда тўлиқ ақс этиши аниқ.

Янгиланган педагогик тафаккур ва олий таълим муассасаларида ҳайкалтарошлик фанини ўқитишнинг бадиий - ижодий асослари янгиланаётган миллий ҳайкалтарошлик санъати талаблари асосида таълим жараёнида рўй берган, бераётган ва бўлиши муқаррар ўзгаришларнинг асосий хусусиятларини илмий-назарий жиҳатдан умумлаштиришга эҳтиёж туғилади. Ҳайкалтарошлик таълимнинг ўзак масалаларини ҳал этмай туриб, унинг хусусий муаммоларини тўғри ечиб бўлмайди-ки, айнан мазкур жараён орқали шахс маънавияти шакллантирилади.

Ҳайкалтарошлик фанларини ўқитишнинг асосларини белгилаш, таълимнинг мақсади, вазифалари ва мазмуни гушунчаларини янгича педагогик тафаккур нуқтаи назаридан изоҳлаш, ҳайкалтарошлик таълим жараёнида талаба - ўқитувчи муносабати характерини кўрсатиш, ҳайкалтарошлик дарслари орқали талабаларда маънавият руҳини шакллантириш воситаси эканини асослашга алоҳида эътибор қаратилиши мақсадга мувофиқдир.

Янгиланаётган ҳайкалтарошлик фани миллий асосларга таяниши, ўзига хос руҳият соҳиби бўлмиш халқ вакиллари билан, алоҳида қадриятлар тизимига мувофиқ яшаётган кишилар катлами билан иш кураётганини ҳамиша ёдда тутиши лозим. Бу нарса Ҳайкалтарошлик тушунчаларини белгилаш ва бадиий таълим-тарбиянинг мазмунини талқин этишда ҳам, Ҳайкалтарошлик тажрибаларга муносабатда ҳам, Ҳайкалтарошлик меросга ёндашишда ҳам, тарбиявий тадбирларнинг

ижодий, рухий-жисмоний асосларини тайин қилиш, назарий қарашларни амалиётта тадбиқ этишда ҳам беистисно ҳисобга олиниши керак булади.

Аниқ адресати бўлмаган педагогика яқин ўтмишда бўлгани сингари муваффақиятсизликка маҳкумдир. Педагогик тадбирлар, тарбияшуносликка доир қарашлар фақат миллий асосларга таянилгандагина, таълим-тарбия объектлари ва субъектларининг миллий хусусиятларини ҳисобга олиб иш кўра билгандагина ўз олдига қўйган натижаларга эришмоғи мумкин. Чунки, педагогик тадбир умуман одамларга эмас, балки муайян миллатга мансуб аниқ одамларга тадбиқ этилади. Муайян миллат дунёга бугун келгани йўқ ва ўзининг тарихий умри давомида ўзига хос ижтимоий тажриба тўплаган, маънавий қадриятлари, жойлашган ўрни, иқтисодий, сиёсий ва маданий шароитга мувофиқ руҳиятлар тизимига эга. Педагогика ўзи сингирмоқчи бўлган сифатларни ана шу тажрибалар, қадриятлар, психологиядаги ўзига хосликлар устига кўрсагина бирор ижобий натижага эришади.

"Ҳайкалтарошлик" ўқув фани бўйича таълим технологияси амалий машғулотларни лойиҳалаш технологиялари асосида ишлаб чиқилган.

Мазкур қўлланма кириш, таълим технологиясининг концептуал асослари ҳамда амалий машғулотларда ўқитиш технологияларидан таркиб топган.

Таълим технологиясининг концептуал асослари бўлимида "Ҳайкалтарошлик" ўқув курсини ўқитишнинг долзарблиги асосланган, мазкур курснинг тузилмаси келтирилган ҳамда курс бўйича ўқитишнинг мазмуни очиқ берилган. Шу билан бирга ўқитиш, коммуникация, ахборот ва таълим жараёнини бошқариш усуллари ва воситаларининг концептуал асослари ёритилгандир.

Бундан ташқари ўқитиш технологиялари лойиҳалаштирилган:

амалий машғулотларини олиб боришнинг кириш-маъруза, мавзу асосида хомашё билан ишлаш, муаммоли алмашув, визуаллаштирилган амалий машғулот ва яқунловчи асар кўринишлари қўлланилиши;

амалий машғулотларни олиб боришнинг топшириқларни индивидуал тарзда ёки гуруҳда бажарилиши, вазиятли ишланма - кейс- стадиялар усули, назарий билимлар асосида билим ва кўникмаларини чуқурлаштиришга йўналтирилган амалий топшириқларни бажарилиши.

Маъруза ва амалий машғулотларнинг бу тарзда олиб борилиши ўқув жараёнининг қизиқарли ва жонли бўлишига олиб келади.

Мазкур таълим технологияси барча "Ҳайкалтарошлик" ўқув курсини олиб боришда ўқитувчи томонидан қўлланилиши мумкин.

### **1.1 Фан мақсади ва вазифалари**

"Ҳайкалтарошлик" фани бўйича тузилган ушбу намунавий дастур ДТС талаблари асосида ишлаб чиқилган бўлиб, Республикамизда бадиий таълим ислоҳотларини янада чуқурлаштириш, малакали мутахассис кадрлар тайёрлаш борасида уларнинг касбий маҳоратларини ривожлантирувчи, шунингдек, иқтидорли, ижодкор мутахассисларни кўникмаларини ўзида намоён қилувчи ва соҳага қизиқиш уйғота олувчи,

ўз йўналишини топишда, хайкалтарошлик санъатининг нозик қирраларини ўргатувчи фан сифатида зарурияти катта.

Фанни ўрганишдан мақсад бўлғуси мутахассисларни хайкалтарошлик санъатининг тур ва жанрлари, ишланишдаги технологиялари, тараққиёт босқичлари анъаналарини ўргатиш, замонавий жараёнларга малакавий баҳо бера олиш, яратилаётган бадий асарлар таъсирчанлигини англаш, ҳис этиш ва уларнинг бадий ғоясини ошириш, ривожлантириш йўналишларини кўрсата олиш ҳамда мавжуд жараёнлар ва тарихий фактларга таяниб назарий билимлари амалда бажариш малакасини шакллантиришдан иборат.

Хайкалтарошлик фани "Архитектура", "Дизайн" соҳалари билан узвий боғлиқ бўлиб ушбу йўналишида ўқитиладиган асосий фанлардан бири ҳисобланади. Чунки хайкал ишлашни билмаган талаба ўз ҳаёлий фантазиясини ифода эта олмайди. Хайкалтарошлик фани оддий розеткалар, геометрик предметлардан инсон қиёфасини тасвирлашгача бўлган ўқув жараёнини ўз ичига олади.

Талабалар бу босқичда оддий шаклдан бошлаб инсон қоматигача бўлган ўқув жараёнида ижодий тасвирлаш талаб ва тажрибаларини пухта эгаллашлари мустақил ижод қилиш талабларини бажаришлари лозим.

## 1.2. Фан бўйича билим, малака ва кўникмага қўйиладиган талаблар

Талабалар ўқув босқичида оддий геометрик жисмларда одам қомати тузилишигача бўлган хайкалтарошлик қонун-қоидалари ва талабларини мукамал ўзлаштиришлари ва амалда бажаришлари, илмий асосланган ўқув дастурлари асосида тасвирлашни мукамал ўзлаштиришлари талаб этилади. Шакл, фазо, перспектива қонунларини чуқур ўзлаштиришлари ва уни амалда қўллай олиш малакаларини эгаллашлари талаб этилади. Хайкалтарошлик босқичларга бўлиниб ўргатилади.

- Геометрик жисмлар;
- Антик давр атрибутлари;
- Одам юз қисм деталлари;
- Бош чаноғини турли кўринишларда ишлаш;
- Антик давр хайкаллари қўл ва оёқни ясаш;
- Антик давр бюстлари, одам боши, гавда қисми, қоматини ясаш;
- Натурага бош қисми, елка қисми, гавдаси, қўл оёқлари билан яхлит ишлаш;

"Хайкалтарошлик" фани бўйича талабаларнинг билими, ўқуви ва кўникмасига қўйиладиган талаблар:

а) тасаввурга эга булишлари керак:

- фанга тегишли бўлган назарий ва амалий маълумотларни урганиш, аниқ тасаввурга эга бўлишлари;



- хар бир элементга эътибор берган ҳолда, фан сирларини тўлик ўзлаштириб олишлари лозим.
  - Ҳайкалтарошлик фанини бозор иқтисодиёти шароитидаги ўрни ва аҳамиятини билиш;
- б) билиш керак:
- Талабалар курсни ўзлаштириш жараёнида фаннинг мазмуни, мақсади ва вазифаларидан келиб чиққан ҳолда, фаннинг назарий асосларини;
  - фанга тегишли бўлган асосий терминларнинг изоҳини, янгиликлар, қонун - қоидаларни ўзлаштиришлари зарур;
  - ўзгаларга таъсир кўрсатиш ва ўз-ўзини бошқариш малакалари;
  - ўз иқтидори ва қобилиятларини устириш технологияларни ўзлаштириш;
  - меҳнат жамоаларидаги бадиий ижодий иқлимни ўрганиш ва уни мувофиқлаштириш;
  - талабалар фаннинг мазмунидан келиб чиққан ҳолда хар бир мавзуга тегишли бўлган керакли адабиётлардан фойдаланишлари, ижодий асарлар тайёрлашлари;
  - кунлик дарсларда керакли маълумотларни йиғишлари, ноанъанвий усулларни такомиллаштирилган вариантларини ишлаб чиқишда иштирок этишлари.
  - ўз устида мустақил ва ижодий ишлаш кўникмалари; ўзгалар меҳнат ва ижодий фаолиятини ҳолис ва объектив баҳолаш.

Билим, малака ва куникмага эга булиш учун талабалар куйидагиларни ўзлаштириши лозим: жaxon Ҳайкалтарошлик санъати ривожланиш босқичларидаги Ҳайкалтарошликнинг тур ва жанрлар, услубларининг ривожини хусусиятлари ва таникли намоёндаларини билиш, асосий босқичлари - ибтидоий, антик, ўрта асрлар, янги ва энг янги давр: санъати жараёнларини тасаввур қилиш, услуб ва ижодкор дастхатларини ажрата олиш ҳамда амалда шу санъат хусусиятларини курсата олиши лозим.

### **1.3. Ўқув режасидаги бошқа фанлар билан мантикий боғлиқлиги**

Архитектура ва дизайн йўналишларида ҳайкалтарошлик фанини ўқитиш жараёнида бир қанча фанлар яъни, архитектуравий лойиҳалаш, архитектура ва ландшафт графикаси, санъат тарихи, ҳайкалтарошлик, қаламтасвир, компьютер графикаси, пластик анатомия каби фанлар билан алоқадор.

### **1.5. Дарсинг информациион - услубий таъминоти**

Талабаларнинг "Ҳайкалтарошлик" фанини янада чуқур ўзлаштиринирида ўқитишнинг илгор ва замонавий технологиялардан

фойдаланиш. янги информация-педагогик технологияларини тадбир килиш муҳимдир. Фанни узлаштиришда дарслик, уқув услубий кулланмалар ва маъруза матнлари, электрон адабиётлар ва тасвирлар члекпрон материаллар, таъсирий санъат атрибутларидан тўла фойдаланилади. Ўзбек ва хорижлик уста ҳайкалтарошларнинг жаҳон миқёсида тан олинган санъат асарлари намуналари ҳамда методик жиҳатдан мукамал репродуктив ишлари, замонавий постановкаларни ташкил этишда ёриткичлардан фойдаланиш. Буюк санъат усталари ва уларнинг ижод этиш жараёнларини акс эттиришга бағишланган киноленталари, чоп этилган намуна ва электрон версияларидан кенг фойдаланилади.

Мазкур фанни ўқитиш жараёнида таълимнинг замонавий (хусусан, интерфаол) методлари, педагогик ва ахборот-коммуникация (медиа таълим, амалий дастур макетлари, презентацион, электрон дидактик) технологиялари қўлланиши назарда тутилган. Амалиёт натижалари асосида фанни пухта эгаллаши масалалари унинг назарий ва амалий билимларини мустаҳкамлайди.

## **2. Асосий қисм**

### **2.1. Амалий машғулотлар мазмуни, ташкил этиш бўйича кўрсатма ва тавсиялар**

Янгилаган педагогик тафаккур ва оддий таълим муассасаларида ҳайкалтарошлик фанини ўқитишнинг бадиий ижодий асосларида янгиланаётган миллий талаблар асосида таълим жараёнида рўй берган, бораётган ва бўлиши муқаррар ўзгаришларнинг асосий хусусиятларини илмий - назарий жиҳатдан умумлаштиришга эҳтиёж туғилади.

Ҳайкалтарошлик таълимнинг узоқ масалаларини ҳал этмай туриб, унинг хусусий муаммоларини тўғри ечиб бўлмайди-ки, айнан мазкур жараён орқали шахс маънавияти шакллантирилади.

Ҳайкалтарошлик фанинг асоси амалий машғулотлар жараёнида ижодкорликка йўналтириш ва мустақил тасвирий санъат намунасини яратиш устида ишлашни шакллантиришга йўналтирилгандир. Санъатда мазмун ва ғоянинг энг яхши ечимини топиш, ижодий маҳоратни ошириш нафосат тарбиясининг зарурий қисми муҳим.

Ҳайкалтарошлик фани бўйича талабаларниш бадиий ва ижодий билимлари даражасини кенгайтириш.

Ҳайкалтарошлик усталари мероси ва улар ғоядалига нисбатан тўғри муносабатда бўлиш кўникмаларини шакллантириш.

Республикамизда комил инсонни вояга етказишнинг бир бутун ҳолатдаги муаммоларини ҳал қилиш.

Ҳайкалтарошлик фанининг долзарб вазифалари, муаммоларини тушунтириш, курс бўйича ўтказиладган амалий машғулотларнинг мақсади мустақил фикрлашга ўргатиш фанга оид кўникмаларини ривожлантириш ва муомала сирларини ўргатишдан иборат бўлиб, пировардда бу билим на кўникмалар орқали олган билимларни амалиётга тадбир этиш соҳа ва йўналишларини аниқ тасаввур қилишга кўмаклашади.

Ҳайкалтарошлик тасвирий санъатнинг тури сифатида, унинг тур ва жанрлари технологияси. Жаҳон ҳайкалтарошлик тарихи ривожини хусусиятлари

ва таниқли намоёндалари, асосий боскичлари - ибтидоий ўрта асрлар, уйғониш, янги ва энг янги давр ҳайкалтарошлиги, ҳозирги замон ҳайкалтарошлик жараёнлари ва муаммолари.

## 2.2 Амалий машғулотлар

Амалий машғулотлар утилган мавзуни чуқурроқ узлаштиришга қаратилган. Шунга кўра танланган мавзулар маъруза учун ажратилган мавзуларини қайтариши мумкин.

- мавзу:** Ҳайкалтарошлик санъати, унинг тур ва жанрлари ҳақида суҳбат.
- мавзу:** Геометрик жисмлардан иборат натюрморт рельефини ишлаш.
- мавзу:** Мураккаб натюрмортни горельефда ишлаш.
- мавзу:** Ошхона анжомларидан иборат натюрмортни рельефини ишлаш.
- мавзу:** Довуд гипс маскасини юз қисм бўлақларини ишлаш: А) бурун.Б) лаб В) кулоқ Г) кўз.
- мавзу:** Венеранинг гипс маскасини ишлаш.
- мавзу:** Одам бош суягини ишлаш.
- мавзу:** Гудон анатомик ҳайкалининг бош қисмини ишлаш.
- мавзу:** Анатомик торс эскизини ишлаш.
- мавзу:** Интеръерда Гудон қоматини рельефини ишлаш.
- мавзу:** Интеръерда мураккаб композицияни аралаш рельефда бажариш.
- мавзу:** Натурага қараб бюст ишлаш.
- мавзу:** Натурага қараб торс ишлаш.
- мавзу:** Одам қоматини кийимда натурадан ишлаш.
- мавзу:** Эркин мавзуда парранда ва ҳайвонлар ҳайкали эскизини ишлаш.
- мавзу:** Довуд ҳайкалининг бош қисмини кичик ҳажмда бажариш.
- мавзу:** Қолип олиш ва кол и п га кўчириш усулларини ўргатиш ва амалда бажариш.

## 3.1 Асосий адабиётлар:

1. Анри де Моран. “История декоративно прикладного искусства”. М. 1980
2. “Всеобщая история искусства”. 6 жилдлик. М. 1961-65
3. “Большая иллюстрированная энциклопедия древностей”. Прага. 1980
4. Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И. “История искусств Узбекистана с древнейших времен до середины XIX в”. М., искусство, 1965, 688 с.
5. Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И. Очерки искусства Средней Азии древность и средневековье. М., Искусство, 1982, 288 с. Илл.
6. Ростовцев «Учебный рисунок» МЛ 983
7. Ростовцев «Академический рисунок» М.1985
8. Ю.Соибов Т.З. «Дизайн» ўқув қўлланма 2003 й.
9. Санаев Х. Чизматасвир ва қаламтасвир фанидан ўқув услубий қўлланма» 2004 ТДТУ
10. Мухаммадиев Э. Рангшунослик. Самарканд 2002
11. Барчаи Е. Анатомия человека.

- 12.Большаков А.И. Декоративная лепка. Л-М. "Стройиздат"
- 13.Воронова О. Искусство скульптуры. Изд. «Знание». 1981
- 14.Ерманская В.В. Основы понимания скульптуры. Изд. «Искусство». М. 1964
- 15.Ерманская В.В. Что такое искусство. Изд. «Изобразительное искусство». 1977.
- 16.Крестовский И. Скульптура.
17. Мелюков Т. Скульптурно-лепные работы.
- 18.Лактери Э. Лепка фигуры человека.
- 19.Однаралов Н. Скульптура и скульптурные материалы.
- 20.Песаревский Л.Г. Лепка головы.
- 21.Соколов В.П. Лепка фигуры. М.Изд. Акад.художеств.

#### **Қўшимча адабиёт:**

1. Школа изобразительного искусства 10 том Изд. М. 1992г.

#### **Интернет сайтлари:**

[www./iNO.net](http://www.iNO.net)

[www.v.iivopis.ru](http://www.v.iivopis.ru)

[www.sadro.ru](http://www.sadro.ru)

[www.saralan.ru](http://www.saralan.ru)

[www.ocinka.ru](http://www.ocinka.ru)

[www.tcxlile-press.ru](http://www.tcxlile-press.ru)

[www.msus.org](http://www.msus.org)

[www.arlacademu.spd.ru](http://www.arlacademu.spd.ru)

[www.nhgt'.iiital.uz](http://www.nhgt'.iiital.uz)

<http://www.intuit.ru/> – internet universitet, dasturlash bo'yicha yozma va video ma'ruzalar o'qish, test sinovlaridano'tish va sertifikat olish imkoniyati mavjud.

<http://www.ziyonet.uz> – dasturlash asoslari bo'yicha referatlar topish mumkin.

**II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL  
TA'LIM METODLARI**

**“QALAMTASVIR, RANGTASVIR VA HAYKALTAROSHLIK” UMUMIY  
FANLARINING ICHIDAGI (QALAMTASVIR)” FANIDAN  
AMALIY MASHG'ULOTLARDA  
O'QITISH TEXNOLOGIYASI**

**1.1. Fanga kirish, fanning maqsadi, vazifalari va mohiyati**

**1.2.**

Vahti – 2 soat	Talabalar soni: 5-10 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Kirish, vizual amaliy mashg'ulot
Amaliy mashg'ulotining rejasi, ya'ni bajariladigan topshiriqlar.	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. konstruktiv va konstruktiv chizg'ilar atamalarining ma'nosi.</li> <li>2.“Qalamtasvir” so'zining ma'nosi, uning talabalarga fan sifatida qo'yilish sabablari</li> <li>3. Fanning maqsadi va vazifalari</li> <li>4. “Qalamtasvir” fanining predmeti</li> <li>5. Fanning Arxitektura, qishloq aholi hududlarini arxitektura- loyihalashni tashkil etish, qishloq qurilishi loyixalash mutaxasislarini tayyorlashdagi roli va o'rni</li> <li>6.Fanning jamiyatni ijtimoiy- iqtisodiy, ekologik va estetik rivojlanishidagi mohiyati</li> <li>7. Fanning boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi</li> </ol>
<i>Amaliy mashg'ulotning maqsadi:</i> “Qalamtasvir” fanining predmeti va bilish usullari, rivojlanish tarixi boshqa fanlar bilan aloqasi haqidagi bilimlarni hamda to'liq tasavvurni shakllantirish.	
<p><i>Pedagogik vazifalar:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>-talabalarga konstruktiv va konstruktiv chizg'ilar atamalarining ma'nosini tushuntirish;</li> <li>-“Qalamtasvir” tushunchasining ma'nosini va uning fan sifatida kiritilish sabablarini tushuntirish;</li> <li>-fanning maqsad va vazifalarini ochib berish va tushuntirish;</li> <li>-“ Qalamtasvir”fanining predmetini tushuntirish;</li> <li>-Fanning Arxitektura, Qishloq aholi punktlarini arxitekturaviy rejalashtirishni tashkil etish, Qishloq qurilishi loyixalash mutaxasislarini tayyorlashdagi roli va o'rni;</li> <li>- Fanning jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik va estetik rivojlanishidagi mohiyati;</li> <li>- Fanning boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi;</li> </ul>	<p><i>O'quv faoliyatining natijalari:</i></p> <p><i>Talaba:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- Qalamtasvir tushunchasining ma'nosini anglab oladi va uni fan sifatida qabul qiladi.</li> <li>-fanning maqsad va vazifalarini tushunib oladi va ularni aytib beradi;</li> <li>- Qalamtasvir fanining predmetini izohlaydi;</li> <li>-fanning Arxitektura, qishloq aholi hududlarini arxitektura-loyihalashni tashkil etish, qishloq qurilishi loyixalash mutaxasislarini tayyorlashdagi roli va o'rnin anglab oladi va uni o'rganishga kirishadi;</li> <li>-fanning jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik va estetik rivojlanishidagi mohiyatiga izoh bera oladi;</li> <li>-fanning boshqa fanlar bilan aloqadorligi va bog'liqligini tasvirlaydi.</li> </ul>

O'qitish uslubi va texnikasi	Vizual amaliy mashq, blis-talab, mashqni bajarish, klaster, “ ishlash-yo'q ” texnikasi
O'qitish vositalari	amaliy mashqlar quroli, proektor, tarqatma materiallar, grafik organayzerlar.
O'qitish shakli	Jamoa, guruh va juftlikda ishlash.
O'qitish shart-sharoiti	Molbert,proektor, kompyuter bilan jihozlangan auditoriya
Monitoring va baholash	Amaliy bajarilgan ishlarni ko'rgazmaga qo'yish nazorat: topshriq-bajarish yoki nazorat: test olish

## 1.2. Kirish, amaliy mashg'ulotning o'qitish texnik kartasi

Bosqichlar, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. Kirish (10 min.)	1.1. Amaliy ish mavzusi va uning rejasini e`lon qiladi. Amaliy ish maqsadini, undan kutilayotgan natijalarni ma`lum qiladi	1.1.Topshriq beriladi, bajariladi.

<p>2-bosqich. Asosiy (60 min.)</p>	<p>2.1. Talabalar e`tiborini jalb etish va bilim darajalarini aniqlash uchun tezkor topshriq berilib, bajarish.o`tkazadi: - konstruktiv (jism shaklini qalapmda chiziq orqali ifodalash) va konstruktiv chizg`ilar so`zlarining ma`nosini qanday tushunasiz? -Qalamda tushlash va (shtrix)qalamda jips chiziqqlarni yonma yon yotqizib ishlash so`zlarining ma`nosini qanday tushunasiz? -Qalamtasvir deganda nimani tushunasiz ? - qalamtasvir amaliyoti qanday qilib san`at darajasiga erishgan ? -qalam va tasvir so`zining orasida qanday bog`lanish va farq mavjud ? Nega u juftlikda aytiladi? Mazkur san`at turi nima sababdan talabalarga fan sifatida kiritilgan? 2.2. O`qituvchi vizual materiallardan foydalangan holda (1-2 ilovalar) yuqoridagi bajariladigan ishlarni bajarishadi va amalay ishni namayon etishda davom etadi. Qalamtasvir fanining maqsad va vazifalarini tushuntiradi, fanning predmetini izohlaydi (3-ilova). 2.3. Fanning Arxitektura, Landshaft arxitekturasi, Qishloq aholi punktlarini arxitekturaviy rejalashtirishni tashkil etish, Qishloq qurilishi loyihalash mutaxassislarini tayyorlashdagi roli va o`rnini tushuntirib, ochib beradi, izohlaydi. Fanni o`rganishdan qanday natijalar kutilayotganligini tushuntiradi. 2.4. Talabalarga fanning jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik va estetik ijodiy rivojlanishidagi mohiyatini sharhlab, beradi</p>	<p>2.1. Bajarilgan ish ko`riladi. Navbat bilan talabalar bajargan ishlar bir-birini takrorlamay ijodiy mazmuni aniqlanadidi. O`ylaydi, bajaradi. Bajaradi va to`g`ri bajargan ish ko`riladi ya`ni aniqlanadi. 2.2. Ko`rgazmalarining mohiyati va mazmunini muhokama qiladi. Ish tekshirilib, asosiy joylarini yodga oladi. 2.3. Eslab qoladi, ishlaydi. Har bir kompazision tuzilishga javob berishga harakat qiladi.</p>
<p>3-bosqich. YAkuniy (10 min.)</p>	<p>3.1. Mavzuga yakun yasaydi (5-ilova) va talabalar e`tiborini asosiy masalalarga qaratadi. Faol ishtirok etgan talabalarni rag`batlantiradi. Mustaqil ish uchun vazifa: Mavzuniing asosiy tushunchalari bo`yicha klaster tuzish, (6-ilova), topshriqni bajarish va bajarmaslik texnikasi asosida amaliy tayyorgarlik ko`rish</p>	<p>3.1. topshriq oglinadi, aniqlashtiradi. 3.2. Bajarish uchun topshriq oladi.</p>



## Vizual materiallar

### **Natyurmort so'zining ma'nosi**

**Natyurmort-** fransuzcha so'z bo'lib (nature morte) "jonsiz tabiat" degan ma'noni anglatadi. **Natyurmort-** so'zining asl manosi tasvirlash uchun har xil jonsiz narsalardan qo'yilgan ya'ni tuzilgan tamoshabin e'tiborini o'ziga rom etuvchi jismlar to' dasidan yasalgan saxna burchagi.

**Natyurmort-**da mehnat qurollari, sabzavot va mevalar, gullar, paranda va mayda hayvonlar tasvirlanadi yana hayotda insonning mayishi hayotini ham aks etdiradi.

**Natyurmort-** XVII asrning boshlarida Gollandiyada paydo bo'ldi. Keyinchalik ko'plab mamlakatlarga tarqalib ayniqsa XVIII asrning boshlariga kelib tasviriy san'atda keng rivoj topgan mustaqil janrga aylandi.

### **Geometrik jismlardan tuzilgan natyurmort**

**Geometrik jismlardan tuzilgan natyurmortning manosi-** Rangli matolar og'ushiga gipsdan yasalgan opoq rangli geometrik jismlardan kompozitsiyon topilib qo'yilgan, tamoshabin e'tiborini o'ziga rom etuvchi yaana suniy yorug'likni yon tamonidan berib, shakli va soya joylari bo'rtirib ko'rsatilgan natyurmort.

**Geometrik jismlardan tuzilgan natyurmort mashqining vazifasi -** O'quvchi talabalarning ilk bor ham berilgan qog'oz o'lchamiga kampazitsiyon joylab, ham perspektiva qisqarish qonunlari asosida qurib, ham rangli matolar og'ushida oq gipsdan tashkil etilgan geometrik jismlarning bir biridan nafis farqini ajratib , chiziqlarni yonma yon jips berib qalamda shtrix ya'ni tuslashni o'rganishdir..

### **Geometrik jismlardan tuzilgan natyurmort**


**Geometrik jismlardan tuzilgan natyurmortni qalamda tasvirlashdan oldin,** odatda rasm zalining yoki auditoriyaning yon tamondan har tamonlana yaxshi yorug' tushuvchi joyga tamoshabin etiborini rom etuvchi, har xil rangla matolar og'ushida geometrik jismlardan natyurmort qo'yiladi. Qalam bilan tasvirlab urganish uchun xonani qarong'i qilib sunni yorug'likni chap yon tamondan berib geometrik jismlardan tuzilgan natyurmort qo'yiladi. Bunday tartibda qo'yilgan natyurmortdagi jism av matolar soyalari yaqqol ko'zga tashlanadi. Qalam bilan tasvirlash jarayonida o'quvchiga hech qanday muammo to'g'dirmaydi.

### **Geometrik jismlardan tuzilgan natyurmortni qalamda tasvirlashga krishish.**

Qo'yilgan geometrik jismlardan tuzilgan natyurmort talba o'quvchilar tamonidan yaxshilab, har tamonlama kuzatilib urganiladi. Har bir talaba o'quvchi geometrik jismlardan tuzilgan natyurmortga nisbatdan o'zi e'qtirgan joydan joy tanlab o'sha joyiga joylashadi. Malbert va taburetkalarini turgan geometrik jismlardan tuzilgan natyuriort tamonga qaratib o'zlarining natyurmortni mukammal ko'rishlarini taminlaydi. Oldin yaratajak natyurmortni planshetidagi

### **Perspektiva qisqarish qonuni.**

Har bir yaratiluvchi tasvir qisqarish qonuni asosida tekis qog'oz satxida uzoq o'zoqlarga cho'zilgan chuqurlik asosida jonli muhut barpo etadi.



**Jismlarning ko'z oldimizdan uzoqlashib borgani sari ufuq chizig'iga qarab qisqarib borishini perspektiva ya'ni qisqarish deyiladi.** Ushbu qonun asosida qurilgan bu rasmdagi temir yo'l, simyog'ochlar va tabiat hamda tasvirdagi butun bir borlik ufuq chizig'i sari bir nuqtaga qisqarishini ko'rib turibmiz

### Ufq chizig'i

Er bilan osmonning ucharshgan joyi ufq chizig'i deb ataladi. Butun borliq borgan sari rasmda tasvirlangani kabi shu chiziqqa qarab qisqarib boradi.



Hamma tamoni devordan iborat xona ichida ufq chizig'ining ya'ni er bilan osmonning uchrashgan joyining qaysi balanlikdan o'tganligini anglash mushkul. SHu boyisidan ham ushbu qoida bizga bunday vaziyatda ufq chizig'ini topishimizga turtki bo'ladi. **YA'ni tasvir yaratuvchi odomga perpendikulyar shu odam turgan erga paralel, shu odamning ko'zining to'g'risidan o'tgan chiziq ufq chizig'i bo'ladi.** Xona ichida shu qoidadan foydalanib bemalol ufq chizig'ining qaerdan o'tganligini tasavur etib, qisqarish qonuni nihis etib, berilgan topshiriqni ya'ni natyurmortdan tuzilgan to'dani berilgan qog'oz satxiga tavirlay olamiz.

### Fanning asosiy vazifalari

- talabalarga geometrik jismlardan tuzilgan natyurmortni qalamda tasvillash mashqining shakllanishidagi asosiy davrlar va ijodiy-badiiy yo'nalishlarni o'rgatish;
- qalamtasvir funktsional chizg'ilar va tuslanish "manzaraviy" tashkil qilishning asosiy tamoyillari va shakllari haqidagi bilimlarni berish;
- qalamda chizg'ilar yordamida qurish va tusberishni shakllantirshning ilg'or usullari va ularni zamonaviy uslubda qo'llalsh ko'nikmalarini talabalarda hosil qilish;
- qalam bilan ishlashning tasnifi va xillari. Ular orasidagi farq va umumiylilik, qalam bilan ishlashda ishtrok etuvchi qalam turlarining tarkibiy elementlari haqidagi tushunchalarni yoritib berish.

Jahon miqiyosida qalamda ishlash maxorati bo'yicha erishilgan tajribalar, yutuqlar, nazariy va amaliy bilimlarni o'rganish, qalamda ishlash san'ati merosi va sir-asrorlarini egallashdir.

**Fanning “Arxitektura” “Qishloq aholi hududlarini arxitektura-loyihalashni tashkil etish” “Qishloq qurilishi loyihalash” arxitektorlarini tayyorlashdagi roli va o'rni**

- qalamda tuboretvani tasvirlash mashqi orqali ishlash mahorati tasnifi va xillari, ular orasidagi farq va umumiylik, tasviriy ,amalaliy va arxitekturaviy rivojlanishga tasiri haqidagi tushunchalarni yoritib berish.

4. Fanning predmeti jahon miqyosida qalamda tuboretvani tasvirlash mashqi orqali ishlash mahorati bo'yicha erishilgan tajribalar, yutuqlar, nazariy va amaliy bilimlarni o'rganish, qalamda ishlash mahorati sir-asrorlarini egallashdir.

5. Barcha arxitekturaning turlari aslida dunyo xalqlarining ijodiy me'morchilik san'ati negizida tarixiy shakllangan ijodiy-amaliy soha bo'lib, mazkur fan arxitektorlarining qalamda ishlash mahorati yo'nalishidagi amaliy bilimlariga erishib bu mahoratlarini ijodiy yo'nalishlariga qo'llab me'mor mutaxassisliklarini egallashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ularga zamonaviy qalamda ishlash mahoratining yangi turlarini yaratishda muhim kompozitsiyaviy, ijodiy bilimlar, tajribalar beradi.


### **Klaster tuzish qoidasi**

-to

1. Hayolingizga kelgan barcha tushunchalarni tubaretkani tasvirlash mashqi orqali qalamda tasvirlang. G'oya sifatini muhokama qilmang: ularni oddiy holda chizing.
2. CHizg'ilar va boshqa omillarga e'tibor bermang.
3. Ajratilgan vaqt tugaguncha tubaretkani tasvirlash mashqi orqali tasvirlashni to'xtatmang. Agarda fikrlar kelishi birdan to'xtasa, u holda qog'ozga qaralama chizing, qachonki to'la fikrlar paydo bo'lmaguncha.
4. Ko'proq ijodiy muhit bo'lishligiga harakat qiling. Tushunchalar soni, ular oqimi va ular o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik bo'yicha chagaralanmang.

1. Qalam bilan ishlash mahoratini puxta egallamasdan yoki ijodkor bo'lib shakllanishi mumkinmi?
2. Jamiyatning tizimi o'zgarishi bilan qalamda rasm solish o'zgaradimi?
3. Qalamda ishlash mahorati sust o'quvchi talabaning yaxshi tomonga o'zgarishiga ta'siri bormi?
4. Qalamda ishlash mahoratini mukammal egallagan o'quvchi talabaning ijodiy fikri bilan jamiyatning estetik dunyoqarashi, falsafiy tafakkuri orasida bog'lanishi mavjudmi?
5. Qalamtasvir fanining san'atga aloqador barcha fanlarga bog'liqmi ?
6. Me'morchilikning shakllanishiga qalam bilan ishlash mahoratining ta'siri bormi?
7. Qalam bilan ishlash mahoratining shakllanishi va rivojlanishiga mavjud bo'lmagan sharoitlar ta'sir qila oladimi?

## Maishiy predmetlarni qalamda konstruktiv ishlash mahorati bo'yicha talabalar amaliy mashg'ulot darsi



Maishiy predmetlarni qalamda konstruktiv qurish jarayonida ushbu rasmda tasvirlangani kabi xona ichidagi maishiy predmetlar obdon kuzatladi. Ularning har birining joyini aniq topish zarur.


Buning uchun yuqorida bayon qilinganidek perspektiva ya'ni qisqarish qonunida ko'rsatilgan ufq chizig'ini odam ko'rish balanligi barobar topib, ana shu uqf sari maishiy predmetlarni yo'naltiriladi ya'ni qisqarishi ta'minlanadi.



Ana shu usul bilan oldinda joylashgan maishiy predmetlarga nisbatdan orqada joylashgan maishiy predmetlarning qisqarishilari ta'minlanadi.

Maishiy predmetlarni (etajerka)ni qalamda konstruktiv qurilishini ishlash mahorati ustida ham quyidagi qisqa xomaki amaliy mashqlarni o'tkazib, ularning perepektiva qisqarish qonunlari asosida, chiziqlar orqali qurulmasi topiladi.





Bu xomaki mashqda ham shu rasmda tasvirlangani kabi ufq chizig'i aniq topib, shu ufq chizig'i sari qisqartirib boruvchi etajerkaning har bir ufq chizig'idan yuqorida turgan taxmonlarining pastki tarafi ko'proq ko'rkga ega bo'lib ufq chizig'iga yaqinlashgani sari pastki ko'rinishi qisqarib, ufq chiziqning o'zida na ustki na ostki tarafi ko'rinmasdan faqat yon tomonining ko'rki ifoda etilganini kuzatiladi. Ufq chizig'idan pastdagi taxmonlar ko'rki endi aksincha ya'ni taxmonlarning ustki tarafi ufq chizig'idan uzoqlashgani sari ko'proq ko'rinishga ega bo'la boradi. Ana shunday qurilish natijasida har qanday maishiy predmetlarni to'g'ri tasvirlashni unutmazlik zarur.



Ushu tasvirlarda maishiy predmetlarning ya`ni buyumlarning perspektiva qisqarish qonunlari asosida konstruktiv qurilmasi va jurnal o`qishga mo`ljalangan stolning buyumlar ishtrokida har tomondan ko`rinishi tasvirlangan.

**Kompozitsiya yaratish g'oyasi.**

To hayotdagi qiziq, va muhim narsalarni ilgab tabiat go'zalligini anglamaguncha kompozitsiya yaratishga o'rganish amri mahol. Obraz ustida ishlash insonning tafakkur faoliyati bilan bogliq. Tasvirlarning mavzusi ham hayotni chuqur bilish natijasida paydo buladi. Faqat ugina g'oyani tasvir kompozitsiyasini qanday tushishi kerakligini aytib berishi mumkin: nur va soya qanday berilishi kerak, narsalarni qanday joylashtirish kerak va h.k. fantastik tasavvurga ega bo'lmay turib tasvirni joy joyiga qo'yish nima haqida gapirishni bilmay turib minbarga ko'tarilganga o'xshagan gap. Agar talabalar tomonidan kompozitsiya mavzusi va syujetlari hayotni chuqur bilmagan holda tuzilgudek bo'lsa, tasvir ishonarli chiqmaydi, narsalar ruhiy kayfiyatlardan, shaxsiy fazilatlardan mahrum bo'lib qoladi, shu jumladan kompozitsiya oldin kuzatilgan suvratlar asosida yuzaki tuzilib, narsalar ham taxminan tasvirlanadi, bu yo'sinda tuzilgan kompozitsiya ma'nosiz asarni eslatadi.

**Talabalarga kompozitsiyani urgatish**

Kompozitsiyaga o'rganishning butun jarayoni hayotda qiziq, muhim, asosiy, chinakam go'zal narsalarni ilg'ash mahoratiga bo'ysundirilgan bo'lishi kerak. Talabalarning umumiy ma'lumoti, ularning falsafa, adabiyot hamda fan va san'atning boshqa turlaridan boxabarligi g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Garchand ular har taraflama ma'lumotga ega bo'lishi uchun tasvriy san'at kafedrasining o'quv rejasi boy bo'lishi lozim ana shundagina talabalar o'z mahoratlarini mustaqil ravishda oshirib borishlari muhim.

**Mahoratni oshirish**

Kasb mahorati, har taraflama chuqur bilim va iqtidordan tashqari o'quvchi yuksak ijtimoiy fuqaroviy g'oyalarga ham ega bo'lishi lozim. Qalamtasvir mashg'ulotlari zamonaviy hayotga faol munosabatni tarbiyalab borish, shahar, o'lka va butun mamlakat hayotidagi qolaversa jahonda bo'layotgan voqealardan voqif bo'lib turishi shart. O'qish davomida odamlar hayoti, ular mehnati, kechinmalari va kurashishib yashashlari haqida xabardor bo'lishlari lozim. Bular barchasi talabalarni teran ijtimoiy g'oyalarni aks ettirishga va insonlar turmushining farovon bo'lishlari yo'lida izlanishib, beqiyos loihalar yaratishlariga ijodiy imkon yaratadi.

**Maishiy predmetlardan tuzilgan kompozitsiya.**



Maishiy predmetlardan kompazitsiya tuzish sof ijobiy ish. Unda o'quvchi talaba didi va havasi, kompozitsion madaniyati namoyon buladi. maishiy predmetlardan kompazitsiya tasodifan tuzilmaydi. Jismlar mavzu jihatdan birlashtirilgan va o'z amaliy vazifasiga ko'ra bir biriga yaqin bo'lmog'i lozim. Barcha jismlar tabiiy taassurot paydo qilsagina mayishi predmetlar kompozitsiyasi ma'nodor bo'ladi. Undagi mayishi predmetlarning joylashtirilishida hech qanday zo'rakilik va sun'iylik bulishi kerak emas. Agar masalan, stol yoniga kravat yoki televizor qo'yilsa, bunday joylashtiruv o'z ma'nosiga ko'ra bema'ni va tasodifiy tuyulgan bo'lur edi. Narsalar pala partish, tasodifiy joylashtirilmasligi kerak. Har bir predmet o'z ma'nosiga ko'ra boshqasi bilan bog'liq bo'lishi lozim. Ularni iloji boricha tabiiy ko'rinadigan qilib joylashtirish kerak. Maishiy predmetlar joylashuvi umuman hayotiy haqqoniyatga, mantiqqa va uzviy bog'liqlikka asosan bo'lishi shart. Maishiy predmetlarlar nafaqat bir biri bilan hamjihat bo'lishi, balki tasvirdagi estetik ma'nodorlikning asosiy qoidalaridan biri: shakllar, jismlar, nur va soyalar va h.k.. larning xonaga mos ranglardan iboratligi talabiga javob berishi kerak. hajmi va shakli bo'yicha bir xil bo'lgan bir nechta narsa yagona butunlik taassurotini uyg'ota olmaydi. Buyumlar hajmi urtasidagi xaddan ortiq katta tafovutdan ham kochish kerak. Masalan, katta jism yoniga qo'yilgan kichik jism u bilan uyg'unlasha olmaydi, chunki u jismga nisbatan xaddan tashqari kichik bo'lib, sezilmasligi mumkin. Katta bilan kichik, ok. bilan qora, tik va yotiq, sirtlardagi buyumlar, keng va tor, yaltiroq va xira - bunday qarama qarshi xususiyatli tuzilishlar har bir ifoda shaklning, hajmning, moddiyligining, omilining rang-barangligining xususiyatini uqtirib boradi, ma'nodorligini kuchaytiradi, bir xillikni bartaraf etadi, natyurmort xolatiga jon kiritadi.

## O'quv materiallari

### Ekspert varag'i № 1

Geometrik jismlardan tuzilgan natyurmortni hayolingizdan qalam bilan A-3 qog'oz yuzasiga (zarisovka) tez chizib tasvirlab ko'rsating.

### Ekspert varag'i № 2

Geometrik jismlardan tuzilgan kompozitsiyaning konstruktiv qurilishini qalam bilan A-3 qog'oz yuzasiga chizib bering.

### Ekspert varag'i № 3

Maishiy predmetlardan birontasini qalamda A-3 qog'oz yuzasiga konstruktiv qurilishini topib chizing.

## Baholar me'zoni va ko'rsatkichlar jadvali

Tasvir soluvchilar	Tasvir solish uchun tasurotga boyligi 60%	Tasvirning yangiligi 15%	Tasvirni tasvirlashda vositalarning ishlatilishi 15%	Reglament 10%	Jami

### Amaliy mashg'ulrtga tayyorgarlik ko'rish va mustaqil ish uchun topshiriq

1. Geometrik jismlardan tuzilgan natyurmortdan ijodiy kompozitsiya yaratish.
2. Geometrik jismlardan tuzilgan kompozitsiyaning konstruktiv qurilishidan fazoviy lavha chig'zish.
3. Maishiy predmetlardan perspektiv ko'rni jonli tasvirlash.

### Topshiriqni bajarish uchun tavsiya etilgan ko'rgazmali qurollar.

Har xil ya'ni ko'k, qizil, sarg'ich, yashil va boshqa ranglardagi matolar. Gipsdan yasalgan geometrik jismlar (kub, piramida, prizma, silindr, shar, konus va hokazalar).

Gipsdan yasalgan geometrik jismlar (kub, piramida, prizma, silindr, shar, konus va hokazalar).

Maishiy predmetlardan stol, stul, tuboretka, va boshqa maishiy buyumlar.

## Bajarilgan topshiriqni baholash reyting bali

10,3-12 ball	–“a`lo”
8,5-10,2 ball	–“yaxshi”
6,6-8,4 ball	–“qoniqarli”
0-6,4 ball	–“qoniqarsiz”

## Tarqatma materialning taxminiy nusxasi FSMU texnologiyasi

- (F)- Yangi kompozitsiya yarating.  
(S)- Yaratilajak yangi kompozitsyani fiklab badiiy taassurotlar bilan boyiting.  
(M)- Yaratilajak yangi kompozitsyani ijodiy namoyon eting.  
(U)- Yaratilajak yangi kompozitsyaning tasvirini umumlashtiring

Ushbu texnologiya yaratuvchilarning mustaqil fantastik fikr qilishiga, erkin fikrlash va o'z fikrini yaratilajak asarida namoyon etishga, erkin ijod qilishga, mashg'ulotlardan egallangan amaliy bilimlarni baholashga hamda boshqalar bajargan vazifalari bilan solishtirib ko'rib o'zi bajargan vazifasini haqqoniy baholash madaniyatiga o'rgatadi.

**F** Yangi kompozitsiya yaratish uchun fikr yuriting.

**S** Yangi kompozitsiya yaratish uchun taassurotlaringizni ishga soling.

**M** Yangi kompozitsiya yaratish uchun ijodiy fikrlang.

**U** Yangi kompozitsiya yaratish uchun fikringizni umumlashtiring

### **Nazorat topshriqlari va vazifalari**

1. Geometrik jismlardan tuzilgan natyurmortning ufq chizig'idan pastda joylashgan ko'rinishini zarisovka qiling.
2. Geometrik jismlardan tuzilgan kompozitsyaning konstruktiv qurilishini ufq chizig'idan yuqoridagi fazoviy qurilishini namoyon eting.
3. Maishiy predmetlardan qoramali kompozitsiya yasang.
4. Maishiy predmetlarning biri ya`ni tuboretkaning fazoviy perspektiv qisqarishining tasvirini xomaki chizib bering.

### **Mustaqil nazoart topshriqlari va vazifalari**

1. Qirrali jismlardan kampazitsiya tuzib shakillarini namoyon eting.
2. Oval jismlardan birontasining fazoviy konstruktiv qurilishini chizing.
3. Maishiy predmetlardan biri ya`ni stulning qurilmasini perspektiv qisqarish qonuni asosida chizing.



## 1. “Keys-stadi” metodi

«Keys-stadi» - inglizcha soʻz boʻlib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – oʻrganmoq, tahlilqilmoq) aniq vaziyatlarni oʻrganish, tahlilqilish asosida oʻqitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini oʻrganishda foydalanish tartibida qoʻllanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari oʻz ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim(Who), qachon(When), qaerda(Where), Nima uchun (Why), qanday/qanaqa (How), Nima natija (What).

### “Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
<b>1-bosqich:</b> Keys va uning axborot taʼminoti bilan tanishtirish	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ yakka tartibdagi audio-vizual ish;</li> <li>✓ keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda);</li> <li>✓ axborotni umumlashtirish;</li> <li>✓ axborot tahlili;</li> <li>✓ muammolarni aniqlash</li> </ul>
<b>2-bosqich:</b> Keysni aniqlashtirish va oʻquv topshirigʻni belgilash	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ individual va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muammolarni dolzarblik ierarxiyasini aniqlash;</li> <li>✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash</li> </ul>
<b>3-bosqich:</b> Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali oʻquv topshirigʻining yechimini izlash, hal etish yoʻllarini ishlab chiqish	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ individual va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muqobil echim yoʻllarini ishlab chiqish;</li> <li>✓ har bir echimning imkoniyatlari va toʻsiqlarni tahlilqilish;</li> <li>✓ muqobil yechimlarni tanlash</li> </ul>
<b>4-bosqich:</b> Keys yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ yakka va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muqobil variantlarni amalda qoʻllash imkoniyatlarini asoslash;</li> <li>✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash;</li> <li>✓ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish</li> </ul>

**Keys.** Mavzu asosida natura qoʻyildi. Uni qogʻoz yuzasiga joylashtirilganda xatolik yuz berdi. Amaliy ish jarayonida qanday qoidalarga eʼtibor berilmagan.

#### Keysni bajarish bosqichlari va topshiriqlar:

- Keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni belgilang (individual va kichik guruhda).

- Topshiriqni to'g'ri bajarilishi uchun bajariladigan ishlar ketma-ketligini belgilang (juftliklardagi ish)

## 2. "Assesment" metodi

**Metodning maqsadi:** mazkur metod ta'lim oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazoratqilish, o'zlashtirish ko'rsatkichi va amaliy ko'nikmalarini tekshirishga yo'naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta'lim oluvchilarning bilish faoliyati turli yo'nalishlar (test, amaliy ko'nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo'yicha tashhisqilinadi va baholanadi.

### Metodni amalga oshirish tartibi:

"Assesment" lardan ma'ruza mashg'ulotlarida talabalarning yoki qatnashchilarning mavjud bilim darajasini o'rganishda, yangi ma'lumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy mashg'ulotlarda esa mavzu yoki ma'lumotlarni o'zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o'z-o'zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o'qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o'quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo'shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

**Namuna.** Har bir katakdagi to'g'ri javob 5 ball yoki 1-5 balgacha baholanishi mumkin.

### Test

- **Chizilishi lozim bo'lgan naturani qog'ozga to'g'ri, chiroyli joylashtirish**

a) kontrast      s) konsovka  
b) kolorit      d) kompanovka

### Qiyosiy tahlil

- Yorug'lik va soyaning farqini tahlil qiling?

### Tushuncha tahlili

- Refleks so'zini izohlang...

### Amaliy ko'nikma

- Qalamtasvirda ishlash usullarini o'rganing.

## 3. "Tushunchalar tahlili" metodi

**Metodning maqsadi:** mazkur metod talabalar yoki qatnashchilarni mavzu buyicha tayanch tushunchalarni o'zlashtirish darajasini aniqlash, o'z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu buyicha dastlabki bilimlar darajasini tashhis qilish maqsadida qo'llaniladi. Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar mashg'ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- o'quvchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo'lgan so'zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi ( individual yoki guruhli tartibda);
- o'quvchilar mazkur tushunchalar qanday ma'no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo'llanilishi haqida yozma ma'lumot beradilar;
- belgilangan vaqt yakuniga etgach o'qituvchi berilgan tushunchalarning tugri va tuliq izohini uqib e'shittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
- har bir ishtirokchi berilgan tugri javoblar bilan uzining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o'z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

**Namuna:** "Moduldagi tayanch tushunchalar tahlili"

<b>Tushunchalar</b>	<b>Sizningcha bu tushuncha qanday ma'noni anglatadi?</b>	<b>Qo'shimcha ma'lumot</b>
Natura	rassom tasvirlaydigan borliqdagi obyekt (inson, predmetlar, manzara va h,k).	
Profil	yon ko'rinish	
Fas	old ko'rinish, yuz, chehra.	
Proportsiysa	naturadagi buyum va predmetlarning o'zaro nisbatlari, mutanosiblik.	
Natura	rassom tasvirlaydigan borliqdagi obyekt (inson, predmetlar, manzara va h,k).	
Portret	inson qiyofasini aks ettiruvchi tasviriy san'at janri	
Avtoportret	musavvir o'zining portretini ishlashi	
Stilizatsiya	uslublashtirish, narsalar shakli va tuzilishini soddalashtirish yoki murakkablashtirish.	

#### IV. Amaliy mashg'ulotlar.

##### Kirish: Qalamtasvirning maqsad va vazifalari, qonuniyatlari

Qalamtasvir – barcha tasviriy san'at turlarining asosi hisoblanadi. Rasm chizishni o'rganish talabalarga atrofdagi jismlarni realistik tasvirlash bilan birga, ularning estetik didlarini ham o'stirishda katta ahamiyatga ega.

Tasviriy san'at turlarining asosi hisoblangan qalamtasvirning chizmachilik bilan taqqoslasak, uning xususiyatlari ayon bo'ladi. Birinchidan, tasvirni ko' bilan chamalab, o'z qo'li bilan qisqa vaqtda tasvirlab ko'rsata oladi. Ikkinchidan, rassom tasvirda buyumning tashqi asosiy belgilari – uning materialligi, hajmi, yorug'ligi, fazoviy joylashuvi va hokazolarni ko'rsatadi. Uchinchidan, qalamtasvirda nafaqat buyumning tashqi turli belgilari tasvirlanadi, balki buyumning ichki mazmuni ham ifodalanib, kuzatuvchida muayyan fikr va hissiyot tug'diradi.

Qalamtasvir xususiyatlarini chuqurroq o'rganish uchun shartli ravishda tasvirlash bir necha turlarga bo'linishini ko'rib chiqamiz.

Qalamtasvirning tasvirlash vositalari ishlatilishi bo'yicha chiziqli va tusli bo'ladi. Chiziqli rasm qoida bo'yicha osh, yengil va umumlashtirilgan boladi. Chiziqlar orqali badiiy obraz yaratiladi, jadvallar, shartli chizmalar, doskadagi tasvirlar shular jumlasidandir.

Tusli tasvirlar muhitdagi buyumning hajmliligl, yorug'ligi, fakturasi va fazoviy munosabatlarining to'liq ta'rifini beradi. Bunday rasmlarni yorug' - soyali va tusli deb ataladi.

Ayrim buyumlar5ning sharpasi va tashqi ko'rinishi orqali xarakteri, harakati va boshqa fazilatlari juda aniq ifodalanadi. Shuning uchun bunday ko'rinishlarni tasvirlashda ayrim holda tusli tasvirning oddiy turi tanlanadi – bu esa ciluet deb nomlanadi, ya'ni bir xil tus bilan qoplanib, tashqi ko'rinish chizig'I orqali bajarilgan tasvir(1-rasm).



a



b



d



e

1-rasm. Chizmatasvir turlari: a – chiziqli, b – yorug'-soyali, d – tusli, e - siluetli

O'quv va ijodiy ishlarda qalamchizgi(nabroska) va qoralama(zarisovka), etyud, eskiz iboralari keng qo'llaniladi. Qalamchizgi(nabroska) deb – xarakterli chiziqlar yordamida, yengil yorug'-soyani shtrixlar yordamida belgilab, tez bajarilgan chiziqli tasvir, xomaki ishga aytiladi. Qoralama deb esa, qisqa vaqtda ishlangan tugallanmagan rasm bo'lib, qalamchizgidan ko'ra ko'proq ishlov berilgan ishga aytiladi. Etyud bo'lajak asarlarni yaratish uchun bevosita naturadan, hayotdan o'rganish uchun ishlanadigan kichik lavhalardir. Nabroska, zarisovkalar va etyudlar asosida bo'lajak asarning eskizlari yaratiladi.

Qalamtasvir bilan shug'ullanish uchun maxsus ish qurollari: qog'oz, turli yumshoq va qattqlikdagi grafit qalamlar, guash va akvarel bo'yoqlar, mo'yqalam, o'chirg'ich, planshet va molbertlar zarur bo'ladi.

Rasm chizishni o'rganish bu – bir-biri bilan bog'liq bo'lgan quyidagi vazifalarni hal etishni taqozo etadi:

- narsani o'ziga qarab anglash, kuzatish, jismlarni o'zaro solishtirish
- jismlarni shakli, rangi, materiallik xususiyati bo'yicha farqlay bilish
- rasm chizish mashg'ulotlarida fikrlab, jismlarning shaklini aniq tahlil qilishga o'rganish.

Qalamtasvir mashg'ulotlari mutaxassislik o'quv fanlarining asosi sifatida talabalarga quyidagi eng asosiy qonunlarni o'pgatishni maqsad qilib qo'yadi:

- tasviriy san'atda kompozitsiya asoslari
- shakllarning chiziqli konstruktiv tuzilishi
- buyumlarning o'zaro nisbatlari

- tasviriy san'atda perspektiva qonuniyatlari
- shakllarda yorug'-soya qonuniyatlari
- tasvirni bosqichma-bosqich "analiz" va "sintez" asosida to'g'ri bajarish.

Talabalarning narsani o'ziga qarab, xotira va tasavvurdan rasm chizishga o'rgatishda realistik tasviriy san'at qonun-qoidalarining nazariy asoslarini bilishlari katta ahamiyatga ega.

Buyum tekisligida jismni haqqoniy tasvirlash uchun, uning bizga ko'rinib turgan qismi, undagi xos bo'lgan xarakterli jihatlari va xususiyatlarini tasavvur etish lozim:

1. Konstruktiv jihatdan tuzilishi.
2. Nisbati.
3. Hajmi.
4. Qanday materialga ega ekanligi.
5. Fazoda joylashuvi.



**Keys.** Mavzu asosida natura qo'yildi. Uni qog'oz yuzasiga joylashtirilganda xatolik yuz berdi. Amaliy ish jarayonida qanday qoidalarga e'tibor berilmagan.

### **Keysni bajarish bosqichlari va topshiriqlar:**

- Keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni belgilang (individual va kichik guruhda).
- Topshiriqni to'g'ri bajarilishi uchun bajariladigan ishlar ketma-ketligini belgilang (juftliklardagi ish).

### **Amaliy topshiriqlar**

Shakli sodda uy-ro'zg'or buyumlaridan nabroska va zarisovkalar ishlash (10ta).



### **Glossariy**

**Realizm** – (lot. Relalis – moddiy, haqiqiy degan ma'noni bildiradi) san'atda borliqni haqqoniy, obyektiv aks ettirilishi.

**Siluet** – XVIII asr fransuz davlat arbobi E de Siluet nomi bilan bog'liq. Tasviriy san'atda grafik texnika usullaridan biri, figura va predmetlarning tekis va bir xil rangda soyaga o'xshatib ishlangan tasviri. Siluet qog'ozdan kesib ishlanishi ham mumkin. Bu usul qadimiy Xitoy, Yaponiya va Osiyoning boshqa davlatlarida, keyinchalik, XVIII asrdan boshlab Yevropa mamlakatlarida rivojlangan.

**Faktura** – rassom ishlaydigan materialning tashqi ko'rinishi, sathi, yuzining yumshoq yoki qattiq, yaltiroqligiga aytiladi.

**Etyud** – (frans. – o'rganish) bo'lajak asarlarni ishlash uchun bevosita naturadan, hayotdan ishlanadigan kichik lavha, xomaki surat.

**Nabroska** – xarakterli chiziqlar yordamida, yengil yorug'-soyani shtrixlar yordamida belgilab, tez bajarilgan chiziqli tasvir, xomaki ish.

**Zarisovka** - qisqa vaqtda ishlangan tugallanmagan rasm bo'lib, nabroskadan ko'ra ko'proq ishlov berilgan xomaki ish.

## Test

### 1. Qalamtasvirda ishlatiladigan ish qurollari

- a) chizg'ich, qalam, o'chirg'ich, qog'oz
- b) qog'oz, tush, mo'yqalam, chizg'ich
- c) qalam, qog'oz, o'chirg'ich, mo'yqalam
- d) sirkul, qalam, o'chirg'ich, qog'oz

### 2. Chizmatasvirda yengil va umumlashgan chiziqlar orqali badiiy obrazlarni tasvirlash turi

- a) chiziqli
- b) yorug'-soyali
- c) tusli
- d) siluetli

### 3. Buyum yoki naturaning hajmliligi, yorug'ligi, fakturasi va fazoviy munosabatlarining to'liq tasvirlanishi

- a) chiziqli
- b) yorug'-soyali
- c) tusli
- d) siluetli

### 4. Chizmatasvirda buyum yoki naturaning tashqi ko'rinishi orqali xarakteri, harakati va boshqa fazilatlarini bir xil tekis tus bilan qoplab tasvirlash

- a) chiziqli
- b) yorug'-soyali
- c) tusli
- d) siluetli

## Mavzu yuzasidan savollar

1. Barcha tasviriy san'at turlarining asosi nima? (qalamtasvir)

## 2. Oddiy grafit qalam turlarini ayting? (yumshoq,qattiq,o'rtacha)

### **Foydalanilgan adabiyotlar**


- 1.Соибов Т.З, Гильманова Н., Слугин А.П, Бродина М.Р,Тё А.В, Чизматасвир, рангтасвир, хайкалтарошлик. Т., 2010
- 2.Баммес Г. Изображение фигуры человека. Берлин: Изд-во Фольк унд Виссен.1984.
3. Барчаи Е. Анатомия для художников. Будапешт; Корвина, 1959.
- 4.“Drawing techniques” Peter Stenyer, 2013, Arcturus Publishing, London.
- 4.The Complete Book of DRAWING TECHNIQUES a professional guide for the artist. Peter Stanyer. Arcturus Publishing England. 2013.
5. Sculpture: materials & process. Flora Street Dallas.2011.Nasher Sculpture Center.org.




## 1-amaliy mashg'ulot

### Mavzu: Oddiy geometrik shakllar tasviri

Qalamtasvir mashg'ulotlarining asosiy vazifasi – natura o'lchamlarini to'g'ri ifodalagan holda, realistic ko'rsatib berishdan iborat. Bunda ko'z bilan o'lchash (masofa va jism o'lchamlarini qalam bilan ko'zda chamalash) qobiliyatini rivojlantirish va ko'zni to'g'ri qaratish orqali erishiladi.(1-rasm)



1-rasm



Qalamni to'g'ri ushlab qoidalari.


## Tasviriy san'atning asoiy qonun-qoidolari.

**Perspektiva qonuni.** Talabalarga narsani o'ziga qarab, xotira va tasavvurdan rasm chizishga o'rgatishda realistik tasviriy san'at qonun-qoidalarining nazariy asoslarini bilishlari katta ahamiyatga ega.

Buyum tekisligida jismni haqqoniy tasvirlash uchun, uning bizga ko'rinib turgan qismi, undagi xos bo'lgan quyidagi barcha xarakterli jihatlari va xususiyatlarini tasavvur etish lozim:

1. Konstruktiv jihatdan tuzilishi.
2. Nisbati.
3. Hajmi.
4. Qanday materialga ega ekanligi.
5. Fazoda joylashuvi.

Bizni o'rab turgan atrofimizdagi barcha buyumlar tasviriy san'atning asosiy qonunlaridan biri bo'lgan perspektiv qisqarishlarga ega. Tasvirlanayotgan buyumlar, ushbu buyumning qaysi tomonidan tasvirlanishidan qat'iy nazar (uzoqdan, yaqindan, yuqoridan, to'g'ridan yoki chekkadan), chizuvchiga perspektiv o'zgarib ko'rinadi. 2-rasmda temir yo'llar, simyog'ochlar va kenglikdagi boshqa shakllarning bizdan uzoqlashgan sari kichrayib, bir nuqtada tutashishini ko'rishimiz mumkin. Hayotda, garchi, bu o'zaro parallel bo'lgan relslar hech qachon uchrashmasada, perspektiva qonuniga binoan, ular bizdan uzoqlashgan sari, bu holatni ko'ramiz. Bu perspektiva qonuniga asosan sodir bo'ladi.



2-rasm


Masofa, jism masshtabining o'zgarishi, jismning ko'zdan uzoqlashishi bilan faqatgina uning kengligi va balandligi emas, balki chuqurligi ham o'zgaradi. Shuningdek, jism balandligi va hajmi ham kenglikning o'zgarishi natijasida kichrayadi. Shuning uchun olisdagi jism hajmi yaqindagi jism hajmiga nisbatan noaniq bo'lib ko'rinadi.

**Ufq chizig'i.** Ufq chizig'i deb, ko'zimiz balandligida o'tadigan nurga aytiladi. Buni aniqlash uchun qog'ozni olib, uni gorizontal holatda ko'zimiz darajasigacha ko'tarib ufq chizig'ini aniqlashimiz mumkin. Buyum chizuvchiga uch holatda ko'rinishi mumkin:

- ufq chizig'idan yuqorida
- ufq chizig'idan pastda
- ko'zimiz nuri balandligida (ufq chizig'i balandligi darajasida).

Tabiatdagi barcha shakllarning rasmini chizishda, ularning ufq chizig'iga nisbatan joylashuvini aniqlash muhimdir. Ufq chizig'i kuzatuvchi ko'zi darajasida joylashadi, shuning uchun rassomning holati o'zgargach, ufq chizig'ning ham joylashuvi ham o'zgaradi (tik turgan, o'tirgan va hokazo).

**Surat tekisligi,** bu – tasvirlanayotgan natyurmort, manzara, portret va hokazolar bilan rassom orasidagi bo'shliqqa aytiladi (3-rasm).



3-rasm

Fiziologik nuqtai nazardan qaralganda, yorug'lik chizilayotgan buyumga tushub,

rassomga u yoki bu qismning shakli ko'rinadi. Shundan keyingina, rassom uni idrok etib tasvirlashga o'tadi. **Surat tekisligi** – rassom bilan natura o'rtasidagi vosita bo'lib xizmat qiladi.

**Buyum tekisligi** deb, tasvirlanayotgan buyumning joylashgan tekisligiga aytiladi. Buyum tekisligi vazifasida stol, pol, yer va boshqa chizish uchun bajariladigan moslamalar bolishi mumkin.

Ko'rish maydoni va ko'rish burchagi, bu – chizuvchining tasvirlanayotgan buyumni ko'rish vaqtida qamrab olishidir. Rassom tasvirlanayotgan obyektдан qanchalik uzoqlashib brogan sari, uning ko'rish maydoni ham kengayib boradi, bu esa, tasvirlanayotgan obyektning barcha qismlarini aniq ko'rish va tasvirlashga imkon yaratadi.

**Fazoviy perspektiva** deb, buyumlarning fazo (bo'shliq) ta'sirida o'zgarib (qisqarib) ko'rinishiga aytiladi. Fazo tiniq muhit bo'lib, uning tiniqligi tabiatning turli hodisalari ta'sirida o'zgarib turashu mumkin. Shuning uchun tasvirlanayotgan obyektning fazo bo'shlig'ida qay darajada chuqur joylashganiga qarab rang, nisbat, tus va undagi alohida bo'laklarning (yaqqol yoki xira) ko'rinishlariga keskin ta'sir o'tkazadi.

Fazo perspektivasi obyekt kunning qaysi vaqtida tasvirlanayotganligiga (ertalab, kunduzi, kechqurun), yil fasllari hamda atmosfera o'zgarishiga (quyoshli, bulutli, shamol va hokazo) qarab ham o'zgaradi.

Fazoviy perspektivaning bir necha asosiy qoidalari mavjud:

1. Bajarilayotgan tasvir rassomga yaqin bo'lgan buyumlar yaqqol, uzoqdagilar esa, umumiy ko'rinadi. Tasyirda fazoni sezdirish uchun yaqindagi buyumlarni yaqqol, uzoqdagilarni esa, umumiy tasvirlash zarur.
2. Fazo bo'shlig'I (kengligi)da joylashgan buyumlar chizuvchidan qanchalik uzoqqa joylashgan bo'lsa, xira tusda ko'rinadi. Tasvirda fazoviy perspektivani to'g'ri ko'rsatish uchun uzoqda joylashgan buyumlarni ozroq yengil, oldingi qatordagilarni yaqqol tasvirlash zarur.
3. Rassomdan uzoqroq joylashgan buyumlar, atmosfera bosimi ta'sirida siyohrang, havorang va och tusda ko'rinadi.
4. Oldingi qatorda joylashgan buyumlar haqiqiy o'z tusi(rangi)da, uzoqdagilari esa atmosfera bosimi ta'sirida xiraroq va sovuqroq rang tuslariga kiradi.

**Chiziqli konstruktiv tuzilish.** Tasvirlash uchun buyum qanday soda yoki murakkab bo'lishidan qat'iy nazar, u konstruktiv tuzilishga ega. Konstruksiya so'zi – tuzilish, (qurilish) ma'nosini anglatib, rassom buyumni tasvirlashda ushbu qonunga amal qilishi shart.

Buyumning konstruktiv tuzilishi uning asosiy qismlaridan hamda yordamchi chiziqlar o'tkazish yo'li bilan amalgam oshiriladi.

Buyumlar o'z hajmiga ega bo'lishidan tashqari nisbatlarda ham, balandligi va eniga egadir. Bu esa, buyumlarning nicbati deyiladi. Bir necha buyumlardan tashkil topgan qo'yilma o'z nisbatlaridan tashqari, o'zaro katt-kichikligiga qarab nisbatlari mavjud.

Hajmlar. Har bir buyum o'zining hajmiga ega. Uning hajmi qirralari, balandligi, bo'yi va enining mavjudligi bilan belgilanadi. Agar buyumning halmi to'rtburchakdan iborat bo'lsa, uning hajmi ham tekis yuzadan iboratdir.

Egri chiziqlardan tashkil topgan buyumlar (shar, konus, silindr va boshqalar) tekis

yuzalilarga nisbatan ancha hajmdor hisoblanadi.

Yuqoriqa sanab o'tilgan shakllar kontur chiziqlar vositasida ishlanadi. Buyumning tuzilishi, harakati, nisbatlari, uning qanday materialdan tuzilganligini va boshqalarni tasviriy ifodalashda rassom kontur chiziclardan foydalanadi.

**Keys.** Mavzu asosida natura qo'yildi. Naturadagi jism va jussalar mutanosibligida xatolik yuz berdi. Amaliy ish jarayonida qanday qoidalarga e'tibor berilmagan.

### **Keysni bajarish bosqchilari va topshiriqlar:**

- Keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni belgilang (individual va kichik guruhda).
  - Topshiriqni to'g'ri bajarilishi uchun bajariladigan ishlar ketma-ketligini belgilang (juftliklardagi ish).

### **Amaliy topshiriqlar**

Oddiy uy-ro'zg'or buyumlarini konstruktiv tasvirini ishlash (10ta).



### **Glossariy**

**Perspektiva** – (lot.persipisio-aniq ko'rayapman so'zidan olingan). Rangtasvirda borliqni ishonarli tasvirlashga yordam beradigan qonun-qoidalar tizimi. Bu tizimni XV asr Italiya rassomlaridan Paole Uchello, P'ero Francheskolar ixtiro qilishgan. Mazkur qonun-qoidalarga binoan, tasvirlanayotgan manzara yoki narsaning ko'rinishi, uzoq-yaqinligiga qarab uning o'lchami, shakli, rangi va boshqa sifatlarini ishonarli ifodalash mumkin.

**Konstruksiya** – tuzilish(qurilish) ma'nosini beradi.

**Kontur** – (frans - contour) – buyum shakli chegarasini ko'rsatuvchi chiziq.

**Natura** – (lot. -tabiat) rassom tasvirlaydigan borliqdagi obyekt (inson, predmetlar,

manzara va h,k).

**Model** – namuna. Katta qilib ishlangan haykal yoki boshqalarni kichraytirib ishlangan nusxalari.

### Test

**1. Ufq chizig'I deb nimaga aytiladi**

- a) ko'zimiz balandligida o'tadigan nurga
- b) tasvirlanayotgan buyumning joylashgan tekisligiga
- c) rassom bilan natura o'rtasidagi vosita
- d) ko'zimiz balandligi darajasiga

**2. Surat tekisligi deb nimaga aytiladi**

- a) tasvirlanayotgan natura bilan rassom orasidagi bo'shliqqa aytiladi
- b) buyumlarning fazo ta'sirida o'zgarib ko'rinishiga aytiladi
- c) buyumning joylashgan tekisligiga aytiladi
- d) ko'zimiz balandligida o'tadigan nurga aytiladi

**3. Buyum tekisligi deb nimaga aytiladi**

- a) tasvirlanayotgan natura bilan rassom orasidagi bo'shliqqa aytiladi
- b) buyumlarning fazo ta'sirida o'zgarib ko'rinishiga aytiladi
- c) buyumning joylashgan tekisligiga aytiladi
- d) ko'zimiz balandligida o'tadigan nurga aytiladi

**4. Fazoviy perspektiva deb nimaga aytiladi**

- a) tasvirlanayotgan natura bilan rassom orasidagi bo'shliqqa aytiladi
- b) buyumlarning fazo ta'sirida o'zgarib ko'rinishiga aytiladi
- c) buyumning joylashgan tekisligiga aytiladi
- d) ko'zimiz balandligida o'tadigan nurga aytiladi

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Соибов Т.З, Гильманова Н., Слугин А.П, Бродина М.Р, Тё А.В, Чизматасвир, рангтасвир, ҳайкалтарошлик. Т., 2010
2. Баммес Г. Изображение фигуры человека. Берлин: Изд-во Фольк унд Виссен. 1984.
3. Барчай Е. Анатомия для художников. Будапешт; Корвина, 1959.
4. "Drawing techniques" Peter Stenyer, 2013, Arcturus Publishing, London. The Complete Book of DRAWING TECHNIQUES a professional guide for the artist. Peter Stanyer. Arcturus Publishing England. 2013.
5. Sculpture: materials & process. Flora Street Dallas. 2011. Nasher Sculpture Center.org.

## 2-amaliy mashg'ulot

### Mavzu: Oddiy geometrik shakllardan tuzilgan natyurmort

Tasvir mukammalligi, oddiy vositalar yordamida yuqori tasvirga erishish va tasviriy san'atning mohiyatini ochib beradigan asarlar yaratishni ko'ra tutadi. Shu bilan birgalikda, tasvirda rassomning ma'lum jihatlari, uning xarakterli xususiyatlarining ba'zi qirralari aks etadi. Bu esa rasmdagi shakl, hajm va tus munosabatlari haqida bilimlarga ega bo'lishni talab etadi.

#### **Rasmdagi shakl, hajm va tus munosabatlari.**

Har bir jism, qaysi nuqtadan qaralishiga ko'ra, o'zgarib, ko'rinishidan tashqari, doimiy o'zgarimas shakliga ega. Inson doimiy ravishda ko'plab jismlardan taassurot oladi. Natijada, ushbu jismlar va hodisalarning belgilari nafaqat nafaqat insonda taassurot qoldiradi, balki o'xshashligi yuzasidan bir-biri bilan taqqoslanadi: shakl shakl bilan, rang rang bilan va h.k. Bunda har bir jismning doimiy, xarakterli va yorqin belgilari yaxshiroq yodda qoladi.

Jism haqida aniq va to'g'ri tasvvurga ega bo'lish uchun, ushbu jismni boshqa jismlardan ajratib turuvchi ba'zi xarakterli belgilarini tasvirlash zarur.

Shaklni tasvirlay turib, uning konstruksiyasini his etish kerak. Shakl va konstruksiyani yuzaga chiqarishda rasm chizish texnikalarini to'g'ri egallaganlik, shnrix xarakteri va yo'nalishi, yorug'-soya tuslarini haqqoniy bajarishlik talab etiladi.

#### **Chiziq va shtrixlar.**

Tabiatda bizni o'rab turgan barcha jismlar ucn o'lchamlidir. Lekin rassom uni ikki o'lchamli qog'ozda aks ettirishi kerak (balandligi va kengligi). Ikki o'lchamli yuzada uch o'lchamli jismlarni bo'rttirib, hajmdor qilib bajara olish tasviriy san'atning asosi hisoblanadi. Chiziq rasm chizishda asosiy tasvir vositasi bolib, uning xarakteri rassom uchun ma'lum ish quroli yoki vosita vazifasini o'taydi.

Rasmdagi chiziq erkin va turli xil bo'ladi (ba'zan kuchli, birlamchi va qora, ba/zan yengil, biroz bilinear-bilinmas).

Shtrix – bu nisbatan qisqa chiziqlar. Bir joyda ko'p, ikkinchi joyda kam bo'lishi bilan, ular rasmda turli tus hosil qiladi. Qismlarda turli miqdorda shtrixlar chizish tasvirlanayotgan jismning hajmi va shaklini ko'rsatib berish imkonini beradi. Shtrix xarakteri jism shakli bilan monand bo'lishi, bu nafaqat shakl hajmining rasmda to'g'ri ifodalanishi, balki jism tuzilishi haqqoniy chiqishiga imkon yaratadi. (1-rasm)

Bir rasmning o'zida shtrixlarning ikki yo'nalishi ko'rsatilishi mumkin. Yoysimon yo'nalishi shtrixlarni ba'zi shakllarga nisbatan, masalan, shar chizishda ishlatish maqsadga muvofiq. Tekis yuzalarni (qirrali jismlarni) tasvirlash uchun to'g'ri chizikli shtrixlar qo'llaniladi. Egri yuzalarda egri chiziqlarli yarim doira shaklidagi shtrixlar mos keladi.

#### **Geometrik shakllarni yorug' soya ko'rinishlari**

Biz atrofimizdagi jismlar shaklini ularga qay darajada yorug'lik tushgani uchun ko'ramiz. Jismning shakli, xarakteri va materialga yaqinligi, yorug'likning unda aks etishi ham turlicha bo'ladi. Har qanday hajmli jism tekis yoki egri yuzaga ega bo'ladi va yorug'lik tushganida, ularning ko'rinishlari o'zgaradi: yorug'lik nurlari jismning turli yuzalariga tushib, ularni notekis yoritadi. Yuzaning ba'zi qismlariga ko'proq, ba'zilariga esa, kam yorug'lik tushadi. Yuzaga tushuvchi yorug'lik miqdori, eng

avvalo, yorug'lik manbai va jism oralig'idagi masofaga va jism manbaga nisbatan qay darajada joylashganligiga bog'liq. Yuzaning yoritilganlik darajasi yorug'lik yuzaga qanday burchak ostida tushishiga ham bog'liq. Yuzaga to'g'ri burchak ostida, ya'ni perpendikulyar holatda yorug'lik tushganida, uning yorishish darajasi eng yuqori nuqtada bo'ladi va buyumdagi ushbu nuqta eng yorug' hisoblanadi.

Jism yuzasi yorug'lik manbayiga nisbatan qiyaroq burchakda joylashgan bo'lsa, yuzaning yoritilish darajasi kamroq bo'ladi: bu yuzadan nurlar sirg'alib ketgandek bo'ladi. Tekis va yaltiroq yuza, dag'al yoki xira yuzaga nisbatan yorug'likni o'zida ko'proq aks ettiradi. To'q rangli yuzalar ko'p miqdorda yorug'likni yutib yuborib, oz miqdorda aks ettiradi.

Qirrali yuzalarda yorug'-soya o'zgarishi aniq bo'lsa, qiya yuzalarda esa, masalan, shar, silindr kabi yuzalarda yorug'likdan soyaga o'tish jarayoni sekin, noaniq yuz beradi va ularning ekvalori to'qroq tusda bo'ladi. Och rangli jismlarda to'q rangli jismlarga nisbatan yorug'lik soyasi aniqroq ko'rinadi. Shuning uchun turli ko'rinishdagi yorug'-soya taqsimlanishi bo'yicha qoidalar gips geometrik jismlarni chizish chog'ida o'zlashtiriladi. Shundan so'ng, tuzilishi to'g'ri geometrik shakllarga yaqin bo'lgan jismlar yoki turli tus va fakturaga ega bo'lgan (metall, oyna, yog'och, mato va h.k.), shakl jihatidan bir-biriga o'xshash tabiiy jismlar chiziladi.

Yorug'-soya qonuni rasmda shakl bilan birgalikda fazoni, tasvirdagi jismning joylashgan o'rnini hamda tabiiylikni yanada toiiqroq va ravshanroq tasvirlash imkonini beradi.

Rasmdagi jismning yorug'lik tushgan qismi *yorug'lik* deb, soyada joylashgan qismi esa soya deb yuritiladi. Yorug'likdan soyaga o'tish *yarimsoya* deb nomlanadi. *Shaxsiy soya*, shunday deb nomlash mumkin bo'lsa, jismning yorugiik manbayiga qaragan yuzasida hosil bo'ladi. Shaxsiy soyalarning, shuningdek, nisbatan yorug' qismlari — reflekslari, ya'ni shaxsiy soyani yorug'lik nurlarining bir qismi bilan yoritilishi holati ham bo'ladi. Jismdan yuzaga yoki boshqa jismga tushayotgan soya *tushuvchi soya* deb nomlanadi.

Yaltiroq yuzaga ega jismlarning (oyna, metall va h.k.) yorug'lik tushgan tarafida shu'la(blik) - jism yuzasidagi rassom ko'zini qamashtiruvchi, tushayotgan yorug'likning asosiy qismini aks etuvchi joyni payqash mumkin. Shu'la, asosan, egri, botiq, yorug'likni o'zida kuchli qaytarish xususiyatiga ega buyumlarda kuzatiladi. Shu'la jism shakli va hajmini tasvirlashda katta ahamiyatga ega. Shu'laning o'rni, turi hamda o'lchamini to'g'ri tanlash jismning cheklangan tasviriy vositalar yordamida ishlangan siluetli suratida ham juda ahamiyatli va u ushbu jismning shakli va hajmini ko'rsatib berishga xizmat qiladi. Aksincha, noto'g'ri chizilgan shu'la, butun rasm to'g'ri ishlangan taqdirda ham, shaklni buzadi. 2-rasmda shar hajmiga shakl berish orqali uning yuzasidagi yorug' soya munosabatlarini ko'rishimiz mumkin: 1-yorugiik; 2- yarimsoya; 3-shaxsiy soya; 4- refleks; 5—aks yorug'lik; 6— tushuvchi soya.

Tasvirdagi jismning hajmligiga erishish uchun yorug' va soya tushuvchi yuzalarning kon-trastini mohirlik bilan ishlash zarur. Buning uchun eng yorqin va eng to'q joylarni aniqlash kifoya qilmaydi, shu sababli shaklning hajmini shtrix yoki chiziq bilan belgilab chiqiladi.

Jism shaklining umumiy ko'rinishini tasvirlash vazifasining amaliy yechimi chiziqdan hajmga o'tish jarayonini amalga oshirishdan iborat. Buning uchun awal



jismning nisbati chiziqlar yordamida shartli ravishda belgilab olinadi, keyin jism yuzasidagi soya qismlarining hajmi shtrixlash yo'li bilan hosil qilinadi. Rassom oldida yorug' va soya yuzalarga ega boigan jism turganligi uchun, uni tasvirlashda faqat chiziqlardan foydalanish, jismning yorug' va soya qismlari bilan chalg'ib, xato qilishga olib kelishi mumkin. Bunday hollarda tasvirlanayotgan jismning asosiy nisbatlari va hajmini aniqlash, shuningdek, asosiy nisbatlarini belgilab, darhol uning hajmini hosil qilish va kichik detallariga ishlov berish maqsadga muvofiq sanaladi. Shuning uchun asosiy qismlarni belgilab olib, nisbatlarni tekshirish uchun darhol umumiy yorug'lik va asosiy soyalarni o'rganib chiqish kerak. Har doim rasmni yaxlitligicha chizish kerak bo'ladi. Vazifani tasvirlashda muntazam ravishda boiaklarga ham to'xtalib turish lozim.

Shu o'rinda aytib o'tish kerakki, rassomlar o'zlari istaganlaricha ko'plab texnik uslublardan foydalanishgani bois, ularni hammaga va har bir rasm chizuvchiga tavsiya qilish mumkin emas. Rasm chizishda asosiy narsa, bu — natija va har bir rassomning o'ziga xos ishlash texnik jihatlari uning ishiga o'z ta'sirini o'tkazadi.

*Shakllarda tus munosabatlari.* Jismning ustki qismi rangi, unga tushayotgan yorug'lik miqdori, rassom ko'z nuriga nisbatan burilish burchagi va masofasi (yorishganlik va rang bilan to'yinganlik darajasiga ko'ra, turlicha boigan) naturaning joylashgan o'rnini belgilab beradi.

Jismning yoritilgan yuzasidan soyadagi yuzasini ajratish va uni rasmda tasvirlash faqatgina ton orqali amalga oshirilishi mumkin. Rasmdagi ton, bu — har xil bosimda tushirilgan axromatik rang (kulrang), u tarkibiy yuzalarning yorqinligini ifodalash uchun ishlatiladi.

Tabiatda kuzatiladigan ton munosabatlarini mutlaq aniqlikda rasmda o'tkazish mumkin emas. Chunki, rassomchilik materiallari (qog'oz, qalam, ko'mir va h.k.) soyaning eng to'q, masalan, baxmalga o'xshash qismini yoki yaraqlab turgan shu'lani borligicha tasvirlash imkonini bermaydi. Bunga intilish ham kerak emas. Realistik rasmlarda tasvirning tabiatga proporsional alohida qismlari tuslarining xilma-xilligiga e'tibor berish muhim hisoblanadi. Shu yo'sinda har bir rasm o'zining tus masshtabiga ega bo'ladi (eng och tusdan — qog'oz yuzasi, eng to'q tushgacha — qalam). Rasmlardagi boshqa barcha oraliq nuqtadagi yorug'lik tuslari, nimsoya, shaxsiy soya va tushuvchi soya, jismning shaxsiy soyasi bilan solishtiriladi. Agar rasmdagi barcha soya joylashuvlari, tusidan qat'iy nazar, to'g'ri deb topilsa, u orqali tabiiy jismni ko'rishimiz va jism qanday materialdan tayyorlanganligi haqida tasavvurga ega bo'lishimiz mumkin.

To'g'ri tanlangan tus munosabatlari rasmdagi jism tasviriga tabiiylik va haqqoniylik baxsh etadi. Bitta rangda ishlangan suratlar g'oyibona tarzda nafaqat jism shakli va yoritilgan yuzalarining farqini, balki jism materiali, fakturasi xususiyatini ham (turli uslublar yordamida) tasvirlash imkonini yaratadi: oyna yoki metallning yaltiroq yuzasi, gipsning xira yuzasi, tana terisi, matolarning mayinligini va h.k. ochib beradi.

*Tasviriy san'atda taqqoslash usuli.* Tabiiy jism tasviri ishlanganida, birinchi navbatda, shakl nisbatlarini to'g'ri belgilash hamda ularning ton munosabatlarini tasvir masshtabida, ishlatilayotgan material (qalam, ko'mir va h.k.) imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda, tasvirlash kerak. Shunda jism yoki obyektning haqqoniy, tabiiy

tasviri hosil bo'ladi.

Tasviriy san'at qoidalariga asoslanib, texnik uslublar va tasvir vositalarini to'g'ri qo'llab rasm chizayotganida, rassom shaklni tekis yuzada haqqoniy tasvirlash bo'yicha bir qator qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Bunda jismni xarakterlovchi o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash va tasvirlash zarur. Bu jarayon jismning tarkibiy qismlarini bir-biri bilan shakli, o'lchami, nisbatlari, yuzaga tushayotgan yorug'lik miqdori va tusini solishtirish orqali amalgam oshiriladi.

Dastlabki bosqichda rassomning ko'zi jismga unchalik yaxshi o'rganmagan bo'ladi va jism nisbatlarini aniqlashda qiyinchiliklar tug'iladi. Bunday hollarda solishtirib kuzatish uslubidan — rassom biron-bir jismning o'lchamidan boshqa jismlarning o'lchamini belgilashda o'lchov vositasi sifatida foydalanishi mumkin. Bunday shartli o'lchov birligi bilan o'lchash, ko'z yordamida amalgam oshiriladi.


Rasm tayyor bo'lganidan so'ng, uning qanchalik sifatli chiqqanligini tekshirish uchun quyidagi uslublardan foydalanish mumkin. Chiziqning og'ish burchaklarini aniqlash uchun ish joyidan uzoqlashmasdan, qalamni gorizontal yoki vertikal holatda ushlab, qo'lni oldinga uzatib tekshiriladi. Gorizontal yoki vertikal holatdagi qalam orqali kuzatilganda, naturadagi qaysi bir nuqta past yoki yuqorida, o'ng yoki chapda joylashganligini ko'rish mumkin.

Solishtirma kuzatish uslubi rasm chizishni endi o'rganayotganlar uchun mo'ljallangan. Keyinchalik naturadan rasm chizilib, ko'z bilan chamalash qobiliyati rivojlanganida, ushbu uslubdan voz kechiladi. Ko'z bilan o'lchash yoki chamalash mahoratiga jismlarning nisbatini muntazam ko'z yordamida hech qanday o'lchov asboblarsiz aniqlash orqali erishiladi.


Rasmdagi jism shakli, yorug'lik va tus munosabatlari ustida ishlanganida, ish so'nggida asl jism va rasmini taqqoslash uchun yorug'lik va tus asosida ham solishtiruv o'tkaziladi. Naturadagi jism rasmini chizish vaqtida, uning tub mohiyatini, tuzilishini bilish, jismning yoritilganlik darajasi va kenglikdagi joylashuvini uzluksiz tahlil qilib borish muhim ahamiyatga ega.

Naturadagi jismlarni bir vaqtning o'zida bir-biri bilan solishtirish uchun ularning rassomga aniq ko'rinib turuvchi o'xshashlik va farqli tomonlarini, yorug'ligi va rangini chizgilarda belgilab olish lozim. Shuningdek, jismlarga umumiy masshtabda qarash kerak. Umumiy masshtabda qarash, bu — asosan, jismga qisqa umumiy nigoh tashlash; bunday qaralganda ko'rinayotgan naturaning yorug'lik nuri va rang munosabatlari rassomda taassurot qoldiradi (perspektiv o'zgarishlar asosida). Ushbu uslubning ma'nosi shuki, qarash jarayonida ko'zning aniq ko'rish maydonida boshqa jismlarga e'tibor qaratmay, naturani to'r pardaning periferiyasi yordamida barcha jismlarni bir vaqtning o'zida bir xil ko'rishdan iborat. Nigohda barcha jismlar noaniq, xira ko'rinishga ega bo'ladi, ammo bunday umumiy qabul qilish jarayonida tus munosabatlarini to'g'ri aniqlash mumkin. Bunday qarash uslubidan, odatda, rassom tusli rasm chizishni tugallash vaqtida ko'p marotaba va uzluksiz foydalanadi.

Natura bilan chizilayotgan rasimga qisqa vaqtli va tez-tez qarash uslubidan tashqari naturani hamda tasvirni qisq ko'zlar yordamida ham kuzatish mumkin. Bu uslub ham, asosan, tasvirning tus munosabatlarini aniqlashda qo'l keladi.



1-rasm



2-rasm


**Keys.** Mavzu asosida natura qo'yildi. Uni qog'oz yuzasiga joylashtirilganda xatolik yuz berdi. Amaliy ish jarayonida qanday qoidalarga e'tibor berilmagan.

**Keysni bajarish bosqchilari va topshiriqlar:**

- Keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni belgilang (individual va kichik guruhda).
- Topshiriqni to'g'ri bajarilishi uchun bajariladigan ishlar ketma-ketligini belgilang (juftliklardagi ish)

**Amaliy topshiriqlar**

Oddiy uy-ro'zg'or buyumlarini yorug'-soya ko'rinishlari bilan ishlash (5 ta).



## Glossariy

**Blik (shu'la)** – jism yuzasidagi rassom ko'zini qamashtiruvchi, tushayotgan yorug'likning asosiy qismida aks etuvchi joy, asosan, egri, botiq, yorug'likni o'zida kuchli qaytarish xususiyatiga ega buyumlarda kuzatiladi.

**Refleks** – (lot.reflexus – orqaga qaytarilgan, aks etgan) biror-bir predmet ustida rang va yorug'likning aksi natijasida hosil bo'ladi.

**Shtrix** – chiziq, chizgi, chizmatasvirda tasvirlarni hajmini, yorug'-soya munosabatlarini ko'rsatishda foydalaniladigan qisqa chiziqlar.

## Test

### 1. Chizmatasvirda tasvirlarni tuslashda ishlatiladigan chiziq

- a) Simmetrik chiziq
- b) Kontur chiziq
- c) O'q chiziq
- d) Shtrix chiziq

### 2. Buyumlarning yorug'lik tushmaydigan qismidagi ko'rinishi, dog'

- a) refleks
- b) shu'la(blik)
- c) soya
- d) yarim soya

### 3. Predmetga tushayotgan yorug'lik aksi natijasida hosil bo'lgan shu'la

- a) refleks
- b) blik
- c) soya
- d) yarimsoya

### 4. Predmetlarga tushayotgan nurlarning eng yorig' joyi

- a) refleks
- b) blik
- c) soya
- d) yarimsoya

## Foydalanish uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Соибов Т.З, Гильманова Н., Слугин А.П, Бродина М.Р, Тё А.В, Чизматасвир, рангтасвир, хайкалтарошлик. Т., 2010
2. Баммес Г. Изображение фигуры человека. Берлин: Изд-во Фольк унд Виссен. 1984.
3. Барчай Е. Анатомия для художников. Будапешт; Корвина, 1959.
4. "Drawing techniques" Peter Stenyer, 2013, Arcturus Publishing, London. The Complete Book of DRAWING TECHNIQUES a professional guide for the artist. Peter Stanyer. Arcturus Publishing England. 2013.
5. Sculpture: materials & process. Flora Street Dallas. 2011. Nasher Sculpture Center.org.

### 3-amaliy mashg'ulot


#### Mavzu: Gips rozetka qalamtasviri

Gips rozetkaning umumiy bajarish jarayonida uning asosiy nisbatlari – gips bo'yining uzunligiga hamda eni va chuqurligiga nisbatan to'g'ri belgilab olish muhim. Qog'oz yuzasida juda yengil chiziqlar bilan ornament tomonlarining nisbatiga qarab, qog'oz tik yoki yotiq holda qo'yiladi.


Vazifada bosqichma-bosqich ish yuritish, ya'ni rozetkani qog'ozga to'g'ri joylashtirish, har bir bo'lakni konstruktiv chiziqli qurish va hajmlari ustida ish olib boorish orqali biri ikkinchisini to'ldirib boradi.

Gips rozetkaning tasvirini to'g'ri bajarishda quyidagi qonun va qoidalarga amal qilish zarur:

1. Belgilangan ixtiyoriy qog'oz sirtida tasvirlanayotgan naturaning chekka qirralarini belgilangan holda kompozitsion to'g'ri joylashtirish.
2. Naturaning shakllarning asosiy tayanch nuqtalarini belgilab, ulardan birining ikkinchisiga bo'lgan nisbatlarini perspektiv qonun-qoidalar asosida tasvirlash.
3. Shakllarni chiziqli konstruktiv ravishda qurish, naturada qo'yilgan asosiy bo'laklarni belgilash.
4. Tasvirlanayotgan shakllarning xarakterli xususiyatlaridagi tushuvchi shaxsiy soyalarni belgilash va alohida bo'laklarga ishlov berish.
5. Naturadagi barcha buyumlarni tus jihatdan yana bir bor ko'rib, qo'yilmadagi shakllarning xarakterini aniqlash va soya, yarim soya, yorug'lik, refleks joylarini aniqlash. Buyumni butun birlikka bo'sundirish va vazifaga yakun yasash.




1-bosqich



2-bosqich



3-bosqich



#### 4-bosqich

**Keys.** Mavzu asosida natura qo'yildi. Gips rozetrani qurishda perspektiva qonuniyatlarda xatolik yuz berdi. Amaliy ish jarayonida qanday qoidalarga e'tibor berilmagan.

#### **Keysni bajarish bosqchilari va topshiriqlar:**

- Keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni belgilang (individual va kichik guruhda).
- Topshiriqni to'g'ri bajarilishi uchun bajariladigan ishlar ketma-ketligini belgilang (juftliklardagi ish)

#### **Amaliy topshiriqlar**

Oddiy uy-ro'zg'or buyumlarini yorug'-soya ko'rinishlari bilan ishlash (5 ta).



## Glossariy

**Gips** – ganch, oq yoki sarg'ish rangli suvda kam eriydigan qurilish materiali. Haykaltaroshlik, o'ymakorlik va bo'yoq tayyorlashda ishlatiladi.

**Rozetka** – gipsdan ishlangan arxitekturaviy naqsh yoki element (turli o'simlik va gullar, geometrik elementlardan tuzilgan ornament).

**Shtrix** – chiziq, chizgi, chizmatasvirda tasvirlarni hajmini, yorug'-soya munosabatlarini ko'rsatishda foydalaniladigan qisqa chiziqlar.

## Test

### Narsaning chizmatasvirini ishlashda qo'llaniladigan zirx chiziq

- a) Simmetrik chiziq
- b) Kontur chiziq
- c) O'q chiziq
- d) Shtrix chiziq

### Geometrik chiziqni aniqlang

- a) aylana
- b) oval
- c) doira
- d) shar

### Narsani chizishda foydalaniladigan o'q chiziq

- a) Simmetrik chiziq
- b) Gorizontal
- c) Shtrix chiziq
- d) Vertical chiziq

### Badiiy asarlardagi tasvirlarni o'zaro nisbatlari, mutanosiblik

- a) proportsiya
- b) kompanovka
- c) konsovka
- d) mashtab

### Foydalanish uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Соибов Т.З, Гильманова Н., Слугин А.П, Бродина М.Р, Тё А.В, Чизматасвир, рангтасвир, хайкалтарошлик. Т., 2010
2. Баммес Г. Изображение фигуры человека. Берлин: Изд-во Фольк унд Виссен. 1984.
3. Барчай Е. Анатомия для художников. Будапешт; Корвина, 1959.
4. "Drawing techniques" Peter Stenyer, 2013, Arcturus Publishing, London. The Complete Book of DRAWING TECHNIQUES a professional guide for the artist. Peter Stanyer. Arcturus Publishing England. 2013.
5. Sculpture: materials & process. Flora Street Dallas. 2011. Nasher Sculpture Center.org.



#### 4-amaliy mashg'ulot

##### Mavzu: Odam bosh a'zolarini ishlash ( ko'z, burun)

Bosh shaklining bo'laklarini ishlash jarayoni yuzning bosh qismlari – burun, ko'z, quloq, lablarni tasvirlashning asosiy qoidalari haqidagi bilimlarni puxta o'rganishdan boshlanadi.

Bosh qismlarini o'rganishni rasm bo'yicha o'quv dasturlarida ko'zda tutilgan klassik gips namunalar „Dovud boshi“ tahlili va tasviridan boshlaymiz. Bosh shakli bo'laklarini ishlash burun tasviridan boshlanadi, biz ham ushbu vazifani burun shakli tahlilidan boshlaymiz.


**BURUN.** Burunning *katta shakli* to'rtta yuzadan iborat bo'ladi - oldingi, ikki yon va pastki yuzalar. Erkak va ayollar burni har xil bo'lishiga qaramay, burun shakli strukturasi bir xil. Biz uni o'z sxemamizda ko'rib chiqamiz (1-rasm). Burun prizmasining old yuzasi qosh usti yoylari chizig'idan burun bugrisigacha qansharning trapetsiyasimon shaklini tashkil qiladi (1); shundan keyin qanshardan burun bugrisining o'rtasiga qadar yana bitta uzaytirilgan trapetsiyani tashkil etadi (2); undan bugri oxirigacha- uchinchi (3), lekin ag'darilgan ko'ranishda va nihoyat oxirigi trapetsiya- bodom (4). Individual xususiyatlarga ko'ra burun shakllari qurulish sxemasi ko'rinishi o'zgaradi - puchuq, qirgi'y burun, to'g'ri burun. Lekin ularning qurilishi qonuniyati o'zgarmay qolaveradi. Masalan, biz qirg'iy burun kishini chizyapmiz. Burun shakli strukturasi tahlil qilib olinadi, biz ko'rsatib o'tgan sxema ancha cho'zilganligini qayd etamiz; bunday kishilarning qansharli ancha tor bo'lib, prizma-burunning yon yuzasi qanshardan ko'z yoshi qorachig'igacha chuqur kirib ketadi; burun bugri eng do'ng qismi odatdagidek bo'lib, shakliga ko'ra cho'ziq, uchi pastga egilgan, bodom chiziqlari ko'rinmas bo'ladi, ular yagona shaklga qo'shib ketgandek bo'ladi.

Puchuq burunli kishining qanshri keng, burun bukri botiqroq va kichik bo'ladi, bodomlari keng va burun uchi yahshi ko'rinib turadi, butun sxema esa ancha siqqiq. Lekin shuni alohida ta'kidlash kerakki, shakl xarakteri har xil bo'lishiga qaramay burun sxemasi, tarkibi o'zgarmas, ya'ni to'rt qismdan iborat bo'lib qolaveradi. Burun shakli qurilishi qonuniyatlarini o'rganib Leonardo da Vinchi shunday yozgan edi: “O'rtasida burun bugri bo'lgan burun qismlari sakkiz usulda o'zgaradi, binobarin: birinchidan, ular yo bir xilda to'g'ri, yoki bir xilda bukilgan, yoki bir xilda bo'rtib chiqqan bo'ladi; ikkichidan, ular bir xilda bo'lgan to'g'ri, bo'rtib chiqqan yoki bukilgan; uchinchidan, ularning, yuqori qismlari to'g'ri pastki qismlari esa bukilgan bo'ladi; to'rtinchidan, yuqorisi to'g'ri, pastkisi bo'rtib chiqqan bo'ladi; beshinchidan, yuqorisi bukilgan, pasti esa to'g'ri bo'ladi; oltinchidan, yuqorisi bukilgan, pastkisi bo'rtib chiqqan bo'ladi; yettinchidan, yuqorisidagi bo'rtib chiqqan, pastkisi esa to'g'ri bo'ladi; sakkizinchidan, yuqorisidagi bo'rtib chiqqan, pastkisi bukilgan bo'ladi”.

Burun shakli qurulishining asosiy qonuniyati Dovud boshi haykal nusxasida yahshi ifoda etilgan. Shuning uchun barcha badiiy o'quv yurtlarida bosh bolaklarini o'rganishda Dovud boshining gips nusxasi tavsiya etiladi.

Burun rasmini chizishga kirishar ekanmiz, tasvir qurishning uslubiy izchilligi – oddiydan murakkablikka, umumiylikdan xususiylikka rioya qilish lozim. Eng

avvalo, burun gips nusxasining prizmatik shaklini belgilab olamiz, uning holatini va proporsional nisbatlarini perspektiva qonuniyatlariga muvofiq qog'oz yuzasiga



belgilab olamiz.

Keyin esa, burun prizmasining joylashishi va yuzalarining (oldingi, pastki va ko'rinib turgan bo'lsa – ikki yon yuzalarini) yo'nalishlarini belgilab olamiz(2-rasm). Agar burun prizmasi biz tomon frontal turgan bo'lsa, u holda oldingi yuza yaxshi ko'rinadi, qolganlari esa perspektiv qisqarishda bo'ladi; agar biz burun prizmasiga pastdan qaraydigan bo'lsak, burunning pastki yuzasi yoyilgan va yaxshi ko'rinadigan, old va yon yuzalari esa perspektiv qisqarishda boladi.




Prizma-burun qurilishi to'rtidan uch burilishda yoki profilda bo'ladigan bo'lsa, burun prizmasining bizga qaratilgan yon yuzasi yaxshi ko'rinadi, uning qolgan yuzalari esa perspektiv qisqarishda turganligini ko'ramiz. Shuning uchun, eng avvalo, tasvirda prizma-burunning umumiy shaklini to'g'ri belgilab olish, uning holati kenglikda chiziqli perspektiva qonuniyatlariga ko'ra to'g'ri turganligini aniqlaymiz va proporsional nisbatlarini tekshirib chiqamiz. Shundan so'ng bizning sxemamizdga muvofiq shakl strukturasi ochishni boshlaymiz. Eng avvalo burun old yuzasining asosiy qismlari – qanshar, bugri va bodomlarning joylashishini belgilaymiz. Keyin qanshardan ko'z yoshi qorachig'igacha va bodomlardan burun teshiklari uchigacha bo'lgan yon yuzalar chuqurligini, shuningdek, burunning pastki maydon xarakterini aniqlaymiz.


Burunning old yuzasiga aniqlik kirita borib tasvirni bir vaqtning o'zida o'ng va chap tomonlarda bajaring. Masalan, o'ng tomondan qansharni belgilab olib, darhol chap tomonini ham belgilang; burun bugrisini o'ng tomondan belgilab, shu yerning o'zida chap tomonni ham; bodomlar shakli xarakterini aniqlay turib, o'ng va chap qismini ham bir vaqtning o'zida tasvirlay boshlaymiz (3-rasm, 1-2-bosqishlar).

Burun teshiklarini tasvirlashda teshiklar qalinligini (ayniqsa, soyada qolgan pastki yuzani bo'rttirayotganingizda) belgilashni yodingizdan chiqarmang.

Tasvirni qurish uslubiy bosqichida tushlash qonunlarini to'g'ri hal etishga alohida e'tibor qaratilgan. Rasmni prizma shaklidagi burunni yengilgina tus berib tasvirlashdan boshlaymiz. Burunning oldingi (yoritilgan) va pastki soyadagi yuzasini yuzalardan (yarim soyadagi) ajratayotganda tus nisbatlari rasm chizilishi tugagunga qadar saqlanib qolishiga e'tibor bering (3-rasm, 3- bosqich). Ko'pchilik rasm chizuvchilarda burun va yarim soyada joylashgan burun uchidagi yorug'lik kuchi

qanday bo'lsa, shunday kuchga ega bo'lib qoladi. Burun uchida ba'zan shula paydo bo'ladi va burunning eng kuchli yorug'ligidan sustroq bo'ladi. Shundan keyin yorug'likda ham, soyada ham shaklning plastik xarakteristikasini ochishga kirishish kerak. Reflekslarni yon tomon yuzada joylashgan tusni kuchaytirish yordamida tuslang (3-rasm 4-bosqich). Tasvirning prinsip va uslublarini yaxshi o'zlashtirib olish uchun boshqa haykallardan turli holatlarda bir qator rasmlarni chizish kerak, bunda albatta burun shakli qurulishining alohia xarakterli xususiyatlarni ochishga harakat qilish kerak.






**Ко'z.** Ко'z sharsimon shaklga ega va ko'z chuqurligidan to'rtidan bir qismi chiqib turadi. Biz uchun oqsil parda bilan qoplangan ko'z soqqasining tashqi qismi va rangdor parda bilan qoplangan ko'z qorachig'ining bo'rtib chiqqan qismi hamda yuqori qovoq shakli xarakteriga ta'sir qiladigan ro'z gavhari muhim.

Ко'z olmasini qoplab turgan yuqori qovoqning bukilishi ko'z qorachig'ining turtib chiqqanligiga bog'liq, ya'ni yuqori qovoqning eng bukilgan joyi qorachiq joylashgan joy bo'ladi.

Amaliy ishni namunaning umumiy shaklini (qoshlar va ko'z chqurchasining turtib chiqqan qismlarini) tasvirlashdan boshlaymiz. Shundan so'ng ko'z soqqasining turtib chiqqan qismi belgilangandan keyingina uni qovjqlar bilan yopamiz.


Dastlab ko'z namunasi qutidan iborat bo'lib, u shu quti devorchalariga tegib turadi, deb tasavvur qilamiz. Ustki yuzasi quti qopqog'ning butun yuzasini, pastki yuza esayarim yuzasini egallaydi. Binobarin, qosh usti yoylarining pastki chetidan asosigacha bir oz og'ma holda qo'yilgan. Kuzatilgan tasavvurni perspektiva bo'yicha aniq olish kerak (1-bosqich).



Shundan so'ng qosh ustki yoylari va qansharning turtib chiquvchi qismlarining o'lchamlarini, shuningdek, ko'z soqqasining ichkarida joylashgan qismini aniqlash lozim. Shu yerning o'zida qosh ustki yoylari va ko'z kesmalarining chizig'ini belgilab olish kerak. Bu ko'z yoshi qopchig'I va ko'z burchagini to'g'ri belgilashga yordam beradi. Yordamchi chiziqlar yordamida tasvirni ko'rayotganimizda ko'z soqqalarini va qorachig'ini joylashtirishimiz oson bo'ladi, keyin ularni qovoqlar bilan qoplash qiyin emas.

Ko'z qarachig'i o'qining yo'nalishi diqqat bilan kuzatib olamiz. Qorachiq va qovoqlar og'ma o'q bo'yicha joylashadi. Qorachiqning yuqori qovog'I va yuqori cheti esa oldinga turtib chiqadi, pastki cheti ichiga kirib ketadi. Buni doimo nazarda tutish kerak.

Agar ko'z frontal holatda bo'lsa, u holda qovoqlar romb shaklida joylashadi; agar ko'z to'rtidan uch burilish holatida yoki profilda bo'lsa, u holda qovoqlar uchburchak shaklda joylashadi (1-rasm). Qovoqlarning ko'z soqqasida joylashishi perspektiv holatini ko'rsatilayotganda yuqori qovoq shaklining ko'z qarachig'ining joylashish holatiga qarab o'zgarishini hisobga olish zarur: odatda soyaga qarab e'tibor beriladigan yuqori qovoqning pastki chetini chizayotganda e'tiborli bo'lish zarur. Pastki qovoqlarni yengilgina chizish lozim.




**Keys.** Mavzu asosida natura qo'yildi. Chizilgan naturani konstruktiv qurilishida xatolik yuz berdi. Amaliy ish jarayonida qanday qoidalarga e'tibor berilmagan.

**Keysni bajarish bosqchilari va topshiriqlar:**

- Keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni belgilang (individual va kichik guruhda).
- Topshiriqni to'g'ri bajarilishi uchun bajariladigan ishlar ketma-ketligini belgilang (juftliklardagi ish)

**Amaliy topshiriqlar**

Odam yuz a'zolaridan (ko'z, burun) nabroska va zarisovkalar ishlash



**Glossariy**

**Uyg'onish davri** – XIV-XV asr Yevropa tasviriy san'ati rivojidadagi davr, jahon san'ati va madaniyati sivilizatsiyasiga katta ta'sir ko'rsatgan.

**Natura** – (lot. -tabiat) rassom tasvirilaydigan borliqdagi obyekt (inson, predmetlar,

manzara va h,k).

**Dovud** –Italiyalik mashhur haykaltarosh Mikelandjelo Buonarotti yaratgan haykal (afsonaviy qahramon). Dovud haykali inson qiyofasi va tanasini o'rganish uchun namuna sifatida qabul qilingan.

**Mikelandjelo Buonarotti** (1475-1564) – yuqori va so'nggi Uyg'onish davrida ijod qilgan haykaltarosh, rassom, arxitektor, shoir.

**Proportsiya** - naturadagi buyum va predmetlarning o'zaro nisbatlari, mutanosiblik.

### Test

#### **Chizmatasvirda shakl ifodaligiga qanday erishiladi**

- a) Buyumda aks etgan nur orqali
- b) Ikkinchi bir buyumning aksi orqali
- c) Qaytuvchi nurning soyadagi aksi orqali
- d) Yorug'-soyalar va tus ifodalari orqali

#### **Badiiy asarlardagi tasvirlarning o'zaro nisbatlari, mutanosiblik**

- a) kompanovka
- b) kompozitsiya
- c) proportsiya
- d) mashtab

#### **Uch o'lchamlik tasavvurni beruvchi bo'rttirib ishlangan shakl**

- a. Hajmdor shakl
- b. siluet
- c. fon
- d. kontrast

#### **Chizilayotgan o'quv mashq ishi uchun qo'yilgan natyurmort yoki qiyofani orqa tarafi**

- a) fon
- b) ton
- c) siluet
- d) peyzaj

#### **Foydalanish uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar:**


- 1.Соибов Т.З, Гильманова Н., Слугин А.П, Бродина М.Р,Тё А.В, Чизматасвир, рангтасвир, хайкалтарошлик. Т., 2010
- 2.Баммес Г. Изображение фигуры человека. Берлин: Изд-во Фольк унд Виссен.1984.
3. Барчаи Е. Анатомия для художников. Будапешт; Корвина, 1959.
- 4.“Drawing techniques” Peter Stenyer, 2013, Arcturus Publishing, London. The Complete Book of DRAWING TECHNIQUES a professional guide for the artist. Peter Stanyer. Arcturus Publishing England. 2013.
5. Sculpture: materiais & process. Flora Street Dallas.2011.Nasher Sculpture Center.org.

## 5-amaliy mashg'lot

### Mavzu: Odam bosh a'zolarini ishlash (lab, quloq)


Bosh qismlarini o'rganishni rasm bo'yicha o'quv dasturlarida ko'zda tutilgan klassik gips namunalari „Dovud boshi“ tahlili va tasviridan boshlaymiz. Bosh shakli bo'laklarini ishlash burun tasviridan boshlanadi, biz ham ushbu vazifani burun shakli tahlilidan boshlaymiz.

**Lab.** Lablar ham odam boshini tasvirlab kuzatish va o'rganishning doimiy ob'ekti hisoblanadi. Lablar cheti shishlari (1-rasmda) strelkalar bilan ko'rsatilgan bo'lib talaba buni amaliyotda tushunib, ilg'ab olishni faqat Dovud lablarining gips nusxasini chizishda o'rganadi, bunda shakl plastikasi yaqqol ko'rinadi.




1-rasm

Lablarni chizayotganda lab burchaklari oldidagi burun-lab shakli plastikasini diqqat bilan kuzatish lozim. Lablarning yuqorigi va pastki yuzalari burchaklarga yaqinlashishiga qarab ichkariga tortiladi, yanoqlarning turtib chiqqan qismi esa xuddi ularni tortib turgandek bo'ladi. Quyida labning gips modelini ishlashni bosqichlari ko'rsatilgan bo'lib, unda rasm ishlashning uslubiy bosqichlariga rioya qilinganini ko'rishimiz mumkin.




1-bosqich







2-bosqich



3-bosqich



4-bosqich




### 5-bosqich

Lab shakllariga tus berishda yorug'likdan yarim soyaga va yarim soyadan soyaga sekin-asta o'tishga harakat qilish kerak. Chiziq shakl bo'ylab tushishi kerak. Shakl yuzasi o'ngga burilsa chizgi(shtrix) ham o'ngga buriladi, yuza chapga ketsa chizgi ham chapga buriladi.

**Quloq.** Odamning qulog'i, garchi har turli kishilarda uning shakli turli bo'lsada, doimo bitta strukturaga egadir. Dovud qulog'ning gips namunasi o'rganuvchilar uchun yaxshi qo'llanma hisoblanadi, unda shakl strukturasi va plastic xarakteristikasi yorqin ifoda etilgan.

Quloq rasmini chizishni har galgidek umumiy shaklni ochishdan boshlaymiz, shundan so'ng quloqning tarkibiy qismlarini joylashtirish va shakl xarakteriga aniqlik kiritishga o'tamiz. Agar shakl to'g'ri belgilangan bo'lsa, endi unga tus berishga o'tish mumkin bo'ladi. Quloq rasmini chizayotganda, yoritilishi, shaklining alohida joylarining tus berilish nisbatlariga o'tishga alohida e'tibor berish lozim.

Ishda eng avvalo quloq quloq suprasi tasvirining asosini tashkil etadigan kenglikda ellips ko'rinishdagi yo'nalishini to'g'ri belgilab olish zarur. Shundan so'ng uning qalinligi va suprasi ichiga kirib borishgani o'zgarishini aniqlash lozim. Quloqning bukri va yumshoq joyini tasvirlash ham shunday. (2-rasm)



1-rasm



2-rasm

Rasm chizishni o'rganuvchi har xil odamlarda quloqlar shakli qurilishining xarakterli xususiyatlarini ilg'ab olishni o'rganishi o'rganishi kerak, buning uchun quyidagilarga e'tibor berish kerak: birinchidan muntazam ravishda nabroska va zarisovkalar ishlash, ikkinchidan, har bir odamlarda (metro, avtobus va h.k) odam yuz a'zolarini(ko'z, burun, lab, quloq) diqqat bilan kuzatish va o'rganish lozim.



**Keys.** Mavzu asosida natura qo'yildi. Naturani qog'oz yuzasida tasvirlandi, lekin naturani konstruktiv qurishda xatolik yuz berdi. Amaliy ish jarayonida qanday qoidalarga e'tibor berilmagan.

**Keysni bajarish bosqchilari va topshiriqlar:**

- Keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni belgilang (individual va kichik guruhda).
- Topshiriqni to'g'ri bajarilishi uchun bajariladigan ishlar ketma-ketligini belgilang (juftliklardagi ish)

**Amaliy topshiriqlar**

## Odam yuz a'zolaridan ( lab, quloq) nabroska va zarisovkalar ishlash



### Glossariy

**Uyg'onish davri** – XIV-XV asr Yevropa tasviriy san'ati rivojidagi davr, jahon san'ati va madaniyati sivilizatsiyasiga katta ta'sir ko'rsatgan.

**Natura** – (lot. -tabiat) rassom tasvirlaydigan borliqdagi obyekt (inson, predmetlar, manzara va h,k).

**Dovud** –Italiyalik mashhur haykaltarosh Mikelandjelo Buonarotti yaratgan haykal (afsonaviy qahramon). Dovud haykali inson qiyofasi va tanasini o'rganish uchun namuna sifatida qabul qilingan.

**Mikelandjelo Buonarotti** (1475-1564) – yuqori va so'nggi Uyg'onish davrida ijod qilgan haykaltarosh, rassom, arxitektor, shoir.

**Proportsiya** - naturadagi buyum va predmetlarning o'zaro nisbatlari, mutanosiblik.

### Test

#### Nabroskadan ko'ra tugallanganroq tasvir

- a) nabroska
- b) zarisovka
- c) eskiz
- d) etyud

#### Qo'yilgan naturani ishlash bosqichlarini ko'rsating

- a) Kompanovka qilish, qurish, detallashtirish
- b) Kuzatish, joylashtirish, nisbatlar asosida qurish
- c) Qurish, detallashtirish, tuslash
- d) Kompanovka qilish, qurish, yorug'-soyalarini aniqlash, tuslash.

**Inson qiyofasi va tanasini o'rganish uchun namuna sifatida qabul qilingan "Dovud" haykalining muallifi kim**

- a. Titsian Vechello
- b. Gudon Jak
- c. Roden Ogyust
- d. Mikelandjelo Buonarotti

**Chizmatasvir so'zining inglizcha atamasi**

- a) graphics
- b) painting
- c) composition
- d) creative

**Foydalanish uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar:**

1. Соибов Т.З, Гильманова Н., Слугин А.П, Бродина М.Р, Тё А.В, Чизматасвир, рангтасвир, хайкалтарошлик. Т., 2010
2. Баммес Г. Изображение фигуры человека. Берлин: Изд-во Фольк унд Виссен. 1984.
3. Барчай Е. Анатомия для художников. Будапешт; Корвина, 1959.
4. "Drawing techniques" Peter Stenyer, 2013, Arcturus Publishing, London. The Complete Book of DRAWING TECHNIQUES a professional guide for the artist. Peter Stanyer. Arcturus Publishing England. 2013.
5. Sculpture: materials & process. Flora Street Dallas. 2011. Nasher Sculpture Center.org.

## 6-amaliy mashg'ulot

### Mavzu: Odam boshi yuza qismi (qirqimli kalla)

Odam boshini tuzilishini o'rganishda obrubovkali boshning (yassi, odam boshi tuzilishini tekisliklar bilan qirqilgan holati) rasmi tasvirning boshlang'ich holatidagi tuzilishini yaxshiroq tushunish va tahlil etish uchun shakllarni umumlashtirish va osonlashtirishga imkon beradi.

Obrubovkali uslub Uyg'onish davridayoq A.Dyurer tomonidan ishlab chiqilgan edi. XIX asrning birinchi yarmida fransuz uslubchisi A.Dyuppyui ushbu uslubning ortqasidan borib, ta'lim oluvchilarga umumlashtirilgan geometrik shakllarga ega bo'lgan gipsli boshlarning qoliplarini tavsiya etdi va faqatgina shu mashqlardan keyingina u antik haykallarni ishlashga o'tishning yechimini topdi.

Obrubovkali uslubini "me'moriy" ham deb nomlashadi, bu uslub bizning davrimizning hozirgi kunlarida ham rasmni o'rgatish (o'qitish) jarayonida qo'llaniladi.

Naturadagi odam boshini chizish, bir nechta sabablarga ko'ra, gipsdan ishlangan bosh rasmini chizishdan ancha qiyin. Birinchidan, odam harakatsiz uzoq vaqt tura olmaydi, u doimo harakatda, shu sababli odam qanchalik harakat qilmasin boshning egiluvchanlik va burilganlik darajasi, nigohi, yuz ishorasi, soch turmagi o'zgarib turadi. Ikkinchidan, gipsdan ishlangan bosh rasmlari mashhur rassomlarning ijod namunalari. Ular modelni yaratishda boshning ikkinchi darajali, katta ahamiyat kasb etmaydigan qirralarini ishlamaganlar va ular umumlashgan holda tasvirlangan, bu esa o'z navbatida gipsdan ishlangan modelni chizish birmuncha osonligidan dalolat beradi.


Obrubovkali boshni chizishda talaba katta shaklni tahlil etadi va uning tuzilishidagi (qurilishidagi) qonuniyatlarni anglay boshlaydi: bosh tuxumsimon shaklda, burun prizmatik shaklda, ko'zlar bo'rtib chiqqan (qavariq) sharsimon shaklga egadir.

Obrubovkali boshning rasmi gipsli va tirik bosh bo'yicha hali oldinda turgan vazifalar bilan bog'liq bo'lgan masalalarning eng yaxshi echimlarini topishga ko'maklashadi.

**Keys.** Mavzu asosida natura qo'yildi. Bosh a'zolarini joylashtirilganda xatolik yuz berdi. Amaliy ish jarayonida qanday qoidalarga e'tibor berilmagan.


#### **Keysni bajarish bosqchilari va topshiriqlar:**

- Keysdagi muammoni keltirib chiqqan asosiy sabablarni belgilang (individual va kichik guruhda).
- Topshiriqni to'g'ri bajarilishi uchun bajariladigan ishlar ketma-ketligini belgilang (juftliklardagi ish)



## Amaliy topshiriqlar

Obrubovkali boshni turli xil holatlarda xotiradan ishlash (fasdan, to'rtidan uch qismidan, profildan).



## Glossariy

**Uyg'onish davri** – XIV-XV asr Yevropa tasviriy san'ati rivojidadagi davr, jahon san'ati va madaniyati sivilizatsiyasiga katta ta'sir ko'rsatgan.

**Natura** – (lot. -tabiat) rassom tasvirlaydigan borliqdagi obyekt (inson, predmetlar, manzara va h,k).

**Profil** – yon ko'rinish.

**Fas**– old ko'rinish, yuz, chehra.

**Albrext Dyurer**(1471-1528) – nemis rangtasvir, grafika ustasi, san'at nazariyotchisi, Germaniya Uyg'onish davrining yirik vakili.

## Test

**Qisqarish ma'nosini toping(masalan, yo'l, temir yo'llarning olis ufqqa tutashishi)**

- a) zastavka
- b) perspektiva
- c) dekoratsiya
- d) diorama

**Chizilishi lozim bo'lgan naturani qog'ozga to'g'ri, chiroyli joylashtirish**

- a) kompanovka
- b) kontrast
- c) kolorit
- d) konsovka



**Fon uchun ishlatiladigan har xil rangli gazlama, materiallar**

- a. dekoratsiya
- b. drapirovka
- c. detal
- d. diorama

**Mutanosiblik, biror buyum qismlarining ma'lum chiziq yoki tekislikka, bir-biriga o'xshashlig**

- a) zastavka
- b) illyustratsiya
- c) stilizatsiya
- d) simmetriya

**Foydalanish uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar:**

1. Соибов Т.З, Гильманова Н., Слугин А.П, Бродина М.Р, Тё А.В, Чизматасвир, рангасвир, хайкалтарошлик. Т., 2010
2. Баммес Г. Изображение фигуры человека. Берлин: Изд-во Фольк унд Виссен. 1984.
3. Барчай Е. Анатомия для художников. Будапешт; Корвина, 1959.
4. "Drawing techniques" Peter Stenyer, 2013, Arcturus Publishing, London. The Complete Book of DRAWING TECHNIQUES a professional guide for the artist. Peter Stanyer. Arcturus Publishing England. 2013.
5. Sculpture: materials & process. Flora Street Dallas. 2011. Nasher Sculpture Center.org.

## **7-amaliy mashg'lot**

### **Mavzu: Boshning gipsli modeli tasvirini ishlash**

O'quv materialini yaxshi o'zlashtirib olish uchun chizuvchi ushbu ish bosqichida muayyan darajada qaysi vazifani amalga oshirishi, tasvir qurishning qaysi jihatlariga e'tiborni jalb qilishi kerakligini tasavvur etishi lozim. Bunda o'quvchi naturani kuzatish va tahlil hamda uning rasmni konstruktiv chizish-qurish jarayonida jarayonlarida aniq tizimga rioya qilishi kerak bo'ladi. Rasm ishlashning uslubiy izchilligidagi barcha nozik taraflarni "Apollon"ning gipsdan yasalgan bosh haykalini chizish misolida ko'rib chiqamiz. Biz rasm ustida ishlashning uslubiy ketma-ketligini bayon eta borib, bir yo'la tirik odam bosh shakli qurilishining asosiy qonuniyatlari va tasvirlash usullarini (jumladan, ishning texnik usullarini) o'rganishda davom etamiz.

***Birinchi bosqich*** – kompozitsiyaviy joylashtirish (1-rasm).

Ish qog'oz yuzasida tasvirni kompozitsiyaviy joylashtirishdan boshlanadi. Tasvirni yuzada qanday joylashtirish qulayroq bo'lishini, qaysi nuqtadan qaraoganda shakllarning qurilish xususiyatlari ifodalibroq ko'rinishini bilish maqsadida naturani oldindan har tomonlama o'rganib chiqish lozim.


Talaba rasm kompozitsiyasini vog'oz yuzasida har tomonlama to'g'ri va chiroyli joylashtirishga o'rganishi kerak. Shuning uchun tasvirlanadigan gips bosh eng ifodali ko'rinadigan nuqtani tanlash, unga kompozitsiya masalasini yaxshiroq, talab darajasida hal qilishga yordam beradi.

O'quv rasmni chizishdan oldin talaba bir qator xomaki chizgilar bajarib ko'rishi zarurki, ularda kompozitsiya masalasi echilsin. U eng qulay nuqtadan bajarilishi tavsiya etilib, faqat shundan keyingina tasvirni qog'oz yuzasiga dadil joylashtirib ifodalashni boshlashi mumkin.

***Ikkinchi bosqich*** – bosh shaklining xarakterli xususiyati o'lcham munosabatlari, ya'ni nisbatlarini va boshning kenglikdagi holatini ochib berish (2-rasm). Bosh shaklining o'ziga xos xususiyatini ochib berishga kirishishdan oldin o'quvchi haykal-naturani diqqat bilan o'rganib chiqishi, shakl qurilishining eng muhim xususiyatlarini aniqlab olishi lozim. Bu o'rinda naturani idrok etish nihoyatda ob'ektiv, to'g'ri fikrlashlar asosida bo'lishi kerak, u sub'ektiv taassurotlar bilan emas, balki jiddiy ilmiy bilimlarga tayangan holda olib borilishi va tasvirlashga kirishi kerak. Ma'lumki, naturani o'rganish uni bevosita diqqat bilan kuzatishdan boshlanadi. Rassom, eng avvalo, shaklning umumiy xususiyatini, boshning fazoviy holatini ilg'ab olib, shundan keyingina alohida qismlar va yaxlitliklar, o'lchamlararo nisbatlarini chamalab, aniqlay boshlaydi. Natura bilan oldindan batafsil tanishib chiqish ob'ektiv tahlil qilishga o'tish uchun asosiy sabab xizmatini o'taydi.



1-rasm.



2-rasm.

Bosh shakli tasviri qog'ozga qalam bilan juda engil chiziqlarda belgilanib, nozik, umumiy va chizikli konstruktiv tarzda aks ettiriladi hamda natura katta shakli umumiy qurilishining asosiy xususiyati ochiladi. Chunki qora chiziqlar xatolarni ko'ra bilishni qiyinlashtiradi. Bu xatolarni tuzatish esa, undan-da mushkul. Talaba bosh shaklini tahlil qilar va uni ifodalalar ekan u eng avvalo, shaklning umumiy massasini, uning xususiyatini, mutanosiblik, o'lchamlararo nisbatlarini belgilab, uni yuzaga chiqarishi lozim. Bosh shakli va uning umumlashtirilgan ko'rinishdagim o'ziga xos qiyofasini ocha borib, boshqa qismlar bilan taqqoslagan holda solishtirish usulidan foydalanishi lozim.


Talaba o'z qarshisida turgan bosh shaklining umumiy xususiyatini osonroq ilg'ab olishi uchun ko'zlarini salgina qisib qarashi kerak, shunda shaklning hamma detallari yo'qoladi hamda hajmning umumiy massasi ko'rish maydonida qolib, yaxlit holda idroklanadi. "Apollon" bosh shaklini kuzatib va umumiy ko'rinishini belgilab olib, uning har bir qismiga ozgina ko'z yugurtirib chiqish kerak. Asosiy yuzalar hamda boshning umumiy ko'rinishini aniqlash bilan bir paytda, shu erning o'zida boshning turish holatini aniqlaymiz.

Boshning kenglik holati ishonchli bo'lishi, bo'yin harakati xususiyatini ochib beradi va shuningdek, bo'yin harakati ham boshning kenglikdagi holatiga bog'liqdir. Buni kesik bosh namunasini chizish orqali yanada chuqurroq o'zlashtirib olish mumkin (3-rasm).

Dastlab boshning old qismini ikki teng va simmetrik qismlarga ajratuvchi profil chizig'ini belgilab olamiz. Bosh to'rtidan uch burilishda joylashganligi uchun yuz qismi perspektiv qisqarishda bo'ladi. SHu sababli profil chizig'i perspektiva qonuniyatlariga ko'ra, uzoqdagi qismni qisqarishda (kichik), yaqindagisini esa, katta qismlarga ajratish kerak.

Profil chizig'ini belgilab olganimizdan so'ng, uni uch teng qismlarga bo'lish

kerak. Bunda biz o'lchamlar mutanosibgining klassik qonuniyatlaridan unumli foydalanamiz. Boshning old qismlari teng uch qismga ajratiladi: soch qoplamasi pastki chizig'idan qosh usti yoylarigacha, qosh usti yoylaridan burun asosigacha va burun asosidan dahan tagigacha. Qosh usti yoylaridan burun asosigacha bo'lgan kesim ham, o'z navbatida, teng uch qismga ajraladi: birinchi(qosh usti yoylaridan) va ikkinchi qism o'rtasidan ko'z qismlari chizig'i o'tadi, u jag' suyagi, ko'z burchaklari va ko'z yoshi qopchig'i choklarini kesib o'tadi. Burun asosi o'rtasidagi kesim ham uch teng qismga ajraladi: birinchi va ikkinchi qismlar o'rtasidan o'g'izning o'rta chizig'i o'tadi, u lablar kesim chizig'i deb ataladi. Ko'zlar o'rtasidagi masofa ko'z kattaligiga teng. Boshning ba'zi bo'laklari shaklini tasvirlashda hozircha e'tibor bermaymiz. Bu bosqichda faqat ularning joylashgan o'rnini aniqlaymiz, qismlar va yaxlitlik nisbatlarining to'g'riligini tekshiramiz. Ko'zlar, burun teshiklari, lablar o'lchamlarini hozircha chiziqchalar yoki nuqtalar bilan belgilab olamiz, buning o'zi ularning joylashuvi va kattaligini aniqlash uchun etarlidir. Shundan so'ng ishning keyingi bosqichiga o'tamiz.



3-rasm

***Uchinchi bosqich***, shaklning chiziqli konstruktiv asosini namoyon etish va perspektiva ko'rinishlarini ochish hisoblanadi (4-5-rasm).

Inson boshining tuzilishi konstruktiv sxemasi bilan birinchi va ikkinchi bosqichda tanishgan edik. Endi uni ushbu vazifada to'rt dan uch qism burilishda, ufq chizig'i darajasidan balandroqda turgan boshda belgilab olishga harakat qilamiz.

Profil chizig'i reshona o'rtasida qanshar, burun, lab bandlari va dahan o'rtasidan o'tadi. Qosh usti yoylari, ko'zlar kesimi, burun asosi, lab va dahan kesimlari tuxumsimon bosh shakliga asosan biroz egilgan va yuqoriga qaratilgan. Bu

chiziqlarning hammasi parallel bo'lishi kerak. Agar bu qonuniyatga rioya qilmasak, perspektivada katta xatolikka yo'l qo'yishimiz mumkin.

Boshning asosiy bo'laklarini tasvirlashga (ko'zlar, burun, soch va hokazolarga) kirishar ekanmiz, albatta, shakl asos mazmunidan kelib chiqish kerak, ya'ni burun – prizma, ko'z esa shar, bo'yin esa silindrikdir.



4-rasm



5-rasm

Talaba bosh rasmini qurish jarayonida juft va simmetrik shakllarning to'g'ri taqsimlanganligini alohida e'tibor bilan kuzatishimiz kerak. Buning uchun quyidagilarni tavsiya qilish mumkin: birinchidan, juft va simmetrik shakllarni bir vaqtning o'zida chizish lozim, ikkinchidan, har bir juft va simmetrik shakllar chetidan boshqasiga qarata parallel chiziqlar tortish lozim. Ko'zlarning sharsimon shaklini ocha borib, ko'z qovoqlarini darhol aniqlamaslik kerak, faqat ularning kengligi, qalinligi va har bir qovoqning yo'nalishi belgilab olinadi.

Burun prizmasini qura turib, profil chizig'ini qanshar va burun asosi o'rtasidan o'tkazishga harakat qilamiz. Burun prizmasining old yuzasi oldinga turtib chiqaradi va burun uchi chap tomonga o'tadi. Burun qanotlari esa, profil chizig'iga simmetrik tarzda joylashadi. Burunning old maydonchasi va burun teshiklarining qalinligi belgilab olinadi. Boshning ushbu holatida qosh ustining pastki tomonlari va dahanning yarim yoy ko'rinishidagi yuzasi ochiladi. Burun uchini belgilab olib, so'ngra uning burun asosi chizig'idan qanchalik baland ekanligi aniqlanadi.

Lablarni qisqartirilgan holda chizamiz. Profil chizig'i lablar kesimi o'rtasidan

o'tadi. Hozircha lablar aniq chizilmaydi, balki ustki va pastki lablarning xususiyatlari, o'lchamlari belgilab olinadi, ularning joylashishi diqqat bilan tekshiriladi. Buning uchun yordamchi chiziqlardan foydalaniladi. Ularning ko'magida lablarning burchaklari burun qanotlari bilan qanday uyg'unligi topiladi. Burun asosi chizig'idan ustki lab chetigacha bo'lgan masofa tekshiriladi. Shundan so'ng soch jingalaklari lablar kesimi chizig'iga nisbatan qanday joylashganligi aniqlanadi.

Soch tolalarining eng xarakterli bo'laklarini yengil va yaxlit belgilab olinadi. Shuningdek, ularning ko'z, burun, lablarga nisbatan joylashuvi doimo tekshirib boriladi.


**To'rtinchi bosqich** – shaklni aniqlashtirish. Shaklning chiziqli konstruktiv asosini belgilab, detallarga aniqlik kiritish va uni shtrixlashga o'tish mumkin. Buning uchun ishni davom ettirib, burun shakli xarakteriga aniqlik kiritiladi.

Ko'z shakliga aniqlik kiritishda ularning sharsimon ekanligini unutmasligimiz lozim. Ana shu shaklga ko'z qovoqlarini joylashtirish kerak. Dastlab ko'zdagi yuqori qovoqlarni chizib olamiz. Lablar shaklini chizayotganda yuqori lab ustidagi chuqurcha xususiyati va lab chetining burun asosidagi masofaga nisbatan bo'lgan holatiga aniqlik kiritiladi.

Soch tolalarini chizish jarayonida ular bosh shakli bo'yicha joylashishi va o'zaro uyg'unlashganligiga e'tiborni qaratib borish lozim. Dastlab jingalaklar guruhining umumiy, yaxlit shaklini belgilab olish. Shundan so'ng esa, ularning har biriga aniqlik kiritish mumkin.

**Beshinchi bosqich** – nur-soyalarning plastik tavsifi (6-rasm).

Bosh shaklining chiziqli konstruktiv asosini belgilab olib, nur-soya nisbatlari yordamida uning hajmini ochishga o'tamiz. Bu o'rinda chiziq va tusalarning o'zaro bog'liqligini saqlab qolish juda muhimdir. Chiziqlar bosh shaklini go'yo bo'laklarga ajratib turgandek bo'ladi va nur, soya, yarim soyalarning chegarasi hisoblanadi.



6-rasm



7-rasm

Dastlab faqat soyalarni “shtrixlab” chiqamiz, bunda butun bosh va uning tarkibiy qismlari shaklini umumiy xususiyatda ko’rish, shuningdek, tahlil qilish imkoni tug’iladi. Noaniqliklar topilganda, tuzatishlar kiritish mumkin bo’ladi.

Agar shaklning hajmli konstruktiv qurilishi to’g’ri belgilab olinsa, asosiy tus alomatlari – nur, soya va tushayotgan soya yordamida hajmni yuzaga chiqarishga o’tish mumkin. Masalan, biz burun shakli tafsilotiga to’xtaladigan bo’lsak, uning yorug’likka qaratilgan yuzasiga tegmaymiz, yorug’likdan uzoqlashayotgan burunning yon yuzasini esa, yarim soya bilan qoplaymiz. Burunning plastik yuzasidan yuqori lablarga soya tushadi, uni ham tus bilan ajratish kerak. Tushayotgan soya shakliga aniqlik kiritilayotganda shuni esda tutish kerakki, tushayotgan soya ob’ektning o’z shaklini ham, soya tushgan shaklini ham aks ettiradi. Sochlarni tasvirlashda ham shakl tuzilishning ana shu usuli bo’lishi kerak. Chunki sochlar bosh shakli bo’yicha yotishi, uni qoplab turishi va shakl xususiyatini bo’rttirib ko’rsatishi kerak.

Sochlarning ba’zi jingalaklarini chizayotganda hajm haqida o’ylamay, muhim jingalaklarning umumiy xususiyatini belgilab olish va uni asosiy yuzalarga (yorug’lik, refleks, yarim soya va soya) ajratib chiqish lozim.

**Oltinchi bosqich** – shaklni batafsil, barcha mayda-chuydalarigacha ishlab, poyoniga yetkazish va vazifaga yakun yasash (7-rasm). Qalamtasvir ustida ishlashning so’nggi bosqichida, eng avvalo, rasmning umumiy holatini tekshirib olish kerak ( bo’laklarni umumiy shaklga bo’ysundirish, rasmni tushlash, to’q-ochlik nisbatlarini aniqlash, shu’la bilan yorug’lik, refleks bilan yarim soyani taqqoslash va boshqa.) Chunki tasvirlangan shaklning ba’zi bo’laklari umumiy ko’rinishdan ajralib turtib chiqib turishi kerak emas.

Shundan so’ng hamma narsaning o’z o’rnida yoki o’rnida emasligini aniqlanadi. Xatolarni ko’rish oson bo’lishi uchun rasmni uzoqroq masofaga qo’yib, unga sinchkovlik bilan qaraladi. Ayniqsa, tus berish munosabatlarini aniqlash ancha murakkab jarayon hisoblanadi. Bu o’rinda naturadagi eng to’q soya va eng yorqin joylarni yana bir karra aniqlab olish zarur va ana shulardan kelib chiqib, ularga yarim soyani taqqoslagan holda shaklni yaxlit yechimga keltirish mumkin.

Uzoq masofadagi rasm bo’laklari kamroq, yaqindagilari esa, ko’proq ishlanishi kerak. Ishning bu bosqichida katta shaklni asta-sekin bo’laklar bilan uyg’unlashtirish jarayoni kechadi. Rasm chizuvchi umumiy shakl ko’rinishiga moslab, katta shakl tahlilidan kichik shakllar tahliliga o’tadi.

Bitta bo’lakning o’rni va kattaligini aniqlab, uni boshqasi bilan uyg’unlashtirish kerak. Masalan, burun rasmini chizayotganda, uning ko’z yoshi qobig’i, jag’ suyaklari, quloqlar, lablar burchaklariga nisbatan qanday joylashayotganligini nazardan o’tkazib borishi kerak. O’quvchi quyidagi qoidaga qat’iy rioya qilishi, umuman, katta shakl bilan qanday uyg’unlashayotganligini doimo tekshirib borishi lozim.

Shaklni tus orqali amalga oshirishda zarur bo’lgan erlarda reflekslar uchun qog’ozda oq joy qoldirmaslik kerak. Avval soyaning oddiy vositalari – yorug’lik, yarim soya, so’ya yordamida shakl hajmini chiqarib, ana shundan keyingina refleksga e’tiborni qaratish, uni o’rab turgan yuzalar tusiga kuch berish lozim. Hech qachon to’liq tus berishga shoshilmaslik lozim va qalamni qog’ozga bosmasdan asta-sekinlik bilan ish yuritish kerak.

Rassom o'z mehnat qurollari bilan ishlash ko'nikmasini mohirona egallashi kerak. U qalamni o'ynata bilishi, kerak yerda qog'oz ustida yengil, nozik harakatlar qildira bilishi lozim. Bu esa, mustaqil ravishda tinimsiz amaliy mashqlar bajarishni taqozo etadi.

Shakl bo'laklarini modellashtirishni davom ettirib, har bir bo'lak shakl hosil qilishini diqqat bilan nazorat qilib, mayda-chuydalariga ahamiyat berilmaydi. Shaklning plastik o'ziga xosligini diqqat bilan kuzatib, bir shakldan ikkinchisiga o'tishda shakl yuzasiga yorug'lik qanday tushayotganligini doim e'tiborda tutish kerak. Bunda nur-soya to'q ochligi o'zgarishlari ham rasm chizuvchiga tasvirda shakl tuzilishi mohiyatini ko'rish va uni ochib berishda yordam beradi. Tasvirdagi biron-bir qismini modellashtirishda qog'oz ustiga shtrixni yuzalar hajmining yo'nalishi bo'yicha yotqiziladi. Shakl xususiyatlarini bo'rttirib ko'rsatishda yordam bermaydigan ortiqcha chizgilar bajarilmaydi.

Shaklga tus berishda xuddi shakl yuzasini silayotgandek qalam uchini yurgizish kerak. Bir shakldan ikkinchi shaklga o'tishda esa, biroz, xuddi "yo'nayotgandek", bir shaklni ikkinchisidan ajratayotgandek qalamni ataylab bosib-bosib ishlating. Masalan, chuqurlikka kirib borayotgan burun teshiklarining yuzasini yengilgina qoraytirib va yonoqlarning lab burishmalari yuzasiga o'tishda burun teshiklari shaklini yonoqdan "sanchib-sanchib" ajratish kerak. Agar bir shaklni ikkinchisidan, aytganimizdek, bo'rttirib "sanchib" ajratadigan bo'lsak, hajm ancha ishonchli va namunali bo'lib chiqadi.

Rasm ustida ishlashning uslubiy izchilligi quyidagilarga qat'iy rioya qilishni talab etadi:

- a) izchillikning buzilishi o'quv materialini o'zlashtirishni sekinlashtiradi;
- b) tartibsiz ravishda hech qanday tizimsiz o'tadigan ish jarayoni talabaga rasm qurishning asosiy mohiyati va tasvir qurish qoidasini tushunib etish imkonini bermaydi;
- d) rasm ishlashda alohida bosqichlardan "sakrab" o'tish yaramaydi. O'quvchi ba'zi bosqichlarni, o'quv-akademik rasm chizish bo'limlarini uslubiy jihatdan mustahkamlashga majbur;
- e) dastlabki bo'lim keyingi bo'limning asosi va tarkibiy qismi hisoblanib, bilarsiz o'quv jarayonini o'zlashtirib bo'lmaydi;
- f) vazifaning sodda yoki murakkab bo'lishidan qat'iy nazar, u faqat planshet-taxtaga yaxshi tortilgan qog'ozda bajarilishi shart.

**Keys.** Mavzu asosida natura qo'yildi. Uni qog'oz yuzasiga joylashtirilganda xatolik yuz berdi. Amaliy ish jarayonida qanday qoidalarga e'tibor berilmagan.

#### **Keysni bajarish bosqichlari va topshiriqlar:**

- Keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni belgilang (individual va kichik guruhda).
- Topshiriqni to'g'ri bajarilishi uchun bajariladigan ishlar ketma-ketligini belgilang (juftliklardagi ish)



## Amaliy topshiriqlar

Odam boshidan nabroska va zarisovkalar ishlash

### Glossariy

**Apollon** – namuna.

**Proporpsiya** - naturadagi buyum va predmetlarning o'zaro nisbatlari, mutanosiblik.

### Test

#### Chizmatasvirda fazo chuqurligiga qanqay erishiladi

- a) Ko'rgan narsani oynadagi aksiday qilib ishlash orqali
- b) Ko'rgan narsani tahlili asosida ishlash orqali
- c) Ko'rgan narsaning har birini bo'rtirib ishlash orqali
- d) Ko'proq ishlash orqali

#### Eng buyuk rassomni aniqlang

- a) Leonardo da Vinchi
- b) Mikelandjelo Buonarotti
- c) Kamoliddin Behzod
- d) Tabiat

#### Badiiy asardagi (chizmatasvir) inson tasvirining eng muhim jihatini aniqlang

- a. Qiziqarliligi
- b. Hayotiyliги
- c. Yoritilganligi
- d. Proportsionalligi

#### Jism va jussalar mutanosibligiga qanday erishiladi

- a) ko'proq ishlsh orqali
- b) qoramalar qilib olish orqali
- c) o'lchamlar nisbati orqali
- d) chizilgan narsani qayta-qayta o'lchash orqali

#### Foydalanish uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar:

- 1.Соибов Т.З, Гильманова Н., Слугин А.П, Бродина М.Р,Тё А.В, Чизматасвир, рангтасвир, хайкалтарошлик. Т., 2010
- 2.Баммес Г. Изображение фигуры человека. Берлин: Изд-во Фольк унд Виссен.1984.

3. Барчаи Е. Анатомия для художников. Будапешт; Корвина, 1959.
4. "Drawing techniques" Peter Stenyer, 2013, Arcturus Publishing, London. The Complete Book of DRAWING TECHNIQUES a professional guide for the artist. Peter Stanyer. Arcturus Publishing England. 2013.
5. Sculpture: materials & process. Flora Street Dallas. 2011. Nasher Sculpture Center.org.

## **8-amaliy mashg'ulot**

### **Mavzu: Anatomik bosh (Ekorshe) tasvirini ishlash**

Odam boshi rasmini chizish – tasviriy san'at sirlarini o'rganish jarayonining eng muhim bosqichlaridan biri. Odam boshi tasvirini ishlash mahoratini egallash uchun bosh suyagi tuzilishi haqida bilimga ega bo'lish talab etiladi. Shuningdek, inson portretini tasvirlashga kirishishdan oldin boshning gipsdan yasalgan anatomic (Jan Antuan Gudon modeli) “Ekorshe” modelini chizish maqsadga muvofiqdir.

Odam boshidagi bosh suyakning muskulli o'ramasi hisoblanuvchi muskullar tizimini ketma-ket tarzda va e'tibor bilan o'rganib chiqmasdan turib, uning xarakteri, qiyofasi va shaklan yuzaga kelishini o'zida mujassam etgan boshning to'g'ri shakldagi rasmini yaratish mumkin emas. Bosh muskullari uchta asosiy guruhga bo'linadi: bosh suyak qopqog'I muskullari, yuz(mimik) va chaynash muskullari.

Muskullar yuzdagi emotsional va psixologik holatlarni, odamning kayfiyatini namoyon etadi. Yonma-yon(qo'shni) turuvchi muskul tolasi bir-biriga o'tib turadi, o'zaro ta'sirda bo'ladi va yuz plastikasi va ko'rinishida muhim rol o'ynagan holda tegishli funktsiyalarni bajaradi.

“Ekorshe” bosh shaklini to'rt bosqichda tasvirlash muhimdir. Bundan asosiy maqsad – bosh suyagi rasmini chizishda olgan nazariy bilimlarni plastic anatomiyaga oid muskullar tuzilishi va ularning joylashishini ushbu modelda amaliy bajarishdan iborat.

Har doimgidak, birinchi bosqich shaklni qog'oz sirtida kompozitsiyaviy joylashtirish va uni chiziqli konstruktiv qurishdan boshlanadi. Ikkinchi bosqichda shaklning bo'laklari geometrik shakllar tarzida qurish bosqichi hisoblanadi. Uchinchi bosqichda bosh shaklining konstruksiyalari va plastic yechimi aniqlanadi. So'nggi bosqichda boch shaklining yorug'-soya munosabatlari aniqlanib, shtrixlar yordamida tuslanadi.



Rasm ustida ishlashning uslubiy izchilligi quyidagilarga qat'iy rioya qilishni talab etadi:

- a) izchillikning buzilishi o'quv materialini o'zlashtirishni sekinlashtiradi;
- b) tartibsiz ravishda hech qanday tizimsiz o'tadigan ish jarayoni talabaga rasm qurishning asosiy mohiyati va tasvir qurish qoidasini tushunib etish imkonini bermaydi;
- d) rasm ishlashda alohida bosqichlardan “sakrab” o'tish yaramaydi. O'quvchi ba'zi bosqichlarni, o'quv-akademik rasm chizish bo'limlarini uslubiy jihatdan mustahkamlashga majbur;
- e) dastlabki bo'lim keyingi bo'limning asosi va tarkibiy qismi hisoblanib, bilarsiz o'quv jarayonini o'zlashtirib bo'lmaydi;
- f) vazifaning sodda yoki murakkab bo'lishidan qat'iy nazar, u faqat planshet-taxtaga yaxshi tortilgan qog'ozda bajarilishi shart.

**Keys.** Mavzu asosida natura qo'yildi. Uni qog'oz yuzasiga joylashtirilganda xatolik yuz berdi. Amaliy ish jarayonida qanday qoidalarga e'tibor berilmagan.



### Keysni bajarish bosqchilari va topshiriqlar:

- Keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni belgilang (individual va kichik guruhda).
- Topshiriqni to'g'ri bajarilishi uchun bajariladigan ishlar ketma-ketligini belgilang (juftliklardagi ish)



## Amaliy topshiriqlar

Anatomik bosh (Ekorshe) tasvirini turli xil holatlarda xotiradan ishlash (fasdan, to'rttdan uch qismidan, profildan).



## Glossariy

**Natura** – (lot. -tabiat) rassom tasvirlaydigan borliqdagi obyekt (inson, predmetlar, manzara va h,k).

**Profil** – yon ko'rinish.

**Fas**– old ko'rinish, yuz, chehra.

**Gudon Jan Antuan**(1741-1828) – fransuz haykaltaroshi, yetakchi Yevropa portpetchi haykaltaroshlaridan biri..

## Test

**Anatomik bosh (Ekorshe) modeli avtorini toping**

- a) Roden Ogyust
- b) Mikelandjelo Buonorotti
- c) Gudon Jan Antuan \*

**Rasm ishlashda qo'llaniladigan moslama**

- a) molbert \*
- b) planshet
- c) palitra
- d) stol

**Xarakterli chiziq va shtrixlar yordamida tez bajariladigan xomaki ish**

- a) nabroska \*
- b) illyustratsiya
- c) zastavka
- d) zarisovka

**Muskullar yuzdagi emotsional va psixologik holatlarni, odamning kayfiyatini namoyon etadi.**

- a) emotsional va psixologik holatlarni
- b) odamning kayfiyatini
- c) mimik holatlarni
- d) emotsional va psixologik holatlarni, odamning kayfiyatini \*

### **Foydalanish uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar:**

1. Соибов Т.З, Гильманова Н., Слугин А.П, Бродина М.Р, Тё А.В, Чизматасвир, рангасвир, хайкалтарошлик. Т., 2010
2. Баммес Г. Изображение фигуры человека. Берлин: Изд-во Фольк унд Виссен. 1984.
3. Барчай Е. Анатомия для художников. Будапешт; Корвина, 1959.
4. "Drawing techniques" Peter Stenyer, 2013, Arcturus Publishing, London. The Complete Book of DRAWING TECHNIQUES a professional guide for the artist. Peter Stanyer. Arcturus Publishing England. 2013.
5. Sculpture: materials & process. Flora Street Dallas. 2011. Nasher Sculpture Center.org.

## 9-amaliy mashg'ulot

### Mavzu: Odam bosn suyagining tasvirini ishlash

Inson portretini tasvirlash mashqlari bosh suyagi bo'laklarini tahlil qilish va tasvirlashdan boshlanadi. Bosh suyagini tahlil qilishda chakka suyagi, jag' suyagi shakllarining xarakterga, jag' suyagi o'simtasiga, pastki jag' va ensa(gardan)larga alohida e'tibor berish kerak. Shuningdek, katta ensa chuqurchasi va ellipsoid shakldagi ikkita bo'rtib chiqqan qismiga e'tibor qaratish kerak.

O'quv jarayonida bosh suyagining uch holatda chizish mashqlari bajariladi. Bosh suyagini chizishda shularni nazarda tutish va xotirada saqlab qolish kerakki, u ikki qismdan: bosh suyagi qutisi – ensa, gardan va old qismlardan iboratdir. Ular turli shakl va o'lchamlardan iborat juda ko'p bo'laklardan tashkil topgan. Bosh suyagi qutisi oltita suyakdan tashkil topgan bo'lib, ular o'zaro tishsimon choklar bilan birlashtirilgan (ensa, orqa), peshona (old), ikkita tomon tepa suyagi va ikkita chakka (yon) suyaklar.

Old qismi ikkita ko'z kosasi (chanog'I, noksimon shakldagi burun kosasi, ko'z kosasining ostidan jag' suyagi (jag' suyagi o'simtasi bilan), ustidan qosh usti va chakka suyaklari qoplangan. Burun kosasi (noksimon chuqurchasi) dan yuqorigi jag' suyagi, pastdan esa, bosh suyagining old qismiga ikkita simmetrik o'ng va chap bo'laklardan iborat pastki jag' tutashadi. Bu suyaklar shaklining xarakteri va ularning qurilish xususiyatlariga va umuman, bosh shaklining xarakteristikasiga bog'liqdir. Shuning uchun naturadan bosn suyagini chizishda, har bir suyakning umumiy shaklini eslab qolishga harakat qilish kerak. Chunki ular portret rasmini chizishda va tirik boshni tahlil qilishda muhim hisoblanadi.



Jag' suyagi va jag' suyagi o'simtasi shaklining xarakteri va tirik bosh rasmini chizishda yonoqlar shaklini to'g'ri qurish va shu joyda quloq suprasi joylashishini nazarda tutish kerak. Jag' suyagi o'simtasining kattaligi taxminan to'rt enli keladi va jag' suyagi o'simtasining uchi doimo quloq suprasi va (bukrisi) o'rtasida joylashadi. Jag' suyagi o'simtasini ushlab ko'rib, hamma ham u quloq suprasi o'rtasiga kirib borishni o'simtani barmoq bilan paypaslab ishonch hosil qila oladi.

Ensa (gardan) suyagining so'rg'ichsimon o'simtasi har qanday kishida yaxshi ko'rinadi, u boshni yelka suyagi bilan tutshtiruvchi ko'krak-o'mrov mushaklarining birlashtiruvchisidir. So'rg'ichsimon o'simtalarining joylashishiga mushaklar shaklining xarakteri va umuman bo'yin tuzulishiga bog'liqdir.

Datlab, tasvirning umumiy shaklini qog'ozga tushurib olamiz. Topilgan o'rta va yon chiziqlar asosida bosh suyagining umumiy ko'rinishini belgilab olamiz. Bunda modelning shartli chegarasi burun ko'prigi va ko'z kosasidan o'tuvchi hamda quloq darchasigacha davom etuvchi yuz va miya qismlarining nisbatlari to'g'ri aniqlanishi lozim. Bosh suyaklarining umumiy shakli va qog'ozdagi joylashuvi aniqlanganidan so'ng, tasvirni ishlashga kirishiladi.

Bosh suyagining tasviri va uning simmetrik qismlari juft holda ishlanadi. Bosh suyagining ushbu holatdagi rasmini chizishda mo'ljal sifatida o'ta chiziqdan foydalaniladi. Chizuvchiga nisbatan yaqin joylashgan ko'z kosasining tashqi chekkasidan, yoysimon suyak burchagidan o'tuvchi va pastki jag' burchagi bilan

birlashuvchi shakl qirradi bo'yicha yuz va yon taraflar munosabati aniqlanadi. Alohida suyaklarning nisbatlari, miya qopqog'i balandligi va kengligi, peshona suyagi, yonoq suyagi, jag'lar o'lchami katta qismlardan kichik qismlarga o'tish tartibida ko'zdan kechiriladi. Boshqacha qilib aytganda, qismlardan bo'laklarga tartibda ish olib boriladi. Bosh suyagi 4/3 burilishda tasvirlangani va simmetrik detallar har xil yuzalarda joylasganligi uchun ular o'rta chiziqqa nisbatan turli oraliqlarda joylashtiriladi.



### **Bosh suyaginig tuzilishi:**

1-tepa suyagi; 2-peshona suyagi; 3-peshona do'mbog'i; 4-chakka suyagi; 5-chakka botig'i; 6-ensa suyagi; 7-yonoq suyagi; 8-yuqori jag' suyagi; 9-pastki jag' burchagi; 10-engak ko'tarmasi; 11-qosh usti rabog'i; 12-tor suyak; 13- yonoq ravog'i; 14-qanshar usti; 15-ko'z kosasi; 16- burun suyagi; 17-burun teshigi.

**Keys.** Mavzu asosida natura qo'yildi. Uni qog'oz yuzasiga joylashtirilganda xatolik yuz berdi. Amaliy ish jarayonida qanday qoidalarga e'tibor berilmagan.

### **Keysni bajarish bosqchilari va topshiriqlar:**


- Keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni belgilang (individual va kichik guruhda).



- Topshiriqni to'g'ri bajarilishi uchun bajariladigan ishlar ketma-ketligini belgilang (juftliklardagi ish)

### Amaliy topshiriqlar

Odam bosh suyagi tasvirini turli xil holatlarda xotiradan ishlash (fasdan, to'rt dan uch qismidan, profildan).



### Glossariy

**Natura** – (lot. -tabiat) rassom tasvirlaydigan borliqdagi obyekt (inson, predmetlar, manzara va h,k).

**Profil** – yon ko'rinish.

**Fas**– old ko'rinish, yuz, chehra.

### Test

**Bosh suyagi necha qismdan iborat**

Ikki qismdan \*

Uch qismdan

To'rt qismdan

**Burun kosasi qanday shaklni eslatadi**

noksimon \*

sharsimon

prizma shakli

## **Ko'z kosasi qanday shaklni eslatadi**

noksimon

sharsimon \*

prizma shakli

## **Odam boshi qanday shaklni eslatadi**

sharsimon

tuxumsimon \*

prizma shakli

## **Foydalanish uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar:**

1. Соибов Т.З, Гильманова Н., Слугин А.П, Бродина М.Р, Тё А.В, Чизматасвир, рангтасвир, хайкалтарошлик. Т., 2010
2. Баммес Г. Изображение фигуры человека. Берлин: Изд-во Фольк унд Виссен. 1984.
3. Барчай Е. Анатомия для художников. Будапешт; Корвина, 1959.
4. "Drawing techniques" Peter Stenyer, 2013, Arcturus Publishing, London. The Complete Book of DRAWING TECHNIQUES a professional guide for the artist. Peter Stanyer. Arcturus Publishing England. 2013.
5. Sculpture: materials & process. Flora Street Dallas. 2011. Nasher Sculpture Center.org.

## **10-amaliy mashg'ulot**

### **Mavzu: Odam portreti (obraz)**

**Portret** ([lot.](#) persona — «shaxs; kishi»,frans. portrait — tasvir) – inson qiyofasini aks ettiruvchi tasviriy san'at janri; real hayotda mavjud bo'lgan yakka, ikki yoki bir guruh kishilar, rassom tasavvurida paydo bo'lgan hayoliy qiyofalarning tasviri. Rangtasvir, haykaltaroshlik, grafika, shuningdek, foto san'atining muhim janrlaridan biri. Portretning muhim tomoni tasvirning tasvirlanuvchi (model, asli)ga aynan o'xshashligidir. Ijodkor portret orqali tasvirlanuvchi shaxsning ma'naviy dunyosini, ijtimoiy hayotdagi o'rnini, kasbi, jamiyatdagi mavqeini aks ettiradi va uning shu jihatlari orqali davr xususiyati, siyosiy iqtisodiy ahvol haqida ma'lumot bera oladi. Rassomning kasbiy mahorati, portret ishlash uchun tanlagan materiallari esa uning yaratgan asarlariga takrorlanmas o'ziga xoslik baxsh etadi. Tarixan portretning hilma-xil tur va ko'rinishlari shakllangan: ishlanish usuli, bajaradigan vazifasi, shakli, mazmuniga ko'ra, dastgoh (kartina, byust, grafika varag'i) va monumental (monumental haykal, freska, mozaika), tantanavor parad va intim, hajviy, satirik portret tarzida tasvirlanuvchining faqat bosh qismi, beligacha, butun bo'y-basti bilan old va yon tomonidan ishlanishi mumkin. Shuningdek, turli tarixiy davrlarda nishon, tanga, medallar yuzasiga (medal yasash sanati) ishlangan, gemma (gliptika), medalonlarda miniatyura portret keng tarqalgan. Portret janridagi bir asarda ko'pincha bir necha janrlar qo'shilishi mumkin. Portretda tasvirlanuvchi sof holda (zaminsiz, ya'ni atrof muhitni aks ettirmasdan), tinch holatda yoki biror faoliyati bilan ma'lum muhitda ishlanishi mumkin. Shu tufayli shartli ravishda portretni portret va portret - kartina (janrli portret)ga ajratiladi. portretning keng tarqalgan turlaridan biri — avtoportret. Tasvirlanayotgan kishilar soniga ko'ra, yakka, qo'shaloq va guruh portretlarga bo'linadi.

Birinchi bosqich – qog'oz yuzasida tasvirning kompozitsion joylashishi, bosh shaklining umumiy xarakteri va proporsionalligini belgilash. Kompozitsion yechim ustida ishlab turib, bir yo'la boshni sxematik tarzda belgilab olinadi. Bu perspektiv qonunlarni to'g'ri hal qilishga yordam beradi. Tasvirni qog'oz yuzasiga joylashtirgandan so'ng, bosh shakli xarakterini, boshning burilishi(qanday holatda ekanligini)ni, uning bo'yin va yelka kengligi bilan boshlanishini aniqlab olamiz.

Boshning old qismini yon qismlardan chiziqlar bilan belgilab olgandan so'ng, unga profil chizig'I qo'yiladi va naturaga qarab, uning yo'nalishi tekshirib olinadi. So'ngra, old qismidagi burun, lab, ko'zlar joylashgan o'rinlarni aniqlaymiz. Profil chizig'I yordamida alohida qismlar, yaxlitlik hamda boshning umumiy shakli ko'rtinishi proporsional nisbatlarni ham aniqlab olish mumkin. Ushbu bosqichda eng asosiysi boshning umumiy ko'rinishi va uning xarakterini to'g'ri belgilab olishdir. Bosh bo'laklari (burun, ko'zlar,lab) faqat belgilab qo'yiladi.

Ikkinchi bosqich – perspektiva va anatomic tuzilishni hisobga olgan holda bosh shaklini chizikli konstruktiv tasvirlash. Umuman, bosh va uning bo'laklarini chizikli konstruktiv tasvirlashga o'tayotganda, hajm qanday tashkil topishini tasvirdashga o'tayotganda, hajm qanday tashkil topishini tasvirda ko'rsatishga harakat qilish

kerak. Ko'z, quloq, burun, lablar shakliga aniqlik kiritib borib, doimo ular o'rtasidagi bog'liqlikni kuzatib boorish lozim. Ushbu holatda bunday o'zaro bog'liqlik qosh usti yoylari, ko'z kosasi, yuqori va pastki qovoqlarni birlashtiruvchi yordamchi chiziqlar bilan ko'rsatilgan.


Amaliy ish jarayonida diqqat bilan kuzatish rasm chizuvchiga asarda naturachining individual xususiyatlari va portret o'xshashlikni ochib berish imkonini beradi. Yonoq va chaynash muskullari yaxshi rivojlangan, yonoqlari esa, kuchli bo'rtmagan ega ekanligini ko'ramiz. Uni tasvirlash orqali obraz xarakteristikasini kuchaytiramiz.

Uchinchi bosqich – tus berib shaklni detallashtirish. So'nggi bosqichda shakllarni detallashtirishdan oldin, amaliy ishimizning to'g'ri bajarayotganimizni yana bir bor tekshirib olamiz. Shaklning umumiy ko'rinishini yo'qotmaslik uchun tasvirga sekin-astalik bilan tus beriladi. Dastlab yengilgina tarzda asosiy soyalarni belgilab chiqiladi. Bu esa, bosh shaklini yaxlit ko'rish, aniqliklar kiritish imkonini yaratadi. Shundan so'ng yana umumiy shakldan kelib chiqqan holda yuz bo'laklariga o'tish mumkin.

Shaklga tus berib va materiallikni ocha borib, sekin-asta soch, qoshlar tusi kuchaytiriladi. Rasmda materiallikni ocha borib, shaklning plastic xarakteristikasini aniqroq ifodalashga intilish lozim.

Qilingan ishlarga yakun yasalayotganda, reflekslar yorug'lik bilan bir xil tusda to'lib qolmasligi, qattiq qoraytirib yuborilgan soyalar “darcha” hosil qilmasligi, uzoqdagi yorug'lik va soya kontrastlari oldinga “chiqib” qolmasligini tekshirib boorish lozim. Bunday xatoliklarni aniqlash uchun, rasmga uzoqroqdan qarash va kipriklar orasidan kuzatish lozim.





**Keys.** Mavzu asosida natura qo'yildi. Uni qog'oz yuzasiga joylashtirilganda xatolik yuz berdi. Amaliy ish jarayonida qanday qoidalarga e'tibor berilmagan.

**Keysni bajarish bosqchilari va topshiriqlar:**

- Keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni belgilang (individual va kichik guruhda).
- Topshiriqni to'g'ri bajarilishi uchun bajariladigan ishlar ketma-ketligini belgilang (juftliklardagi ish)

## Amaliy topshiriqlar

Odam boshini turli holatlaridan nabroska va zarisovkalar ishlash(5-10ta).



## Glossariy

**Portret** (lot. persona — «shaxs; kishi»,frans. portrait — tasvir) – inson qiyofasini aks ettiruvchi tasviriy san’at janri; real hayotda mavjud bo’lgan yakka, ikki yoki bir guruh kishilar, rassom tasavvurida paydo bo’lgan hayolij qiyofalarning tasviri.

**Avtoportret** – musavvir o’zining portretini ishlashi.

**Profil** – yon ko’rinish.

**Fas**– old ko’rinish, yuz, chehra.

## Test

### **Avtoportretida rassom kimni tasvirlaydi**

O’zini \*

Biror kishini

Qahramonni

### **Portretida inson xarakterini ochishda qaysi a’zolar ko’proq muhim rol o’ynaydi**

Qo’l va ko’zlar\*

Yuzdagi mimika holatlar

Lab va quloqlar

### **Foydalanish uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar:**

1.Соибов Т.З, Гильманова Н., Слугин А.П, Бродина М.Р,Тё А.В, Чизматасвир, рангтасвир, хайкалтарошлик. Т., 2010

2. Баммес Г. Изображение фигуры человека. Берлин: Изд-во Фольк унд Виссен. 1984.
3. Барчай Е. Анатомия для художников. Будапешт; Корвина, 1959.
4. "Drawing techniques" Peter Stenyser, 2013, Arcturus Publishing, London. The Complete Book of DRAWING TECHNIQUES a professional guide for the artist. Peter Stanyer. Arcturus Publishing England. 2013.
5. Sculpture: materials & process. Flora Street Dallas. 2011. Nasher Sculpture Center.org.

## 11-amaliy mashg'ulot

### Mavzu: Odam tana a'zolari (qo'l, oyoq)

Qo'l panjasini ishlash usuli. Qo'l panjasi ko'plab suyaklar yig'indisidan iborat. Aniqroq qilib aytganda, bilakuzuk, kaft va barmoqning mayday suyakchalaridan tasnkil topgan (1-rasm).


Bosh barmoq skeleti ikkita kichik suyakdan, qolgan har bir barmoq skeleti esa uchta mayday suyaklardan tashkil topgan, mana shu mayday suyakchalar barmoq falangalari deb ataladi (2-rasm).

Har doim biror-bir buyumni chizganda uning bir bo'lagini o'lcham sifatida asos qilib olinadi, bu yerda ham qo'lning tasvirini chizganimizda har bir barmoq suyagini o'lcham o'rnida asos qilib olinsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Qo'lning o'lcham birligi qilib o'rta barmoq "asosi"ning uzunligi olinadi.

Dastlab qo'lning to'rtburchakka o'xshash umumiy ko'rinishi qog'ozga joylashtiriladi. Undan keyin o'lcham birligi asosi sifatida olingan qo'lning uzunligi o'lchnadi va uning oralig'i esa to'rt o'lchamga teng ekanligi aniqlanadi (O'rta barmoqning uchidan bilaguzuk suyaklarining bilak suyagiga birikkan bo'g'imigacha). So'ngra qo'lning eniga o'rta chiziiqlari chiziladi, bu o'tkazilgan chiziq barmoq bilan kaftning birikish bo'g'imlariga mos keladi.

Ma'lumki, qo'l barmoqlarining uzunligi bir xil emas. Shuning uchun har birining uzunligi alohida-alohiada aniqlanib belgilashni talab etiladi.

Qo'l barmoqlar uzunlogining umumiy ko'rinishini belgilagandan so'ng, ularning kaft bilan birikish bo'g'imlariga barmoqlarning yo'nalishini belgilovchi chiziqlar yuritiladi. So'ng bo'g'imlar qatorini biriktiruvchi eniga qarab chiziqlar yurgizib, qo'lning chiziqli konstruksiyasi topiladi. Keyin qo'lning stilizatsiyali qoralamasi tasvirlangandan so'ng, barcha o'lcham munosabatlari ko'rib chiqilib, yorug'-soya munosabatlari aniqlanib, shtrixlar yordamida tuslanib qo'l panjasini tabiiy shaklga o'xshashligi ko'rsatiladi.



1-rasm



2-rasm



2-rasm. Qo'l panjasining suyaklari: 1-bilaguzuk suyaklari(sakkiz mayday suyakchalar); 2-kaft suyaklari(besh suyak); 3-barmoqning asosiy suyaklari; 4-barmoq suyaklari.

**Oyoq panjasini ishlash usuli.** Oyoq panjasi suyaklari uch qismdan: tovon do'mbog'I, oyoq kaft suyagi va eng asosiysi, tirnoq falanglaridan iborat.


Kaft usti oshiq suyak, tovon suyagi, qayiqsimon suyak, uchta ponasimon va kubsimon suyaklardan tashkil topgan. Oshiq suyak past tomondan tovon suyagiga, oldingi tomondan esa qayiqsimon suyakka tayanib turadi. Tovu suyagi oyoq panjasining tashqi chetiga yaqinroq yotadi, orqaga ancha turtib chiqib tovonning suyak asosi bo'lib xizmat qiluvchitovu do'mbog'ini hosil qiladi.

Oyoq kaftida beshta suyak bor, ular bosh barmoqdan jimjimoloqqa tomon tartib bilan I, II, III, IV, V kaft suyaklari deb ataladi. I kaft suyagi hammadan yo'g'on, II kaft suyagi hammadan uzun, Kaft suyaklarining boshchalari barmoq falanglari bilan birikib turadi.

Barmoq falanglari hammasi bo'lib 14 ta: bosh barmoqqa ikkita, qolgan barmoqlarda uchtadan falanga bor.

Oyoq panjasini tasvirlashdan oldin uning tashqi shaklini kuzatamiz. Oyoq panjasining tashqi barmoqlar tomoni yaproqsimon shaklda bo'lib, baliq qanotini eslatadi. Yon tomondan qarasa/ to'g'ri to'rtburchakni hosil qiladi.

Amaliy ishda dastlab, tovonni tasvirlashda to'rtburchak chiziladi, unga silindrsimon shakl o'rnatiladi. Shundan keyin silindr bilan tovon oralig'idagi konus shaklli oyoqning ustki qismi tasvirlanadi. Bu yerda oyoqning umumiy stilizatsiyasi shakli ham yaqqol ko'rinadi. Undan keyin yorug'-soya munosabatlari shtrixlar yordamida tuslab ishlab chiqiladi.



## Oyoqni tasvirlash usuli.


**Keys.** Mavzu asosida natura qo'yildi. Uni konstruktiv tuzilishida xatolik yuz berdi. Amaliy ish jarayonida qanday qoidalarga e'tibor berilmagan.

### **Keysni bajarish bosqichlari va topshiriqlar:**

- Keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni belgilang (individual va kichik guruhda).
- Topshiriqni to'g'ri bajarilishi uchun bajariladigan ishlar ketma-ketligini belgilang (juftliklardagi ish)

### **Amaliy topshiriqlar**

Odam tana a'zolari(qo'l, oyoq) turli holatlaridan nabroska va zarisovkalar ishlash(5-10ta).



### **Glossariy**

**Stiliztsiya** – uslublashtirish, narsalar shakli va tuzilishini soddalashtirish yoki murakkablashtirish.

**Falanga** – qator bolib terilgan, bu yerda barmoq suyakchalari yig'indisi ma'nosida ishlatilgan.

**Fas**– old ko'rinish, yuz, chehra.

### **Test**

#### **Qo'l panjasi asosan qanday suyaklardan tashkil topgan**

Bilaguzuk, kaft va barmoqlarning mayday suyakchalaridan \*

Kaft va barmoqlarning mayday suyakchalaridan

Tovon do'mbog'I, oyoq kaft suyagi, tirnoq falangalari

## **Oyoq panja asosan qanday suyaklardan tashkil topgan**

Tovon do'mbog'I, oyoq kaft suyagi, tirnoq falangalari\*  
Bilaguzuk, kaft va barmoqlarning mayday suyakchalaridan  
Kaft va barmoqlarning mayday suyakchalaridan

## **Barmoq suyakchalari yig'indisi nima deb ataladi**

Bilaguzuk  
Falanga \*  
Kaft suyagi

### **Foydalanish uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar:**

1. Соибов Т.З, Гильманова Н., Слугин А.П, Бродина М.Р, Тё А.В, Чизматасвир, рангтасвир, хайкалтарошлик. Т., 2010
2. Баммес Г. Изображение фигуры человека. Берлин: Изд-во Фольк унд Виссен. 1984.
3. Барчаи Е. Анатомия для художников. Будапешт; Корвина, 1959.
4. "Drawing techniques" Peter Stenyer, 2013, Arcturus Publishing, London. The Complete Book of DRAWING TECHNIQUES a professional guide for the artist. Peter Stanyer. Arcturus Publishing England. 2013.
5. Sculpture: materials & process. Flora Street Dallas. 2011. Nasher Sculpture Center.org.

## **12-amaliy mashg'lot**

### **Mavzu: Odam yarim qomati (Gudon, muskulli tors)**

Jak Antuan Gudonning "Ekorshe" gips anatomic modeli rasmini chizish. Gipsdan ishlangan ushbu anatomik model o'zida inson tanasining terisiz holatini aks ettiradi.

Anatomik model rasmini ishlashning boshlang'ich bosqichida talaba modelni o'rganadi va ko'rish nuqtasini tanlaydi. Modelni berilgan formatdagi qog'ozga to'liq joylash uchun, avvalambor modelning eng yuqori va eng pastki nuqtalarini belgilab olish zarur.

Rasm chizishda modelni ushbu model joylashgan gorizontaal yuzaga nisbatan, hamda kenglikda vertical bo'yicha to'g'ri joylashtirish katta ahamiyatga ega. Buning uchun avvalambor bo'yin chuqurchasidan tos suyagi tomon cho'zilgan va dum suyagi bilan yakunlangan markaziy o'q chizig'I holatini aniqlash zarur. Inson tanasi simmetrik va uning markaziy o'q chizig'i tors(tana asosi) harakatini aniq ko'rsatib beradi.

Model holatini aniqlash uchun og'irlik tushish markazi va uning yo'nalishini aniqlash zarur. Og'irlik tushish markaziga ko'ra tana qismlari shunday joylashishi kerakki, bunda tana muvozanatda saqlanishi kerak.

Ko'krak qafasi rasmini chizish davomida avvalambor, o'mrov suyagi, to'sh suyagi va yuqoridagi beshta qovurg'a va ularning yuqori qismiga birikuvchi yelka suyagidan boshlanuvchi katta ko'krak muskullarining holati va umumiy shaklini aniqlash kerak. Katta ko'krak muskullari orasida to'sh suyagi yuzasi va uning pastki uchini(xanjarsimon o'siqni) belgilab qo'yish kerak.

Shundan so'ng qo'llar yuqoriga ko'tarilganda ko'krak qafasining yon tarafida tish shaklini eslatuvchi va shuning uchun ham oldingi tishli muskullar deb nom olgan muskullarning umumiy shakli aniqlanadi. Bunda belning eng keng mushagining bir qismi ham ko'rinadi. Ushbu muskulni ham rasmda belgilash kerak.


Qorinning tashqi egri muskullari shaklini aniqlash va chizish bilan talaba torsning yon tomoni yuzasini chizishni tugallaydi.

Torsning oldingi pastki qismi eng oxirgi o'rinda chiziladi. Bunda asosiy e'tibor shartli o'rta chiziqqa mos keluvchi qorinning o'q chizig'iga, hamda muskullari yaxshi rivojlangan odamlarda yaqqol ko'zga tashlanuvchi qorinning to'g'ri muskullari paylariga qaratiladi.

Rasmda ko'krak qafasining oldingi tomonidan torsning oldingi tomonigacha cho'zilgan qorinning to'g'ri muskullari holatini tasvirlab, ko'priksimon pay shakli xarakterini va kindikni belgilash kerak. Yelka kamari rasmini ishlashga kirishish oldidan, o'mrov suyagining ichki boshchasi to'sh-o'mrov bo'g'imi yordamida birikishi va o'mrov suyagining uch yo'nalish bo'yicha harakatlanishini aytib o'tishimiz zarur. Shundan so'ng o'mrov suyagining ikkinchi uchi yelka kamari va ko'krak bilan birikishi ko'rsatib beriladi, yelka kamari va qo'lning harakatlanishida muskullarning (deltasimon muskul, katta ko'krak mushagi, trapetsiyasimon muskul va hokazo) ahamiyati haqida bilish kerak.

Shunday qilib gipsdan ishlangan anatomic model rasmini chizish tamoyillarini umumlashtiramiz:

- model chizish avvalida yengil chiziqlar – shtrix va yorug’-soya bilan chiziladi, hamda shtrixlar va yorug’lik soyasi shakl ajralib chiqqunicha doimiy ravishda qalinlashtirib boriladi;
- model rasmini simmetrik qilib chizish kerak, bunda juft shakllar va ularning perspektiv o’zgarishi solishtirib boriladi;
- ekorshega tez-tez qarab gohida rasmning tuzilishi, gohida esa qismlari va umumiy shakli tekshirib boriladi;
- rassomni chalg’ituvchi kichik detallar tasviriga rasm so’nggida, umumiy tasvir hosil qilingandan so’nggina e’tibor berilishi kerak.



64-rasm. Gavda muskullari:

- 1 – trapetsiyasimon muskul; 2 – ko’krak katta muskuli; 3 – deltasimon muskul;  
 4 – orqaning umumiy muskuli; 5 – tishli muskul; 6 – ikki boshli muskulning kalta boshchasi; 7 – qorinning ichki qiyiq muskuli; 8 – qorinning to’g’ri muskuli;  
 9 – o’rta dumba muskuli; 10 – katta dumba muskuli; 11 – sonning to’g’ri muskuli;  
 12 – tikuvchilar muskuli; 13 – son muskullari; 14 – yaqinlashtiruvchi muskullar;  
 15 – sonning ichki serbar muskuli; 16 – boldir muskuli;  
 17 – kambalasimon muskul; 18 – oldingi katta boldir muskuli.



**Keys.** Mavzu asosida natura qo'yildi. Bajarilgan amaliy ishda yorug'-soya munosabatlarida xatolik yuz berdi. Amaliy ish jarayonida qanday qoidalarga e'tibor berilmagan.

**Keysni bajarish bosqichlari va topshiriqlar:**

- Keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni belgilang (individual va kichik guruhda).
- Topshiriqni to'g'ri bajarilishi uchun bajariladigan ishlar ketma-ketligini belgilang (juftliklardagi ish).

**Amaliy topshiriqlar**

Odam ko'rinishlaridan turli harakatdagi holatlaridan nabroska va zarisovkalar ishlash(5-10ta).



## Glossariy

**Tors** – (tana asosi) inson tanasining asosi, asosan bel va umurtqa pog'onasi.

**Fas**– old ko'rinish, yuz, chehra.

## Test

### **Anatomik model rasmini ishlashdan maqsad**

Inson tanasining tuzilishi va muskullarini o'rganish uchun \*

Inson organizmini o'rganish uchun

Inson skeletini o'rganish uchun

### **Anatomik model(Ekorshe) muallifi kim**

Jak Antuan Gudon\*

Mikelandjelo Buonarotti

Ogyust Roden

### **Foydalanish uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar:**

- 1.Соибов Т.З, Гильманова Н., Слугин А.П, Бродина М.Р,Тё А.В, Чизматасвир, рангтасвир, ҳайкалтарошлик. Т., 2010
- 2.Баммес Г. Изображение фигуры человека. Берлин: Изд-во Фольк унд Виссен.1984.
3. Барчай Е. Анатомия для художников. Будапешт; Корвина, 1959.
- 4.“Drawing techniques” Peter Stenyer, 2013, Arcturus Publishing, London. The Complete Book of DRAWING TECHNIQUES a professional guide for the artist. Peter Stanyer. Arcturus Publishing England. 2013.
5. Sculpture: materiais & process. Flora Street Dallas.2011.Nasher Sculpture Center.org.

### 13-amaliy mashg'lot

#### Mavzu: Odam qomati tasvirini ishlash

Odam – o'zining jismoniy va psixik xarakteristikalari bo'yicha ham tashqi ma'lumotlari va ichki konstruksiyalari bo'yicha ham tabiatdagi ehg murakkab organism hisoblanadi. Rasmdagi butun kompleks bilimlar – uning fonetikasi, plastikasi, proptsiyalar, kanonlar, obrazli yechimlar, kompozitsiyalar, perspektiva va ranglar tusining usullarini, odamning plastik anatomiyasini bilish vazifasini qo'yadi.

Inson qomatini uchun uning proportsiyasini aniqlaydigan, belgilaydigan o'lcham to'g'risida ma'lumotga ega bo'lish kerak. O'z vaqtida misr rassomlari “kanon” o'lchami bo'yicha inson gavdasini qo'l panjasining uzunligi bilan o'lchashni tavsiya qilishgan. Bu o'lcham bo'yicha odam tanasining bo'yi yigirma bo'lakka bo'linadi. Rus rassomi A.Sapojnikov esa odam gavdasini oyoq panjasining bo'yi bilan o'lchashni tavsiya etgan. Bu o'lcham bo'yicha gavda bo'yi o'ttiz o'lcham birligiga teng bo'lgan ekan. Lekin bu o'lchamning o'ziga xos xususiyati bo'lgani bilan, bunday mayday bo'lak o'lcham birligi bilan rasm chizish juda ham ko'p vaqtni talab etadi. Shuning uchun amalda foydali o'lcham birligi o'rta asrda yashagan buyuk italiyalik rassom va haykaltarosh Mikelandjelo Buonarotti tomonidan kashf etilgan. U gavdani inson boshining uzunligining o'lchov birligi etib tavsiya etilgan. Agarda shu o'lchov birligi bilan o'lchaydigan bo'lsak, sakkiz bo'lakka bo'linadi. Masalan, bosh, yelkadan ko'krakkacha, ko'krak markazidan kindikkacha va shunday davom etadi.

Ayrim hollarda odamning bo'yi boshiga nisbatan yeti yoki yeti yarim bo'lakka bo'linishi ham mumkin.

Inson gavda proportsiyasi o'lchamining yana boshqa usullari ham mavjudki, ularni bilib qo'yish maqsadga muvofiq. Masalan, qo'l gorizontol cho'zganda ikki qo'l boshlarining oraliq masofasi odam bo'yiga teng keladi. Odam bo'yining tik o'rtasidan o'tgan chiziq jins muskuli boshlanish joyidan o'tadi.

Rasmni har galgidek to'g'ri joylashtirishdan boshlaymiz. Gavdaning qog'ozga umumiy ko'rinishi joylashtirilgandan so'ng, tananing o'ng tomonidagi o'irlik markazi belgilanadi. Bu tik chiziq bolib, bel umurtqasidan o'tadi. Keyin boshning o'lcham birligi sifatida olinib, bo'yiga(qalam bilan o'lchab) qo'yib chiqiladi, shu orqali tasvirlanayotgan gavdaning uzunligi va necha bo'lakka bo'linishi aniqlanadi. Gavda bo'yining o'rtasi bo'lib belgilanadigan chizig'I belidan yuritiladi va yonbosh bo'lagining yo'nalishi ham ko'rsatiladi. Shu bosqichda boshning o'rta chizig'ni, boyining burilishini belgilaydigan va qo'l bilan oyoqlarning harakatini ko'rsatuvchi chiziqlar yuritiladi.

Keyingi bosqichlarda gavdaning konstruktiv qurilishi tasvirlanadi.

Bu bosqichda gavda bo'yin ko'rinishining umumiy shaklini belgilaydigan muskullarning qoralamasi perspektiva qisqarishlariga asoslanib tasvirlanadi hamda inson anatomik tuzilishi haqida olgan bilimlar qo'l keladi.

Qo'l-oyoq taqqoslanib nisbat munosabatlari tekshiriladi, boshning, gavdaning burilish yo'halishlari aniqlanadi.


Qomatning ko'krak qafasini belgilovchi shaklini chizib, perspektib qisqarishlari ko'rsatiladi, undan keyin tananing soya chegaralari belgilanadi.



So'ng, tana mushaklari nisbatlarini o'lchab, shtrixlar yordamida yorug'-soyalari tasvirlanadi. Qomatni shtrixlashda tanadagi yorug'lik bilan soya quruqligi har xil ekanligiga e'tibor berish lozim. Masalan, yuzdagi soya gavda tusining soyasiga nisbatan ancha quyuqroq ekanligini oddiy qarashda ham ko'rish mumkin. Agar qomatning o'ng tomonini e'tibor bilan kuzatsak, boshdan tovonigacha bo'lgan oraliqdagi yorug'lik asta-sekin quyuqlashib soyasiga birikadi.







Oxirgi bosqichlarda surat konstruksiyasini tasvirlashdagi asosiy yordamchi – kontur chiziqlari shtrixning quyuqligi bilan qo'shib ko'rinmasligi kerak, shunda qomatning chiroyli plastik tasviri jonlanadi. Bu yerda ayrim mayday bo'laklari (ko'z, burun, qo'l-oyoq panjalari va h.k.) aniq tasvirlashning hojati yo'q, ularning umumiy shakli bilan chegaralanadi.

Umumlashtirish bosqichida ayrim talabalar uning tabiiy ko'rinishiga yaqinlashtirish maqsadida soya qismlarini quyuqlashtiradi. Natijada o'sha qismlari qora dog' bo'lib suratni buzadi, unumli mehnati zoye ketmasligi uchun o'z vaqtida to'xtatish kerak.



63-rasm. Gavda skeleti tuzilishi:

- 1 – bo'yin umurtqasi; 2 – o'mrov; 3 – kurak; 4 – to'sh; 5 – umurtqa pog'onasi;  
 6 – qovurg'alar; 7 – bilak suyagi; 8 – bel umurtqasi; 9 – tirsak suyaklari;  
 10 – qo'l panjasi suyaklari; 11 – yonbosh suyagi; 12 – dumg'aza; 13 – dum;  
 14 – son suyagi; 15 – boldir suyaklari; 16 – oyoq panjasining suyaklari.




**Keys.** Mavzu asosida natura qo'yildi. Uni qog'oz yuzasiga joylashtirilganda xatolik yuz berdi. Amaliy ish jarayonida qanday qoidalarga e'tibor berilmagan.

**Keysni bajarish bosqichlari va topshiriqlar:**

- Keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni belgilang (individual va kichik guruhda).
- Topshiriqni to'g'ri bajarilishi uchun bajariladigan ishlar ketma-ketligini belgilang (juftliklardagi ish).

## Amaliy topshiriqlar

Odam ko'rinishlaridan turli harakatdagi holatlaridan nabroska va zarisovkalar ishlash(5-10ta).



## Glossariy

**Plastika**– silliq, mayin, egiluvchan, hamohang

**Kanon** – qonun so'zidan olingan, qabul qilingan o'lchov, birlik

**Soya** – narsaning yorug'lik tushmaydigan qismidagi ko'rinishi.

## Test

**Plastika so'zining ma'nosini ko'rsating**

\* silliq, mayin, egiluvchan, hamohang

Joylashtirish, qurish

Jozibali, chiroyli

**Mikelandjelo hisobi bo'yicha inson boshi uning gavdasiga nisbatan nechtaga to'g'ri keladi**

8 taga\*

7 taga

7,5 taga

### **Foydalanish uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar:**

1. Соибов Т.З, Гильманова Н., Слугин А.П, Бродина М.Р, Тё А.В, Чизматасвир, рангтасвир, хайкалтарошлик. Т., 2010
2. Баммес Г. Изображение фигуры человека. Берлин: Изд-во Фольк унд Виссен. 1984.
3. Барчай Е. Анатомия для художников. Будапешт; Корвина, 1959.
4. "Drawing techniques" Peter Stenyer, 2013, Arcturus Publishing, London. The Complete Book of DRAWING TECHNIQUES a professional guide for the artist. Peter Stenyer. Arcturus Publishing England. 2013.
5. Sculpture: materials & process. Flora Street Dallas. 2011. Nasher Sculpture Center.org.

## 14-amaliy mashg'lot

### Rangtasvir. Mavzu: Natuymort(issiq ranglardan iborat)

**Rangtasvir** – tasviriy san'atning shunday bir turidirki, unda rang eng asosiy o'rinni egallaydi. Biro yuzada bo'yoqlar vositasida bajarilgan san'at asari rangtasvir deyiladi. Rangtasvir amalda yo'nalishlariga ko'ra mahobatli, dastgohli, miniatyura, teatr rangtasvir bezagi kabi turlarga bo'linadi. Rangtasvir yo'nalishlarining har biri maxsus xususiyatlari bilan bir-biridan farq qiladi. Bu bajarish uslubi, shuningdek badiiy obraz talablariga ham tegishlidir.

Rangtasvir obrazlari nihoyatda jiloli va har biri o'ziga xos. Musavvirilar rangtasvir vositalari ko'magida asar yaratadilar va ular har doim qalamtasvir, kompozitsiya imkoniyatlaridan foydalanadilar. Demak, rangtasvirda asosiy ifoda vositasi rang bo'lib qolaveradi.


**Natuymort (issiq ranglardan iborat).** Rang o'zi nima, uning qanday xususiyatlari bor? Buyumlarning rangi nimani bildiradi? Nima sababdan ba'zi narsalar ko'k, boshqasi qizil, yana biri yashil rangli? Bularning barchasiga sababchi o'z yo'lida hamma narsani yorituvchi, aniqrog'I nurlantiruvchi quyosh ekan. Qorong'ida biz xech narsani ko'rmaymiz. Ko'zga quyosh yoki elektr chirog'I nurlari, yorug'lik to'lqinlari tushishi bilanoq, ranglarni his qilish tuyg'usi paydo bo'ladi.

Quyosh nurlari hayratomuz xususiyatlarga ega. Yomg'ir tomchilari yoki shishaning egri qirralarida, uch qirrali shisha prizmada sinayotgan quyosh nurlari hosil qilgan kamalakni eslab ko'ring. Birinchilardan bo'lib bu hodisani ingliz fizigi I.Nyuton kashf etdi, u oq rangni spektr ranglariga yoyib chiqishga erishdi.


Qizil, olovrang, sariq, yashil, havorang, ko'k va binafsha ranglar spektrni tashkil etadi. Ranglar doirasi odatda ikkiga: iliq va sovuq ranglarga bo'linadi.

Iliq ranglar. Qizil sariq, olovrang va tarkibida shu ranglardan oz bo'lsada aralashgan barcha ranglar. Iliq ranglar quyosh rangi, olov va tabiatda haqiqatan ham issiq beruvchi manbalarni eslatadi.

Sovuq ranglar. Ko'k havorang, yashil, ko'k-binafsha, ko'k-yashil va bularning birikmasidan kelib chiqqan barcha ranglar. Sovuq ranglar bizning tasavvurimizda haqiqatan ham sovuqlik keltiruvchi narsalar – muz, qor, suv, oy yorug'I va shu kabilar tarzida namoyon bo'ladi.



Iliq ranglar gammasi:



**Natyurmort janri haqida ma'lumot.** Natyurmort - tasviriy san'atning o'ziga xos mustaqil janridir. "Natyurmort"- fransuzcha so'zdan olingan bo'lib, nftura morte ya'ni "jonsiz tabiat" degan ma'noni bildiradi.

Natyurmort ko'pincha uy-ro'zg'orbuyumlari, mehnat qurollari, sabzavot-mevalar, gullar, parrandalar va shu kabi narsalar tasvirlanadi. Natyurmort san'ati inson maishiy hayotining zarur duyumlarini aks ettiradi.

**Natyurmort kompozitsiyasi.** Har qanday san'at asarining ne-gizini kompozitsiya tashkil etadi. Kompozitsiya «compositio» lotincha so'z bo'lib, tuzish, birlashtirish - turli boiaklarni bir butun yaxlit biror g'oyaga mos holda birlashtirish ma'nosini bildiradi. Tasviriy san'atda kompozitsiya deb badiiy asarning mazmuni, xarakteri va maqsadi bilan bog'liq holdagi qurilishi, qismlarning asar g'oya-siga muvofiq joylashtirilishi va o'zaro munosabatini anglatadi. Kompozitsiyada eng muhimi ba-diiy obrazni yaratish.

Tasviriy san'atda kompozitsiyaning simmetriya va asimmetriya, muvozanat, ritm, turg'unlik (statika) va harakat (dinamika), ikkinchi darajali narsalarga (aso-siyga) bo'ysunish, ko'rish markazi va ko'pincha unga mos keladigan kompozitsion markazni bo'rttirib ko'rsatish kabi qoidalari mavjud.

Kompozitsiyaning asosiy talablari yaxlitlik, simmetriya va ritm. Tasodifan terilib qolgan narsalarni natyurmort deb bo'lmaydi. Natyurmort kompozitsiyasining ma'noli va ta'sirchan chiqishi uchun yagona mavzudagi, bir-biriga mos narsalar tabiiy bog'lanishda qo'yi-lishi kerak.

Biror mavzudagi natyurmort asarini yaratishda ijodkorning ko'z o'ngida bo'lajak natyurmort yaxlitligicha gavdalanadi va unga mos narsalar tanlab, e'tibor bilan joylashtirish haqida fikr yuritadi, xomaki eskizlar chizadi va shu eskizlar asosida kompozitsiya tuzadi.

Natyurmortni mazmunli bo'lishi uchun kichikroq narsalar oldinda, yiriklari orqa ko'rinishda tasvirlanadi. Natyurmort ufq chizig'idan pastroqda joylashtiladi.

**Keys.** Mavzu asosida natura qo'yildi. Natyurmortda rang bilan ishlashda kamchilik yuz berdi. Amaliy ish jarayonida qanday qoidalarga e'tibor berilmagan.

**Keysni bajarish bosqichlari va topshiriqlar:**

- Keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni belgilang (individual va kichik guruhda).
- Topshiriqni to'g'ri bajarilishi uchun bajariladigan ishlar ketma-ketligini belgilang (juftliklardagi ish)

## Amaliy topshiriqlar

Iliq koloritda sodda natyurmortlar etyudini ishlash (2-3ta).



## Glossariy

**Kolor** – bo'yoq, rang.

**Kolorit** – badiiy asardagi yetakshi rang.

**Kompozitsiya** – to'qish, tuzish, bir-biriga ma'lum tartibda joylashtirish, solishtirish va birlashtirishni anglatadi.

**Kontrast** – qarama-qarshilik, zidlik, ranglarning o'zaro qarama-qarshiligi. Bir rangning yonida ikkinchi rangning yanada yorqinroq, chiroyliroq ko'rinishi.

## Test

**Spektrda nechta rang bor**

\* 7 ta

8 ta

6 ta

**Tabiatdagi asosiy ranglar qatorini ko'rsating**

Qizil, sariq, ko'k

Qizil, sariq, qora

Oq, qora, sariq, qizil, ko'k

### **Foydalanish uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar:**

1. Т.Қо'зиёв., А. Егамов., Т. Қаноатов., А.Нурқобилов. Рангтасвир. Т., "San'at", 2003.
2. Соибов Т.З, Гильманова Н., Слугин А.П, Бродина М.Р, Тё А.В, Чизматасвир, рангтасвир, хайкалтарошлик. Т., 2010
3. Баммес Г. Изображение фигуры человека. Берлин: Изд-во Фольк унд Виссен. 1984.
4. Барчаи Е. Анатомия для художников. Будапешт; Корвина, 1959.
5. "Drawing techniques" Peter Stenyer, 2013, Arcturus Publishing, London. The Complete Book of DRAWING TECHNIQUES a professional guide for the artist. Peter Stanyer. Arcturus Publishing England. 2013.
6. Sculpture: materials & process. Flora Street Dallas. 2011. Nasher Sculpture Center.org.



## 15-amaliy mashg'lot

### Mavzu: Natyurmort (sovuq ranglardan iborat)

Sovuq ranglar bilan ishlangan natyurmortda bo'yoqlarning yashil, ko'k, zangori uyushmasidan iborat bo'ladi. Bu mavzudagi eng oddiy sovuq ranglarni turli bo'yoqlar tarkibiy qismlari: havorang, binafsha rang, yashil ranglardan iborat. Havorang uning turlari va tuslaridan iborat yoki faqat binafsha ranglarda yoki bo'lmasa sovuq yashil ranglarda ishlangan natyurmort tasviri chizish topshirig'i murakkabroq bo'ladi.

Natyurmortni mazmunli bo'lishi uchun kichikroq narsalar oldinda, yiriklari orqa ko'rinishda tasvirlanadi. Natyurmort ufq chizig'idan pastroqda joylashtiladi. Shunda narsalarning fazoviy holati va tekisligi yaxshi ko'rinadi. Natyurmort sinchiklab kuzatiladi.

Tasviriy san'atda kompozitsiyaning simmetriya va asimmetriya, muvozanat, ritm, turg'unlik (statika) va harakat (dinamika), ikkinchi darajali narsalarga (aso-siyga) bo'ysunish, ko'rish markazi va ko'pincha unga mos keladigan kompozitsion markazni bo'rttirib ko'rsatish kabi qoidalari mavjud.

Kompozitsiyaning asosiy talablari yaxlitlik, simmetriya va ritm. Tasodifan terilib qolgan narsalarni natyurmort deb bo'lmaydi. Natyurmort kompozitsiyasining ma'noli va ta'sirchan chiqishi uchun yagona mavzudagi, bir-biriga mos narsalar tabiiy bog'lanishda qo'yi-lishi kerak. Natyurmort maqsadi bilan bog'liq holdagi qurilishi, qismlarning asar g'oya-siga muvofiq joylashtirilishi va o'zaro munosabatini anglatadi. Kompozitsiyada eng muhimi badiiy obrazni yaratish.

Tasviriy san'atda kompozitsiyaning simmetriya va asimmetriya, muvozanat, ritm, turg'unlik (statika) va harakat (dinamika), ikkinchi darajali narsalarga (aso-siyga) bo'ysunish, ko'rish markazi va ko'pincha unga mos keladigan kompozitsion markazni bo'rttirib ko'rsatish kabi qoidalari mavjud.

Kompozitsiyaning asosiy talablari yaxlitlik, simmetriya va ritm. Tasodifan terilib qolgan narsalarni natyurmort deb bo'lmaydi. Natyurmort kompozitsiyasining ma'noli va ta'sirchan chiqishi uchun yagona mavzudagi, bir-biriga mos narsalar tabiiy bog'lanishda qo'yi-lishi kerak.


Kompozitsiya maqsadi bilan bog'liq holdagi qurilishi, qismlarning asar g'oya-siga muvofiq joylashtirilishi va o'zaro munosabatini anglatadi. Kompozitsiyada eng muhimi badiiy obrazni yaratish.

Tasviriy san'atda kompozitsiyaning simmetriya va asimmetriya, muvozanat, ritm, turg'unlik (statika) va harakat (dinamika), ikkinchi darajali narsalarga (aso-siyga) bo'ysunish, ko'rish markazi va ko'pincha unga mos keladigan kompozitsion markazni bo'rttirib ko'rsatish kabi qoidalari mavjud.

Kompozitsiyaning asosiy talablari yaxlitlik, simmetriya va ritm. Tasodifan terilib qolgan narsalarni natyurmort deb bo'lmaydi. Natyurmort kompozitsiyasining ma'noli va ta'sirchan chiqishi uchun yagona mavzudagi, bir-biriga mos narsalar tabiiy bog'lanishda qo'yilishi kerak.

Natyurmort ishlash bosqichlari. Natyurmort kompozitsiyasini

qog'ozga to'g'ri joylashtirish maqsadida qog'ozdan yasalgan maxsus asbob (video-iskatel)dan(1-rasm) foydalanish yaxshi natija beradi. Bu asbob orqali aniqlangan kompozitsiya alohida kichik o'lchamdagi qog'ozda xomaki chizib ko'riladi. Qo'yilma kompozitsiyasi aniqlangach asosiy ish katta o'lchamdagi qog'ozda bajariladi.



Sovuq ranglarda ishlangan

natyurmort



1-rasm. Video-iskatel

**Keys.** Mavzu asosida natura qo'yildi. Rang bilan ishlash jarayonida ranglarda bir xillik yuz berdi. Amaliy ish jarayonida qanday qoidalarga e'tibor berilmagan.

**Keysni bajarish bosqichlari va topshiriqlar:**

- Keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni belgilang (individual va kichik guruhda).
- Topshiriqni to'g'ri bajarilishi uchun bajariladigan ishlar ketma-ketligini belgilang (juftliklardagi ish).

## Amaliy topshiriqlar

Sodda ko'rinishdagi natyurmort etyudi (sovuq ranglardan iborat) 2-5 ta.



## Glossariy

**Kompozitsiya** – lotincha “compozito” so’zidan olingan bo’lib, tuzish, birlashtirish, bog’lash, turli xil ramziy qism ifodalarini bir butun yaxlitlikka birlashtirish va biron bir g’oyani madh etish ma’nosini bildiradi.

**Ritm** – bu kompozitsiya qismlarining bir tekis, uzluksiz, ketma-ketligi tartibi bolib, kompozitsiya qismlarining va ular orasidagi masofalarning takrorlanish qonuniyatini anglatadi.

**Statika** – turg'unlik, tasvirda harakatsizlikni ifodalovchi qoidalar.

**Dinamika** – harakat, tasvirda harakatni ifodalovchi qoidalar.

## Test

**Muzni, suvni eslatuvchi havorang, zangori, ko’kish-yashil, to’q binafsha kabi ranglar majmui qanday ataladi**

Asosiy ranglar

Oraliq ranglar

Sovuq ranglar \*

**Tasviriy san’at janri “Jonsiz tabiat” degan ma’noni bildiradi**

Maishiy janr

Natyurmort janri

Peyzaj

### **Foydalanish uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar:**

1. Т.Қо'зиёв., А. Егамов., Т. Қаноатов., А.Нурқобилов. Рангтасвир. Т., "Сан'ат", 2003.
2. Соибов Т.З, Гильманова Н., Слугин А.П, Бродина М.Р, Тё А.В, Чизматасвир, рангтасвир, ҳайкалтарошлик. Т., 2010
3. Баммес Г. Изображение фигуры человека. Берлин: Изд-во Фольк унд Виссен. 1984.
4. Барчай Е. Анатомия для художников. Будапешт; Корвина, 1959.
5. "Drawing techniques" Peter Stenyer, 2013, Arcturus Publishing, London. The Complete Book of DRAWING TECHNIQUES a professional guide for the artist. Peter Stanyer. Arcturus Publishing England. 2013.
6. Sculpture: materials & process. Flora Street Dallas. 2011. Nasher Sculpture Center.org.

## 16-amaliy mashg'ulot

### Mavzu: Natyurmortning tusli tasvirlanishi (grizayl)

Rangtasvirni puxta o'rganishda ko'pgina yetuk rassom va pedagoglar (oq va qora bo'yoqlarda) naturani tusda tasvirlashga katta ahamiyat berganlar. Shuning uchun, rangtasvirning boshlang'ich kursida grizayl texnikasida mashqlar bajarishni tavsiya etiladi. Grizayl (frantsuzcha grizaille, griz - kulrang) kulrang yordamida bir rangning har xil tuslari orqali ishlangan tasvir. Ishning birinchi bosqichida – asosiy munosabatlarni aniqlash kerak. Naturadagi asosiy ob'ektlarning yorug'-soya munosabatlari: fonning och-to'qligi, narsalarning sirtidagi och-to'qligiga va ularning o'zaro bir-birlariga nisbatan aniqlanadi. Avvalo, qo'yilmadagi narsalarning umumiy tusi bir sidra qoplanadi. Ishni soyadan yorug'likka qarab yuritish kerak. Grizayl usulida soya, yarimsoya, reflekslarni birdaniga kerakli tusda mos bo'yoqlar bilan qoplash, bo'yoq surtmalarini shakl yo'nalishi bo'yicha harakatlantirish kerak.

Akvarel bo'yog'ida asosan ikki xil usulda, ya'ni alaprima hamda lessirovka usullarida ishlanadi. Alaprima metodida ishlaganda, misol uchun manzara qog'oz namligini saqlagan holda bir yo'la ishlanadi. Bu metod shu o'zgaruvchi manzaralarni darhol ishlab olish kerak bo'lgan paytlarda, masalan, quyoshning chiqishi yoki botishi, tumanli yoki yomg'irli ko'rinishlarni tasvirlashga to'g'ri kelganda qo'llaniladi. Allaprima metod bilan ishlaganda qo'shimcha vositalardan foydalanilmaydi. Ranglar o'zaro ohangdosh bo'lishi va tiniq hamda toza ko'rinishida so'rilishi lozim. Bularning barchasi bo'yoqlar bilan ishlash malakasini o'sishiga, kunning engil va tez harakatlanishiga, rangni ko'ra bilish va sezish qobiliyatlarini rivojlanishiga katta yordam beradi.

Lessirovka usulida asosan bo'yoqlarning tiniqligidan, ranglarning o'zgarishi, xususiyatlaridan hamda bir rangning ustida ikkinchisini qo'yib, boshka tus hosil qilish yo'llaridan foydalaniladi. Tasviriy san'at darslarida rangli tasvirlarning muvaffaqiyatli chiqishda akvarel muhim rol o'ynaydi. Chunki bo'yoq bilan ishlash qanchalik puxta o'rganilgan bo'lsa, rangli tasvirlar shunchalik yaxshi chiqadi.

Akvarel uslubi. 1.Uzoq muddat davomida ishlanadigan tasvirlarda akvarel bo'yog'ini ortiqcha to'q ishlatib bo'lmaydi. Aniqrog'i, qog'ozni birdaniga bo'yoq bilan to'yintirib, to'q joylarni bor kuchi bilan ifodalab ularni kir qilish yaramaydi. Akvarel yordamida etyud ishlanganda boshlang'ich mashg'ulot sifatida asta - sekin ochdan to'qqa o'tib ishlash yaxshi uslub hisoblanadi. Buyumni o'ta yoritilgan (shaffof) qismini ehtiyotkorlik bilan qoldirgan holda qolgan barcha qismini yengil qilib bo'yab chiqiladi. Ammo shuni o'zida ham haqiqiy rangga mos bo'lmog'i kerak. Shuning uchun ham ularni asta - sekinlik bilan ustma - ust qo'yib ishlash mumkin. Tajribaga ega bo'lgandan so'ng zarur ton nisbatlarini bir yoki ikki nisbatda ishlash mumkin. Ortiqcha ustma-ust rang qo'yilganda ham rang o'zining yorqinligini yo'qotadi, hamda qog'oz sifati buzilishi mumkin. Rang o'zining bor jarangdorligini yaqin qilib olgandan yonidagi qo'shni ton

nisbatlarini olish oson bo'ladi. Bundan tashkari birdaniga rang bor kuchiga yaqin qilib olinganda naturadan bevosita va iliq olingan taassurotlarga mos keladi.

2. Akvarelda ishlanganda ish yakuni bir muncha erkin ko'rinadigan joylarni ish boshida bo'yamaslikka harakat qilish kerak. Avvaliga buyumni soya va yorqin soya joylarini ishlanadi. Ishni kam to'yingan ob'ektlardan boshlanganda ularning yorqinligini bo'rttirib borish mumkin. Bu esa ish so'ngida boshqa buyumlarni to'yinganligini to'g'ri ifodalash imkonini cheklab qo'yadi, natijada rang munosabatini to'g'riligi buziladi.

3. Har bir plandagi buyumlar rangni kuchaytirish yoki pasaytirish quyidagi tarzda olib boriladi. Toza mo'yqalamni suvlab olib yuzadagi bo'yoqni yengil yumshatib olgach uni mo'yqalam uchida chegaralarini yuvib olinadi va bu bilan uzoqda joylashgan buyum yengil ton nisbatlarida bajarilgan bo'lsa, uni yanada pasaytirish shart emas, aksincha oldi plandagi buyumlarni yanada yaqinlashtirish uchun yorqinligini oshirish va chegaralarni aniqroq ishlash yo'li bilan ton nisbatida kuchaytirish mumkin.

4. Akvarelda bajarilgan rangtasvirning sifati har tomonlama bajarish texnikasiga bog'liq. Qog'ozga qo'yilgan mazoklar bajarish uslubiga ko'ra "quruq" va "ho'l" bo'lishi mumkin. Agar bo'yoq bilan suv miqdori yetarli darajada ajratilgan bo'lsa va mo'yqalam to'la shu qorishmadan to'yintirilgan bo'lsa, qog'ozdan nam iz qoldiradi. Agarda mo'yqalam suyuq bo'yoq bilan yetarli miqdorda to'yintirilmasa, qog'ozda quruq oq dog' qoladi va tasvir "quruq" ish taassurotini uyg'otadi. "Nam" uslubda ishlanganda buyum materiali va uni soyadagi qismini yorqinligini aniq ishlash imkoni bor.

5. Buyumlarni yoritilgan qismi bir buncha aniq chegaraga ega. Soyada va orqa planda ton va rang kontrasti kuchsiz bo'ladi va shakl o'ta aniq chegaraga ega bo'lmaydi. Soyadagi va orqfa plandagi buyumlar tasvirini bir muncha umumlashgan holda topish lozim.

6. Akvarel bo'yog'ida ishlanganda yorug' soyani "qoraytirish" yaramaydi. Yorug', yarimsoya va soyani ma'lum darajada chegaralanganligi tasvirni "akvarellik" xususiyatini beradigan rangtasvir o'z ishini beradi.





**Keys.** Mavzu asosida natura qo'yildi. Uni qog'oz yuzasiga joylashtirilganda xatolik yuz berdi. Amaliy ish jarayonida qanday qoidalarga e'tibor berilmagan.

**Keysni bajarish bosqichlari va topshiriqlar:**

- Keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni belgilang (individual va kichik guruhda).
- Topshiriqni to'g'ri bajarilishi uchun bajariladigan ishlar ketma-ketligini belgilang (juftliklardagi ish).

**Amaliy topshiriqlar**

Sodda shaklda tuzilgan natyurmort etyudini ishlash(grizayl) 3-5ta



**Glossariy**

**Grizayl** - (frantsuzcha grizaille, griz - kulrang) kulrang yordamida bir rangning har xil tuslari orqali ishlangan tasvir.

**Lessirovka** - usulida asosan bo'yoqlarning tiniqligidan, ranglarning o'zgarishi, xususiyatlaridan hamda bir rangning ustida ikkinchisini qo'yib, boshka tus hosil qilish yo'llaridan foydalaniladi.

**Alaprima** – bu metodda ishlaganda, misol uchun manzara qog'oz namligini saqlagan holda bir yo'la ishlanadi.



## Test

### **Bir rangning har xil tushlari orqali ishlanadigan surat**

\* Grizayl

Kolorit

Kontrast

### **Rangtasvirning asosiy badiiy tili, vositasi**

soya

rang \*

yorug'lik

### **Foydalanish uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar:**

1. T.Qo'ziyev., A. Egamov., T. Qanoatov., A.Nurqobilov. Rangtasvir. T., "San'at", 2003.
2. Соибов Т.З, Гильманова Н., Слугин А.П, Бродина М.Р, Тё А.В, Чизматасвир, рангтасвир, ҳайкалтарошлик. Т., 2010
3. Баммес Г. Изображение фигуры человека. Берлин: Изд-во Фольк унд Виссен. 1984.
4. Барчай Е. Анатомия для художников. Будапешт; Корвина, 1959.
5. "Drawing techniques" Peter Stenyer, 2013, Arcturus Publishing, London. The Complete Book of DRAWING TECHNIQUES a professional guide for the artist. Peter Stanyer. Arcturus Publishing England. 2013.
6. Sculpture: materials & process. Flora Street Dallas. 2011. Nasher Sculpture Center.

## **17-amaliy mashg'lot**

### **Mavzu: Rangtasvirda portret ishlash**

Portret insonning shunday tasviridirki, unda nafaqat tashqi qiyofa, balki ichki dunyo va xususiyatlar ham ochib beriladi.

Portret biror shaxsga xos bo'lgan tashqi qiyofani, uning ichki dunyosi, xarakterini aks ettirish bilan birga, ma'lum tarixiy davrga xos fazilatlarini ham siymolarda haqqoniy ifodalab beradi.

Insonning ichki kechinmalarini uning yuz tuzilishi, nigohi, yurish turishi va kiyimida ko'rish mumkin.

Portretning turli ko'rinishlari mavjud:

*Samimiy*, rassom tor doira uchun ma'lum bo'lgan insonga xos xususiyatlarni yanada bo'rttirib, oshkora ifodalaydi;

*Tantanavor*, ommaviy joylarga mo'ljallangan mashhur kishilar portretlari. Ularda tasvirlangan insonning ko'rsatgan xizmatlari, jamiyatdagi o'rni, unga monand libos, interer, buyumlar ifodalanadi;

*Ijtimoiy*, keng doiradagi hamjamiyat sinfining turmush tarzi;

*Psixologik*, unda xarakter yuksak badiiy mahorat bilan ifoda etiladi.

Rassom o'zining portretini ishlagan bo'lsa, u avtoportret deb nomlanadi va shu kabi asarlar alohida ahamiyat kasb etadi. Har bir inson o'ziga xos murakkab va shu bilan birga qiziqarli xarakterga ega bo'lib, xilma-xil obrazlarga boy hayoti portretida yetakchi o'rinni egallaydi.

Portretda bosh va qo'lning bilakdan pastki qismi muhim ahamiyatga ega, surat chizayotgan kishi tomoshabin nigohini birinchi navbatda shu omillarga jalb qilmog' kerak.




Insonga xos xarakterni ifodalashda qo'l katta ahamiyatga ega. Ko'pchilik odamlar qo'l imo-ishoralari ko'magida suhbatlashadilar va bu xususiyatlar ham xarakterni yoritishda yordam beradi.

Portretda ko'z murakkab joylardan biri bo'lib, o'ta aniqlikni va tafakkurni jamlashni talab etadi.

Har bir ishni kompozitsiyadan boshlash va uning yechimini topish uchun bir necha qoralama va tezkor rangli etyudini bajarish maqsadga muvofiqdir. Bu tayyorgarchilik yaratilajak portretning kompozitsiyasini tanlab olishga, proporsiya va rang yechimlarining to'g'ri topilishiga yordam beradi.

Detallarni ishlab chiqqandan so'ng ular umumlashtiriladi, xarakterli joylari belgilanadi va ortiqcha narsalardan voz kechiladi. Bu bosqichda umumiylik, yaxlitlik va uyg'unlik ustida ish olib boriladi. Portret ishlashda detallarning qanday ashodan ekanligini ifoda etish muhim ahamiyatga ega.

Ishni tugatgach, umumiy rang yechimi saqlandimi, xarakter topildimi, boshning hajmiy shakli o'z aksini topgan-topmaganligi diqqat bilan kuzatiladi.



**Keys.** Mavzu asosida natura qo'yildi. Uni qog'oz yuzasiga joylashtirilganda xatolik yuz berdi. Amaliy ish jarayonida qanday qoidalarga e'tibor berilmagan.

**Keysni bajarish bosqchilari va topshiriqlar:**

- Keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni belgilang (individual va kichik guruhda).
- Topshiriqni to'g'ri bajarilishi uchun bajariladigan ishlar ketma-ketligini belgilang (juftliklardagi ish)

### **Amaliy topshiriqlar**

Portretlar ishlash(etyud, akvarel va guashda) 3-5ta



### **Tayanch so'z va atamalar**

**Detal** – qalamtasvir yoki rangtasvir ishlashda naturaning ma'lum qismlari, unsurlari.

**Lessirovka** - usulida asosan bo'yoqlarning tiniqligidan, ranglarning o'zgarishi, xususiyatlaridan hamda bir rangning ustida ikkinchisini qo'yib, boshka tus hosil qilish yo'llaridan foydalaniladi.

**Alaprima** – bu metoddagi ishlaganda, misol uchun manzara qog'oz namligini saqlagan holda bir yo'la ishlanadi.

### **Test**

**Tasviriy san'at janri, bir yoki bir necha odamlar tasviri**

- \* portret janri
- Peyzaj janri
- maishiy janr

**Turli xil bo'yoqlar yordamida ishlangan surat, asarlar nima deb ataladi**  
grafika  
rangtasvir \*

plakat

**Foydalanish uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar:**

1. Т.Қо'зиёв., А. Егамов., Т. Қаноатов., А.Нурқобилов. Рангтасвир. Т., "Сан'ат", 2003.
2. Соибов Т.З, Гильманова Н., Слугин А.П, Бродина М.Р, Тё А.В, Чизматасвир, рангтасвир, ҳайкалтарошлик. Т., 2010
3. Баммес Г. Изображение фигуры человека. Берлин: Изд-во Фольк унд Виссен. 1984.
4. Барчай Е. Анатомия для художников. Будапешт; Корвина, 1959.
5. "Drawing techniques" Peter Stenyer, 2013, Arcturus Publishing, London. The Complete Book of DRAWING TECHNIQUES a professional guide for the artist. Peter Stanyer. Arcturus Publishing England. 2013.
6. Sculpture: materials & process. Flora Street Dallas. 2011. Nasher Sculpture Center.org.

## 18-amaliy mashg'ulot

### Mavzu: Ranglari bir-biriga zid bo'lgan natyurmort (kontrast)

**Yorug'lik va rang kontrasti.** Buyumlar rangi muhit sharoitidan kelib chiqqan holda doimo o'zgarib turadi. Bunda yorug'lik katta ahamiyatga egadir. Agar buyumga tushayotgan sovuq rang bo'lsa, soyalar iliq rang bo'lib va aksincha tushayotgan yorug'lik iliq rang bo'lsa, soyalar sovuq rang bo'lib ko'rinadi.

Yorug'lik va rang kontrastlari buyumning bukilgan joylarida, ya'ni shaklning burilishlarida, shuningdek contrast fon bilan tutashuv chegaralarida aniq va ravshan idrok etiladi.

Musavvirlar tasvirda buyumlarning turli tuslarini ifodalashda yorug'lik kontrastidan foydalanadilar. Och rangdagi narsalarni to'q ranglilari yoniga qo'yilab, ranglar kontrasti kuchaytiriladi va ular shu usulda shakl ifodasini yoritishga erishadilar.

Oq va qora fonlarda joylashgan bir xildagi kulrang kvadratlarni bir-biriga taqqoslab ko'rsak, ular bir necha xilda bo'ladi.

Kulrang qora fonda asliga ko'ra ochroq, oq fonda esa to'qroq bo'lib ko'rinadi. Bu contrast hodisalarni yorug'lik yoki yorqinlik kontrasti deyiladi(1-rasm).

Biz buyumning rangini atrof-muhit foniga nisbatan idrok etamiz. Oq dasturxon ustiga olov rang apelsinlar qo'yilsa, dasturxon havorang, yashil olmalar qo'yilganda pushti rang bo'lib ko'rinadi. Bunga sabab, harsalar rangiga nisbatan fon rangi qizil buyum yonida sovuq, ko'k va yashil buyum yonida esa iliq bo'lib ko'rinadi.


Misol uchun, bir xil 3 ta kvadrat berilgan. Ular ko'k fonda - olovrang tusda, sariq fonda – binafsha, yashil fonda – pushtirang tuslarga kiradi, ya'ni bu kvadratlar fon rangiga nisbatan qo'shimcha ranglarni o'zlashtiradi. Buyum rangi och fonda to'qroq, to'q fonda ochroq bo'lib ko'rinadi(2-rasm).

Ranglar kontrasti hodisasi – har qanday rang atrofdagi boshqa ranglar ta'siri natijasida asl rangiga nisbatan o'zgarishini ko'rsatadi.


Qo'shimcha ranglar bir-birlari yonida yorqinroq va to'qroq bo'lib ko'rinadi. Bu jarayon asosiy ranglar orasida ham mavjud. Masalan, qizil pomidor yashil oshko'klar yonida yanada qizilroq, baqlajon sariq sholg'om yonida yanada binafsharoq ko'rinadi.

Ko'k va qizil ranglar kontrastlari sovuq va iliq ranglar kontrastlari timsolidir(3-rasm).

Atrof olamda bir rangning ikkinchisiga ta'siri biz ko'rgan misollarda bir muncha murakkab bo'lib, yorqinligi va kontrastlari katta ahamiyat kasb etadi va rasm chizayotganda kishiga ranglarning amaldagi uyg'unliklarini aniqroq ko'rib, his qilishga yordam beradi. Yorug'lik va ranglar kontrastlaridan foydalanish tasviriy asarlar jozibadorligini yanada oshiradi. Amaliy bezak ishlarini ma'nodor qilishda tus va ranglar kontrastlari katta rol o'ynaydi.



Yorug'lik kontrasti



## Rang kontrasti

**Keys.** Mavzu asosida natura qo'yildi. Uni qog'oz yuzasiga joylashtirilganda xatolik yuz berdi. Amaliy ish jarayonida qanday qoidalarga e'tibor berilmagan.

### Keysni bajarish bosqchilari va topshiriqlar:

- Keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni belgilang (individual va kichik guruhda).
- Topshiriqni to'g'ri bajarilishi uchun bajariladigan ishlar ketma-ketligini belgilang (juftliklardagi ish)

### Amaliy topshiriqlar

Bir-biriga zid ranglardan iborat natyurmort etyudlari ishlash (3-5ta).



## Glossariy

**Asl rang** – tashqi muhit ta'sirlari hisobga olinmagan biror narsa yoki buyumning asosiy rangidir.

**Kontrast** - qarama-qarshilik, zidma-zidlik, ranglarning o'zaro qarama-qarshiligi. Bir rangning yonida ikkinchi rangning yanada yorqinroq, chiroyliroq ko'rinishi.

**Yorqinlik kontrasti** – yorug'lik qarama-qarshiliklari, rangning yorqinligi, unga yonma-yon turgan ranglar ta'sirida o'zgarishiga aytiladi.

## Test

**Bir-biridan rangi, tusi va xususiyati bilan keskin ajralib turuvchi bo'yoq xillari nima deb ataladi**

Iliq ranglar

Sovuq ranglar

Kontrast ranglar \*



## **Ikki asosiy ranglarni qo'shish orqali hosil qilinadigan ranglar nima deb ataladi**

Birikma ranglar \*

Sovuq ranglar

Iliq ranglar

### **Foydalanish uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar:**

1. T.Qo'ziyev., A. Egamov., T. Qanoatov., A.Nurqobilov. Rangtasvir. T., "San'at", 2003.
2. Соибов Т.З, Гильманова Н., Слугин А.П, Бродина М.Р, Тё А.В, Чизматасвир, рангтасвир, хайкалтарошлик. Т., 2010
3. Баммес Г. Изображение фигуры человека. Берлин: Изд-во Фольк унд Виссен. 1984.
4. Барчаи Е. Анатомия для художников. Будапешт; Корвина, 1959.
5. "Drawing techniques" Peter Stenyer, 2013, Arcturus Publishing, London. The Complete Book of DRAWING TECHNIQUES a professional guide for the artist. Peter Stanyer. Arcturus Publishing England. 2013.
6. Sculpture: materials & process. Flora Street Dallas. 2011. Nasher Sculpture Center.org.

## 19-amaliy mashg'ulot

### Mavzu: Bir-biriga yaqin bo'lgan ranglardan natyurmort(kolorit)

**Kolorit.** Rang birikmalari rangtasvirda g'oyat muhim vazifani bajaradi. Odatda yorqinligi va tusi bir-biriga yaqin bo'lgan ranglar o'zaro birlashadilar. Ranglar o'zaro tuslar orqali birlashganda, ular alohida jarangdorlik namoyon qilib, sifat o'zgarishlari ko'zga tashlanadi. Umumiy koloritdan ajralib qolgan rang begona bo'lib ko'rinadi va tasviriy asar yaxlitligiga putur yetkazadi. Tasviriy asar barcha ranglarning o'zaro bog'liqligi asosida quriladi. Bu, asar yaxlitligiga putur yetkazmagan holda yorqinligi yoki och-to'qligi bo'yicha birorta rang bo'lagini o'zlashtirish, uni kichiklashtirish yoki kattalashtirish mumkin bo'lmaydi.

Tasvirda turli ranglarning garmonik, go'zal tus birikmalari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik kolorit deb ataladi.

Kolorit bizga olamning boy, rang-barang go'zlligini ochib beradi. U rassomga tasvir kayfiyatini ifoda qilishda yordam beradi. Kolorit osoyishta, zavqlantiruvchi, xavotirli, ma'yus bo'lishi mumkin, shuningdek iliq va sovuq, yorqin va bo'g'iq bo'ladi. O'tmish ustozlarning rangtasvir asarlari quyidagi ayrim davrlarda kolorit rivojini kuzatish imkonini beradi. Kolorit tushunchasi XV asrning oxirlarida shakllanib, Borokko davrida ravnaq topdi. Undagi dastlabki o'zgarishlar asr oxirlarida namoyon bo'la boshladi. Bu davrda bo'yoqlarni alohida-alohida qo'ymasdan ranglarni silliq yedirma qilib, yarim soyalarga ulashgan.

Rangtasvir – rang va yorug'liklar san'atidir. Voqelikni bo'yoqlar vositasida tasvirga tushirar ekansiz, ranglarning bir-biriga ta'sirini nazarda tutmoq va ranglar uyg'unligi asosida tasvirlamoq zarur.

Shunisi muhimki, tasvirda to'g'ri topilgan ranglar uyg'unligi, go'zallikni angelay olish bilan birga, nafis asar go'zalligini bilish ravnaqiga ham zamin yaratadi.

Rassomlar amaliy-bezak ishlarida va rang uyg'unliklari ustida bosh qotiradilar, shu bilan birga ular narsa va buyumlar asl ranglarini ramziy yo'nalishlarga qarata oladilar. Naqshda kolorit uyg'unligiga barcha elementlar, rang kontrastlari vat us jilolari yordamida erishiladi.


Amaliy-bezak ishlarni bajarishda tanlangan rang, uning tasviriy bo'laklari, ritmik

joylashuvlari, nimaga mo'ljallangani va nimadan yasalishi doimo nazarda tutiladi.

Dizayn yo'nalishlarida rang va shakl bog'lanishlari, bu narsaning qanday maqsadga mo'ljallanganligi, yorqinligi, jozibadorligi katta ahamiyat kasb etadi.



Tabiiy yorug'likda ishlangan natyurmort(kolorit)



## Sun'iy yorug'likda ishlangan natyurmort(kolorit)


**Keys.** Mavzu asosida natura qo'yildi. Uni qog'oz yuzasiga joylashtirilganda xatolik yuz berdi. Amaliy ish jarayonida qanday qoidalarga e'tibor berilmagan.

### **Keysni bajarish bosqchilari va topshiriqlar:**

- Keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni belgilang (individual va kichik guruhda).
- Topshiriqni to'g'ri bajarilishi uchun bajariladigan ishlar ketma-ketligini belgilang (juftliklardagi ish)

### **Amaliy topshiriqlar**

Bir-biriga zid ranglardan iborat natyurmort etyudlari ishlash (3-5ta).



### **Glossariy**

**Kolorit** - tasvirda turli ranglarning garmonik, go'zal tus birikmalari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, badiiy asardagi yetakshi ranglar majmui.

**Garmoniya** – bog'liqlik, muntazamlilik, kelishganlik, ranglarning uyg'unligi, bir-biriga mos kelishi, mutanosiblik, hamohanglik.

**Kolor** – bo'yoq, rang.

### **Test**

**Badiiy asardagi yetakchi rang, badiiy obrazni yoritish uchun xizmat qiladigan mutanosib ranglar majmui**

Iliq ranglar

Sovuq ranglar

Kontrast ranglar \*

## **Ikki asosiy ranglarni qo'shish orqali hosil qilinadigan ranglar nima deb ataladi**

Birikma ranglar \*

Sovuq ranglar

Ilq ranglar

### **Foydalanish uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar:**

1. T.Qo'ziyev., A. Egamov., T. Qanoatov., A.Nurqobilov. Rangtasvir. T., "San'at", 2003.
2. Соибов Т.З, Гильманова Н., Слугин А.П, Бродина М.Р, Тё А.В, Чизматасвир, рангтасвир, хайкалтарошлик. Т., 2010
3. Баммес Г. Изображение фигуры человека. Берлин: Изд-во Фольк унд Виссен. 1984.
4. Барчаи Е. Анатомия для художников. Будапешт; Корвина, 1959.
5. "Drawing techniques" Peter Stenyer, 2013, Arcturus Publishing, London. The Complete Book of DRAWING TECHNIQUES a professional guide for the artist. Peter Stanyer. Arcturus Publishing England. 2013.
6. Sculpture: materials & process. Flora Street Dallas. 2011. Nasher Sculpture Center.org.

## **20-amaliy mashg'ulot**

### **Mavzu: Gipsli buyum ishtirokidagi natyurmort**

Bu mavzu «Gipsli buyum ishtirokida natyurmort» bo'lib, u natyurmortlar ustida ishlashni nihoyasiga yetkazadi va odam kallasini tasvirlash bosqichiga o'tish hisoblanadi.

“Gipsli buyum ishtirokidagi natyurmort” byevosita jonli shakl kallani tasvirlashga o'tishdan oldin ishlanadi. Bu topshiriqning maqsadi – gipsli kallani nafis ishlash, uning xususiyati, o'lchovlarini hisobga olish, odam kallasini haykaltaroshlik anatomiyasi bilan, uni kuchaytirishlar bilan amaliyotda tanishishdan iborat. Bu topshiriqning maqsadi talabani jonli odam kallasini tasvirlashga yaqinlashtirishdir.

Bu topshiriqda hajmli marom (jozibali) vazifalardan tashqari kallaning o'ziga xos shaklini rassomlik vositalari bilan yaratish: uning xususiyati va ko'rinishini byerish, tuslar, yoqimli-so'niqli qonunlarini hisobga olib hajmli va bo'yoqli tavsifi, bo'yoqlarni o'zaro tag'siri yaqinlashtirilgan va qo'shimcha bo'yoqlar hamda rassomlik savodining boshqa ko'nikmalarini namoyon etishdan iborat. Bu ko'nikmalarni talabalar bir muncha oddiy natyurmortlarda o'zlashtirganlar. Bu topshiriqlarda shuningdek nur-soya muhiti va unda narsalarning joylashganligi hamda gipsdan ishlangan kalla rangini natyurmortning butun ranglar tuzilishi bilan bog'lash vazifasi qo'yiladi. Boshqa matyeriallar (yog'och, tosh, temir va h.k.)da ishlangan haykal kallalari bo'lgan natyurmortlar bu topshiriqning boshqa ko'rinishlari bo'lishi mumkin. bu natyurmortlarda yuqorida aytilgan vazifalardan tashqari yana bir vazifa qo'shiladi: rassomlik vositalari bilan haykallarning xom ashyolarini ham tasvirlab berish kerak bo'ladi.

Umumiylikdan xususiylikka va xususiylikdan umumiylikka – natyurmortning ko'proq ifodaliligini qidirishning yo'li shundaydir.

Natyurmort – rassomlikning alohida mavzui bo'libgina qolmay, u rassomning boshqa hamma shakllari: mazmunli kompozitsiya, portret, manzara, interyerlardan qolishmaydigan to'liq va mazmunli bo'lgan surat shaklidir. Borliq

qiyofasini o'zida yaxlit, tugal aks ettirgan sang'at asari hamisha katta badiiy mazmunga ega bo'ladi, shu bilan birga uning mohiyati tashqi mazmuni bilangina cheklanib qolmaydi.

Natyurmort ustida ishlayotgan rassom ruhiy nuqtai nazaridan eng arziyas ikir-chikirlarni ham tasvirlaydi, umumlashtiradi, narsalarga shakl berarkan, bir nechta narsani oddiy taqqoslashga nisbatan ularni chuqurroq tassavvur etib, muayyan mazmun bag'ishlaydi. Shuning uchun ham sang'atning boshqa turlariga nisbatan rassomlikning bu sohasida ham davrni his eta bilishi talab qilinadi, his etganda ham bag'zi o'rinlarda yorqinroq va aniqroq his etish kerak bo'ladi.

Narsalar olami – inson olamidan iborat, bu olamki inson o'z qo'li bilan yaratgan, shakllantirgan. Bu esa ko'rinishi jihatidan oddiy tuyilgan natyurmortni chuqur mazmunli janrga aylantiradi.



**Keys.** Mavzu asosida natura qo'yildi. Uni qog'oz yuzasiga joylashtirilganda xatolik yuz berdi. Amaliy ish jarayonida qanday qoidalarga e'tibor berilmagan.

### **Keysni bajarish bosqchilari va topshiriqlar:**

- Keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni belgilang (individual va kichik guruhda).
- Topshiriqni to'g'ri bajarilishi uchun bajariladigan ishlar ketma-ketligini belgilang (juftliklardagi ish)

### **Amaliy topshiriqlar**

Maishiy buyumlardan tuzilgan natyurmort etyudlari ishlash (3-5ta).



### **Glossariy**

**Asl rang** – tashqi muhit ta'sirlari hisobga olinmagan biror narsa yoki buyumning asosiy rangidir.

**Kontrast** - qarama-qarshilik, zidma-zidlik, ranglarning o'zaro qarama-qarshiligi. Bir rangning yonida ikkinchi rangning yanada yorqinroq, chiroyliroq ko'rinishi.

**Yorqinlik kontrasti** – yorug'lik qarama-qarshiliklari, rangning yorqinligi, unga yonma-yon turgan ranglar ta'sirida o'zgarishiga aytiladi.

### **Test**

**Bir-biridan rangi, tusi va xususiyati bilan keskin ajralib turuvchi bo'yoq xillari nima deb ataladi**

Iliq ranglar

Sovuq ranglar

Kontrast ranglar \*



## **Ikki asosiy ranglarni qo'shish orqali hosil qilinadigan ranglar nima deb ataladi**

Birikma ranglar \*

Sovuq ranglar

Iliq ranglar

### **Foydalanish uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar:**

1. T.Qo'ziyev., A. Egamov., T. Qanoatov., A.Nurqobilov. Rangtasvir. T., "San'at", 2003.
2. Соибов Т.З, Гильманова Н., Слугин А.П, Бродина М.Р, Тё А.В, Чизматасвир, рангтасвир, хайкалтарошлик. Т., 2010
3. Баммес Г. Изображение фигуры человека. Берлин: Изд-во Фольк унд Виссен. 1984.
4. Барчаи Е. Анатомия для художников. Будапешт; Корвина, 1959.
5. "Drawing techniques" Peter Stenyer, 2013, Arcturus Publishing, London. The Complete Book of DRAWING TECHNIQUES a professional guide for the artist. Peter Stanyer. Arcturus Publishing England. 2013.
6. Sculpture: materials & process. Flora Street Dallas. 2011. Nasher Sculpture Center.org.

## **21-amaliy mashg'ulot**

### **Mavzu: Cheklangan rangtasvir (dekorativ)**

Rangtasvirni yaxshi egallamagan talaba, uni bezashdagi uyg'unlikni, ranglar (parda, mebel, shkaf rang turlari) ni bir-biriga monand, mos yaxlit ko'rinishiga bo'lgan munosabatni tiklay olmaydi.

Albatta talabada "cheklangan rang" iborasi nima? – degan savol tug'ilishi tabiiy hol. "cheklangan rang" shuki ishlanadigan atyurmortni rangi turli rang jilolaridan, rango-rang tovlanib ko'rinishidan qat'iy nazar talaba uni "cheklangan" ikki-ush xil rang bo'yoq qorishmasida topshiriqni bajarishi shart.

Bu ranglardan foydalanishdagi maromni jilovlab, talabani palapartish ish yuritmaslikka rangga bo'lgan ehtiyotkorlikni ularning tuslanishini tartibga soladi.

Cheklangan rang va ular yordamida turli-tuman ko'rinishiga moyil jihozlarni tasvirlashda (bezashda) o'ziga xos yaxlit rang uyushma talabi (ranglarni ham o'z vazifalari) ga mos ravishda ranglarni qo'shib uni ishlata olishlariga imkon yaratadi.

Odatda tashviqot tasvir (plakat)lari cheklangan rangda yaratiladi. Bunga sabab shu plakat sarf xarajatining ommaga ko'plab ishlab shiqarishda uning tannarxi qiymatini arzon bo'lishi ham cheklangan rangga bog'liqdir.

Talaba yana shuni yaxshi bilish kerakki, dars topshirig'i bu o'quv ishlaridir, bular asosan mashq vazifasini o'taydi. Hayotda ushraydigan juda ko'p muammolar mavjudki, bu tasviriy, badiiy muammolarni hal qilish ushun ranglarni qaysi erda qanday yo'sinda yo'nalishda ishlatilishini oldindan bilishi kerakdir.

Rang bilan ishlash uzoq muddatli ish tajribasiga bog'langandir, uni o'qituvshi tomonidan talabalarga misqolab beriladi, ammo bu misqol toshini ko'paytirish talabadagi qobiliyat darajasi – aql farosatga juda ham bog'liqdir. Bunday marom o'lshamini talabalarga berishda hesh qanday tarozida o'lshanmaydi, bunday tarozining o'zi yo'qdir, bu tashqaridan qidiriladigan narsa emas, u har bir rassom qalbiga joylashgan sezgidan, aql idrokidan, qobiliyat mahsulotidan paydo bo'ladigan tarozudir. Talabalarni o'qitish davrida ranglarni aniq ko'rinishlariga, buyumning rangini, atrofdagi buyum ranglaridan qay jihatdan farq qilishini his eta bilish kerakdir.



**Keys.** Mavzu asosida natura qo'yildi. Uni qog'oz yuzasiga joylashtirilganda xatolik yuz berdi. Amaliy ish jarayonida qanday qoidalarga e'tibor berilmagan.

**Keysni bajarish bosqchilari va topshiriqlar:**

- Keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni belgilang (individual va kichik guruhda).
- Topshiriqni to'g'ri bajarilishi uchun bajariladigan ishlar ketma-ketligini belgilang (juftliklardagi ish).

**Amaliy topshiriqlar**

Dekorativ naturmort etyudlari ishlash (3-5ta).



### Glossariy

**Asl rang** – tashqi muhit ta'sirlari hisobga olinmagan biror narsa yoki buyumning asosiy rangidir.

**Kontrast** - qarama-qarshilik, zidma-zidlik, ranglarning o'zaro qarama-qarshiligi. Bir rangning yonida ikkinchi rangning yanada yorqinroq, chiroyliroq ko'rinishi.

**Yorqinlik kontrasti** – yorug'lik qarama-qarshiliklari, rangning yorqinligi, unga yonma-yon turgan ranglar ta'sirida o'zgarishiga aytiladi.

### Test

**Bir-biridan rangi, tusi va xususiyati bilan keskin ajralib turuvchi bo'yoq xillari nima deb ataladi**

Iliq ranglar  
Sovuq ranglar  
Kontrast ranglar \*

**Ikki asosiy ranglarni qo'shish orqali hosil qilinadigan ranglar nima deb ataladi**

Birikma ranglar \*  
Sovuq ranglar  
Iliq ranglar

**Foydalanish uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar:**

1. Т. Qo'ziyev., А. Egamov., Т. Qanoatov., А. Nurqobilov. Rangtasvir. Т., "San'at", 2003.
2. Соибов Т.З, Гильманова Н., Слугин А.П, Бродина М.Р, Тё А.В, Чизматасвир, рангтасвир, хайкалтарошлик. Т., 2010
3. Баммес Г. Изображение фигуры человека. Берлин: Изд-во Фольк унд Виссен. 1984.
4. Барчаи Е. Анатомия для художников. Будапешт; Корвина, 1959.
5. "Drawing techniques" Peter Stenyer, 2013, Arcturus Publishing, London. The Complete Book of DRAWING TECHNIQUES a professional guide for the artist. Peter Stanyer. Arcturus Publishing England. 2013.
6. Sculpture: materials & process. Flora Street Dallas. 2011. Nasher Sculpture Center.org.

## **22-amaliy mashg'ulot**

### **Mavzu: Me'moriy manzara etyudlari ishlash**

Amaliy ish bajarish nazariy bilimlarga, turli xil rangtasvir masshtablarini, materiallarning texnologiyasi va texnikasini bilishga asoslanishi kerak. Mana shu tahlilda rang, tus, shaklning yagona uyg'unlikda bo'lishini his etib, qabul qilish tuyg'usi muntazam takomillashtirilib boriladi. Ayrim hollarda o'qituvchining ko'rsatmasi bilan mumtoz (klassik) rangtasvir asarlari namunalaridan nusxa ko'chiradilar. Bunday asarlardan nusxa ko'chirish tanlashda talabalarning tayyorgarlik darajasi va estetik didi inobatga olinadi.

O'quv etyudi ustida ishlash oldindan qoralama qilib olish va etyud chizishdan iborat. Qoralamaning (eskizning) vazifasi o'rganayotgan yoki qo'yilayotganning (postanovkaning) asosiy kompozitsion - rangtasvir yechimini aniqlash, shuningdek model kompozitsiyasi, mato yoki qog'ozning hajmi va shaklini belgilash .

Talaba etyud bajarishga kirishar ekan, avvalo qog'oz varag'iga (matoda) (postanovkaning) chizgisini bajaradi. Talaba o'qituvchi ma'qullaganidan so'ng, ishni bo'yoq bilan bajarishga kirishadi, umumiy munosabatlarni belgilaydi, keyin unsurlarni diqqat bilan o'rgana turib, ish oxirida albatta umumlashtirishi lozim buladi.

Talaba shakl ustida ishlay turib, uning rang va yorug'lik munosabatlarda rang-barangligini, naturaning aniq tasvirini berishga diqqat qilmog'i lozim.

O'qituvchidan o'quv qo'yilmasi (postanovka ) paytida quyidagilar talab qiladi :- Naturani e'tiborga loyiq xususiyatlari bo'lgan holda tanlash va qo'yish.

Qo'yilgan vazifaning rang-barangligi va belgilanishi (to'g'ri holda yorug'likda bo'lishi, yorug'likka teskari, rang zidliklari, munosabatlarning yaqinlashuvi, iliq va sovuq kolorit va hokazo):

Ritmik aniqlik va aniq kolorit bo'yicha vazifani mavjud bo'lishi:

Qo'yilmaning (postanovkaning) ma'no anglatishi jihatidan bo'lishi, uning tabiiy fe'l - atvori bo'lishi, ish materiali asosan akvarel hisoblanadi. O'qituvchi qo'shimcha materiallar sifatida akvarel, guash, tempera va boshqa hokazolarni kiritishi, ayniqsa qoralamalarini bajarishda asqotishi mumkin.

Manzara ustida ish boshlar ekansiz, tasvirga olmoqchi bo'lgan tabiatning o'sha qismi holatini yaqqol his qilmoq zarur. Manzaraga tushayotgan yorug'likning yorug'likning to'g'ri aks ettirilishi uni bir qadar jonlantirib, ta'sirchanligini oshiradi.

Manzarada fazoni idrok qilishning bu xususiyatlari bois, u planlar deb yurituvchi bo'laklarga ajratiladi. Odatda manzaraning uch planli belgilanadi, biroq u kompozitsiyaning tuzilishiga qarab bundan ko'proq yoki kamroq bo'lishi ham mumkin.

Ranglar birinchi planda eng to'q, ikkinchi planda ochroq rangga kirib, oqish tus oladi va uchinchi planda uzoqliklar havorangga aylana boradi. Havorang tumanli va bulutli paytlarida bu farqlar quyoshning charog'on paytiga nisbatan yanada sezilarliroq bo'ladi.

Tabiat o'zining boy rangi va poyonsiz tuslar bilan bizni lol qoldiradi. Bu

rang-barangliklar manzaraga xos xususiyatlarga ega bo'lgan rangga umumlashadi va koloritni belgilab beradi. Asar koloriti inson his-tuyg'ulariga zamin yaratib beradi.

Kolorit manzarada boshqa asarlariga nisbatan muhimroq ahamiyat kasb etib, kompozitsiyaning asosiy g'oyasini yoritib beruvchi omillardan biridir.

Me'morchilik va manzara, ularni alohida va o'zaro munosabatlari qanday? Agarda biz shaharni tasvirlamoqchi bo'lsak, bu erda muhim rolni tabiiy ravishda me'morchilik egallaydi. Tabiatni tasvirlashda esa, albatta manzara muhimdir. Lekin ular ikkita eng so'nggi nuqta hisoblanadi. Ularni orasi shunchalar yaqinki, ularni faqat rassom tartibga solib, nima muhimligini ajrata bilishi kerak. Bu mavzuga mos bo'lgan qanday asar turlari bizga ma'lum? Shahar ko'rinishi (me'moriy), ichlab chiqarish inshootlari (industrial), tarixiy (obidalar) va qishloq manzaralari.

“Nima chizish kerak va qanday?”. Tasviriy san'at zamirida ifoda etish, bilish jarayonida paydo bo'lgan hissiyot kuchi, hayajon yotadi. Rassomning ishi – bu tinmay ifodalash uchun kurashishdir. Biz yashab turgan tabiatni bir bo'lagimi, me'moriy manzara yoki tog' landshaft, o'rmon va dengiz ko'rinishlarimi bularning bari ifodalidir. Buni sezish va his qilish, tomoshabinga yetkaza bilish ijodkorning eng muhim vazifasidir.

Qanday qilib amaliyotda arxitekturaviy manzarani tasvirlash mumkin? Eng muhimi – ikkilanmay, fikrni jamlagan holda maqsad sari intilish kerak. Avvalo, tasvirlamoqchi bo'lgan atrof-muhitni kuzatishimiz va asta-sekin bino, uning ichki ko'rinishiga nazar tashlashimiz lozim bo'ladi. Chuqur nafas olib, uning devorlariga qo'llarimizni tekizib, uni his qilishimiz va borliq haqidagi tasavvurga ega bo'lishimizni kutamiz.

Keyingi safar esa, lavha va qoramalar ishlashimiz kerak bo'ladi. Boshlanishida umumlashtirilgan holatda, lekin, kompozitsiya qonun-qoidalarini asosida. Ma'lum aniqlikdagi formatdagi (kompozitsiya avvalo format tanlashdan boshlanadi: vertikal, gorizontal yoki kvadrat ko'rinishlarida) qog'ozga tasvirni joylashtirib olamiz. Asosiy qoidasiga amal qilamiz – nimadan qancha olamiz. Qancha osmon, qanchadir suv, er, inshootlar, yashil daraxtlar... Kompozitsiya - bu faqat dog'larning o'zaro uyg'unligi emas balki, to'q va yorqin bo'yoqlarning to'g'ri taqsimlanishi, ranglarni munosabati va kuchi, shakl va chiziqlarning ritmik harakati hamdir.

Tasvir to'laqonli bo'lishi uchun asta-sekin detallar ustida ishlaymiz. Rangtasvir etyudlarida ko'pincha mayda detallarni ishlashdan voz kechiladi, bu bejizga emas, chunki umumlashtirish jarayonida ikkinchi darajali detallarni olib tashlanadi.

Etyudga chiqar ekanmiz, biz u erda yangi shakl va dog'larning uyg'unligini ko'ramiz, taassurotga ega bo'lamiz. Bu hissiyot har safar har-xil yuz beradi, shuning uchun doimo qayta-qayta ortga boshqa nigoh bilan qarashimiz lozim. Chunki ilk taassurot har safar ham to'g'ri bo'lavermaydi va kutilgan natijani bermasligi mumkin. Chuning uchun olingan taassurotni lavha va qoralama ko'rinishida qog'ozimizga tushirib olishimiz kerak, balki bu holat qayta takrorlanmas. Bunday chizgilarni juda ko'p rangtasvir ustalari bajarishgan va ajoyib asarlar yaratishlariga zamin bo'lgan. Ko'pchilik rassomlar bunday manzaraga qayta duch kelmasligi yoki bunday hissiyot va taassurotdan ilhomlanib, bu takrorlanmas holatni o'z qog'ozlariga chizib olganlar.


Manzarachi rassomga borliqni xuddi o'shanday chizishni nima keragi bor?

O'ylab ko'rsak bu shart emasdek. Daraxt – inson emas-ku. Ko'chat novdasini past yoki balandligi, uning bo'yini uzun yoki qisqaligini nima ahamiyati bor. Bu to'xtam yumshoq qilib aytganda, noto'g'ri. Atrof-muhitga nisbatan ko'chat o'rnida bo'lmasa yoki uning tuzilishidagi siz kiritgan o'zgarishlar tabiiy taassurotni bera olmaydi. Shuning uchun iloji boricha borliqni o'z holida tasvirlangani ma'qul.

Yana etyudnikni olib rasm ishlagani boramiz. Yaxchi ko'rinadigan yerga joylashamiz. Misol uchun dala, kichkina me'moriy obida, ufq chizig'ida daraxtzor cheti. Me'moriy manzara. Bosh qahramon – manzara. Yangi qurilayotgan uylar ko'rinishi. Me'moriy binolar oddiy dog' ko'rinishini bermoqda.

Binoga yaqinroq boramiz. U asta-sekin ko'z oldimizda kattalashib boraveradi (perspektiva qonuniyatlariga muvofiq). Va nihoyat, nima muhim ekanligi, uni tanlash lahzalari yetib keldi. Manzara (tabiat) muhimmi yoki me'morliq obida, qay biri asosiy? Bu albatta rassomning sezgisi, his-tuyg'usiga bog'liq. Agarda biz osmonni ko'proq olsak, unda asardagi zaminda bino shakllari dog' ko'rinishida bo'ladi, va yana asosiy tasvir tabiat manzarasi, me'moriy ko'rinish esa to'ldiruvchi bo'lib, manzarada me'morlik ko'rinishi bo'lib qoladi.

Endi esa, binoga yaqinroq boramiz, nima uchun? Biror bir o'ziga xoslikni ko'rish uchunmi? Qani bu yerda manzara? Atrofdachi? Hanuzgacha osmon tabiatni holatini aniqlab, kunni qaysi payti va qanday ob-havo ekanligini aniqlab beryapti. Bu o'yinga yer ham qo'shilgan. Atrofdagi daraxtlar, suv va bizni o'rab turgan olamdagi narsalar manzara ko'rinishini tashkil etmoqda. Bularni faqatgina o'tkir nigohli rassomgina inobatga oladi.




Borliqdagi holatni, kayfiyatni beruvchi etyudlar. Bu etyudda yorug'likka qarama-qarshi holat tasvirlangan bo'lib, zamin va osmonning och va to'q dog'lari, chiziqlar plastikasi, arxitektura va tabiatni o'zaro garmonik uyg'unligini ochib bergan.







Ko'l ko'rinishi ishtirok etgan bu etyudda kechki holat muvafaqqiyatli topilgan. Kuchli yoritilgan arxitektura ko'rinishi to'yingan ranglar vositasida etyudni asosiy dog'ini belgilab bermoqda.



Bajarilgan bu etyud – tipik fragment usulida yechilgan. Qal'a minorasining murakkab konstruksiyasi yuzma-yuz turgan holda o'ylab, tahlil asosida ishlangan.



Ko'prik ko'rinishi ishtirok etgan bu syujetda, shahar ko'rinishi yengil shaffof olinishi va suvning vazmin, to'q ranglardagi ifodasi qarama-qarshi olinib, tomoshabinga qandaydir kuchli dramatik hissiyotni beradi.



Arxitektura detallarini o'rganish uchun berilgan bu topshiriqda ko'rish nuqtasi muvafaqqiyatli topilgan bo'lib, bu tarixiy obidani monumental kompozitsiya ko'rinishini bermoqda. Binoning oqish ranglardagi yoritilgan joylari tantanavorlik hissini uyg'otadi. Etyudning emotsionalligi arxitekturani perspektiva qonuniyatlari asosida chizilgan bosh shakllarini ustalik bilan gavdalantirilganligi va sinchkovlik bilan kuzatishimizga halal bermaydi. Manzaradagi mashtab o'lchamlarini odam qomati aniqlab bermoqda.



Bu manzarada xarakterli kolorit yechimlari kontrastlik nuqtai nazari orqali hal qilingan. Motiv mavzuli kompozitsiya asari uchun ishlangan etyudlarni eslatadi.



Avvalgi etyudda pastdan yuqorini kuzatilgan bo'lsa, bu shahar motivida uning aksi yuqoridan kuzatilgan. Bunday usullardan foydalanish ijodkorga syujetning dinamikasini, taassurotini, o'zining shaxsiy pozitsiyasi va mavzuga bo'lgan munosabatini ochib beradi.

**Keys.** Mavzu asosida natura qo'yildi. Uni qog'oz yuzasiga joylashtirilganda xatolik yuz berdi. Amaliy ish jarayonida qanday qoidalarga e'tibor berilmagan.

### **Keysni bajarish bosqichlari va topshiriqlar:**

- Keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni belgilang (individual va kichik guruhda).
- Topshiriqni to'g'ri bajarilishi uchun bajariladigan ishlar ketma-ketligini belgilang (juftliklardagi ish)

### **Amaliy topshiriqlar**

Me'moriy manzara etyudlari ishlash (3-5ta).



### **Glosariy**

**Akademizm** – (fr.akademisme so'zidan olingan) XVI-XIX asr Badiiy akademiylarida vujudga kelgan va mumtoz san'atning tashqi formalariga qat'iy ergashishga asoslangan yo'nalish. Akademizm badiiy ta'limotni tizimga solib, mumtoz an'analarni mustahkamlashga yordam beradi.

**Akvarel** - (fr.aquarelle, ital. Aquerello, lot.aqua-suv so'zidan olingan) suvbo'yoq (odatda o'simlik yelimidan tayyorlanadi).

**Ansambl** – binolarning badiiy shakl va uslub jihatidan bir-biriga uyg'un ko'rinishi.

**Antik san'at** – qadimgi degan ma'noni bildiradi. Taraqqiy etgan qadimgi Yunon, Rim san'ati nazarda tutiladi.

**Arxitektonika** – mutanosiblik.

**Axromatik rang** – yunonchada "rangsiz" degan ma'noni bildirib, ular bir-biridan qabul qiladigan yoki tarqatadigan yorug'lik kuchi bilan farq qiladi.

**Asosiy rang** – tabiatda uchraydigan sariq, qizil, ko'k ranglar. Shu ranglarning bir-biriga qo'shilishi natijasida boshqa ranglar hosil bo'ladi.

**Badiiylik** – borliqni, inson va uning hayotidagi voqealarni, kechinmalarini o'zaro o'xshatish, shakllantirish va rango-rang tasvirlash.

**Bo'yoq** – rassomlar va ayrim shaxslar tomonidan rangtasvir asarlari yaratishda va badiiy bezak ishlarida ishlatiladigan maxsus qorishma.

**Valyor** – rang tusi, rang ohangi degan ma'nolarni bildiradi.

**Grizayl** – (fransuzcha grisaille, gris-kulrang so'zidan olingan) birorta bir rangning (ko'pincha kulrang) turli xil tuslarida ishlangan dekorativ rangtasvir turi.

**Guash** – (fransuzcha gouache, italyanча guazzo-suv, bo'yoq) tarkibida suv elim bog'lovchisi bo'lgan ezilgan pigment (gummiarabik, bug'doy kraxmali, dekstrin va boshqalar.) va belila aralashmasidan iborat bo'lgan, suv bilan ishlanadigan bo'yoqlar.

**Detallachtirich** – batafsil, ikir-chikirlarigacha ishlash.

**Iliq ranglar** – olovni, quyoshni eslatuvchi qizil, sariq, zarg'aldoq kabi ranglar.

**Interer** – (fransuzcha interier-ichki)

1) me'morlikda-binoning, inshootning ichki qismi;

2) rangtasvirda- janr turi.

**Kontrast** – ko'zga tashlanadigan qarama-qarchilik, keskin farq ( bundan ranglar, shakllar, ko'rinishlar va hokazo orqali foydalaniladi).

**Kontur** – (fransuzcha-contour) predmetning tashqi ko'rinishi. Predmetning tasvirini ishlashda qo'llaniladigan zirh chiziq.

**Me'moriy bezak** – binolarning darvoza, eshik, derazalari tepasiga rangtasvir va haykaltaroshlik vositalariga uyg'un bezak. Yevropada bino egasining nasl-nasabi, kasb-korini ko'rsatuvchi gerb, tang'a kabi tasvir yoki naqsh.

**Monoxromiya** – (yunoncha monos-bir va chroma-rang, bir xil ranglilik) birorta rangning bir yoki bir necha tuslarini qo'llashga asoslangan san'at asaridagi koloristik yechim ko'rinishi.

**Natura** – (lot.natura-tabiat) tasviriy san'atda rassom tasvirleydigan borliqdagi ob'ekt(inson, predmetlar, manzara va hokazo).

**Perspektiva** – (lot.persipisio-aniq ko'rayapman so'zidan olingan). Rangtasvirda borliqni ishonarli tasvirlashga yordam beradigan qonun-qoidalar tizimi. Bu tizimni XV asr Italiya rassomlaridan Paole Uchello, P'ero Francheskolar ixtiro qilishgan.

Mazkur qonun-qoidalarga binoan, tasvirlanayotgan manzara yoki narsaning ko'rinishi, uzoq-yaqinligiga qarab uning o'lchami, shakli, rangi va boshqa sifatlarini ishonarli ifodalash mumkin.

**Peyzaj** – manzara.

**Pigment** – turli bo'yoqlar kukuni.

**Plener** – (fransuzcha plein air – ochiq havo) kartinada quyosh yorug'ligi va atrofdagi muhitning ta'siri bilan bog'liq bo'lgan ranglar tuslanishini anglatuvchi termin. Bu turdagi rangtasvir ochiq havoda ishlanadi.

**Podramnik** – chorcho'p, rasm ishlanadigan matoni tortib turadigan qurilma.

**Polotno** – bo'z matoga ishlangan rangtasvir asari.

**Realizm** – (lot. Realis-moddiy, haqiqiy legan ma'noni anglatadi) san'atda borliqning haqqoniy, ob'ektiv qilib aks ettirish.

**Siluet** – XVIII asr fransuz davlat arbobi E de Siluet nomi bilan bog'liq. Tasviriy san'atda grafik texnika usullaridan biri, figura va predmetlarning tekis va bir xil rangda soyaga o'xshatib ishlangan tasviri. Siluet qog'ozdan kesib ishlanishi ham

mumkin. Bu usul qadimiy Xitoy, Yaponiya va Osiyoning bochqa davlatlarida, keyinchalik, XVIII asrdan bochlab Yevropa mamlakatlarida rivojlangan.

**Sovuq rang** – qishni, sovuq havoni eslatuvchi ko'k, zangori, yachil, binafsha va hokazo kabi ranglar.

**Soya** – narsalarning yorug'lik tushmaydigan qismidagi ko'rinishi.

**Uyg'onish davri** – XIV-XV asr Yevropa tasviriy san'ati rivojidadagi davr, jahon san'ati va madaniyati sivilizatsiyasiga katta ta'sir ko'rsatgan.

**Xolst** – rangtasvir uchun maxsus tayyorlangan mato.

**Ekspressivlik** – san'atda ta'sirchanlik, jozibalik.

**Etyud** – fransuzcha “o'rganish” degan so'zdan olingan. Yirik bo'lajak asarlarni ishlash uchun bevosita naturadan, hayotdan ishlanadigan kichik lavha, xomaki surat.

**Etyudnik** – etyud ichlashga, mo'yqalam, bo'yoqlar va cshu kabi narsalarni joylab qo'yishga moslashtirilgan ko'chma dastgoh.

## Test

**Bir-biridan rangi, tusi va xususiyati bilan keskin ajralib turuvchi bo'yoq xillari nima deb ataladi**

Iliq ranglar  
Sovuq ranglar  
Kontrast ranglar \*

**Ikki asosiy ranglarni qo'shish orqali hosil qilinadigan ranglar nima deb ataladi**

Birikma ranglar \*  
Sovuq ranglar  
Iliq ranglar

## Foydalanish uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Соибов Т.З, Гильманова Н., Слугин А.П, Бродина М.Р, Тё А.В, Чизматасвир, рангтасвир, хайкалтарошлик. Т., 2010
2. Баммес Г. Изображение фигуры человека. Берлин: Изд-во Фольк унд Виссен. 1984.
3. Барчаи Е. Анатомия для художников. Будапешт; Корвина, 1959.
4. “Drawing techniques” Peter Stenyer, 2013, Arcturus Publishing, London. The Complete Book of DRAWING TECHNIQUES a professional guide for the artist. Peter Stanyer. Arcturus Publishing England. 2013.
5. Sculpture: materials & process. Flora Street Dallas. 2011. Nasher Sculpture Center.org.


## 23-amaliy mashg'ulot

### Mavzu: Haykaltaroshlikning xom ashyolari va anjomlari

Haykaltaroshlik mashg'ulotlarida ishlatiladigan xom ashyolar: Haykaltaroshlik mashg'ulotlarida asosan ikki turdagi Yumshoq va qattiq materiallardan foydalaniladi. Yumshoq materiallarga loy, plastilin, vosk (mum) kabi materiallar; qattiq materiallarga yog'och, marmar, granit, bronza, chugun, mis va boshqa turdagi materiallar kiradi.

Loy. Loy bu haykaltaroshlikning fikru xayoliga kel-gan asarni yaratish uchun ishlatiladigan asosiy va eng qulay material hisoblanadi. Haykaltaroshlikda ishlatiladigan Yumshoq material hisoblanib, u yog'li hamda kerakli daraja-da Yumshoq egiluvchan, ixtiyoriy hajmdagi shaklga ishlov berganda va qurigan holda ham o'z hajmini sezilarli o'zgartirmaydigan material hisoblanadi. Ayniqsa, yog' miqdori ko'proq bo'lgan loy uzoq muddatda o'z namligini saqlab tura oladi. Bunda tuproqlar asosan Angren, Qashqadaryo, Surxondaryo tog' yon bag'rlarida, botqoqliklarida, Samarqandning Cho'pon-ota tepaliklarida tabiiy holda uchraydi.

Loy ishlatish uchun quyidagicha tayyorlanadi: qurtilgan loy massasi 2-3 sm bo'lgan bo'laklarga maydalanadi. Maydalangan loy bo'laklarini maxsus idishga (yarim kesilgan bochka yoki vannaga) solib, ko'milguncha suv solinadi. Ikki-uch kundan keyin yaxshilab aralashtiriladi. Loy aralashtirilib bo'lgach, kerakli qismini olib maxsus taxtachalar ustiga qo'yib, kerakli qovushqoqlikka etguncha ishlov beriladi. Tayyorlangan loyni ishlatish uchun qulay holga keltirib, uning ustini nam latta va qurib qolmasligi uchun tselofan plyonka bilan o'rab qo'yiladi.



Loy uchun ishlatiladigan Temir bolg'a to'qmoqlar

Plastilin. Plastilin haykaltaroshlikda ishlatiladigan sun'iy usulda tayyorlangan plastik massa bo'lib, uning loydan afzalroq tomoni shundan iboratki, u qurib qolmaydi va doimo o'zining plastik holatini saqlab tura-di. Uning noqulay tomoni ham mavjud bo'lib, sovuqda qattiqlashib, o'ta issiq joyda esa erib, oqib ketishi mumkin. Uning tarkibida yog', vazelin va vosk bo'lgani sababli, toza kiyimni iflos qilmasligi uchun plastilin bilan ishlagandan keyin albatta qo'lni soda poroshogi, sovun bilan iliq suvda Yuvish yoki namlangan latta bilan artish tavsiya etiladi.

Loy, vosk, yog', vazelin va kulrang poroshok aralashmasidan tayyorlanadi va quyidagi miqdorda qo'shiladi:


un holatiga keltirilgan tuproq – 1522 g;

mol yoki cho'chqa yog'i – 10 g;




vosk – 20 g;  
texnik vazelin – 10 g;  
kulrang poroshok – 122 g.

Plastilin tayyorlash uchun vosk bilan mol yoki cho'chqa yog'i yaxshilab aralastiriladi, unga vazelin, tuproq, kulrang kukun qo'shiladi va hammasi bir holga kelguncha aralastiriladi. Tayyorlangan massa to'rtburchak holiga keltiriladi va xohlagan vaznda kesib ishlatiladi.



Gips tabiatda oq rangli rangsiz yoxud temir okis rangida gipsli tosh ko'rinishida uchrab turadi. Kimyoviy toza gips tarkibida 22% suv bo'ladi. Gipsli toshni 120o dan 180o gacha qizdirganda gips o'z tarkibidagi 75% kristallangan suvni yo'qotadi. Qizdirilgan va yanchib elangan gips suv qo'yilgan plastik idishga solinadi va yaxshilab aralastiriladi. Gipsning eng muhim xossalardan biri suv bilan birikib suyuq oquvchanlik holatidan sekin-asta, bir me'yor-da qotib borib, qattiq massaga aylanishi hamda oquvchanlik muddatining davomiyligidadir. Gipsning to'la qotish muddati o'rtacha 20 minutni tashkil etadi. Gips asosan qolipga olish va qo'yish ishlarida ishlatiladi.



Rezina plastinka va kovsh

Yog'och. Tosh va marmardan ishlangan haykaltaroshlik ishlariga nisbatan yog'ochda turli xildagi harakatlarni ifoda etish anchagina qulaydir. Chunki yog'ochning zichligi, mustahkamligi, engilligi sababli tosh va marmarga nisbatan unga ishlov berish qulaydir.



Yog'och uchun ishlatiladigan qurollar

Yog'och bu har xil murakkab harakatlarda bo'lgan kompozitsiyalarni ishlashda imkoniyat yaratadi. Shu bilan birga yog'ochdan ishlangan asarlar tashqi muhit ta'sirida, namlikda hamda turli xildagi zarakunandalarning emirilishi natija-sida o'z xususiyatini yo'qotishini hisobga olib, ularni yopiq binolar ichida va chirishga qarshi ishlov berilgan holda saqlash maqsadga muvofiqdir. Haykaltaroshlikda asosan yog'ochning dub, yong'oq, o'rik, chi-nor, qayrag'och, tut kabi turlaridan foydalaniladi.



«Nur Ota». YOg'och



«Ibn Sino». YOg'och




«CHO'pon Ota». YOg'och

(o'rik) 1982 y. (dub). 1985 y. (dub). 1979 y.

Marmar. Haykaltaroshlikda ishlatiladigan materiallar ichida marmarda murakkab harakatlarni ifodalash, turli noqulayliklarni keltirib chiqaradi. Shu sababli marmardan ijodiy kompozitsiyalar yaratishda uning xusu-siyatini hisobga olib, tinch turgan o'ta murakkab harakatda bo'lmagan yoki guruh holida bir-biriga yopishgan holatdagi ijodiy ishlarini yaratilishi yaxshi natija beradi. Shu bo'is, haykaltaroshlik san'ati amaliyotida ijodkorlar mar-mardan ko'proq portret, bYust ishlashda foydalanishadi. Ta-biatda marmarning turli xildagi mayda va yirik donali rang-barang turlari uchrab turadi.

O'zbekiston sharoitida marmarni G'azalkent, Nurota, G'ozg'on ochiq konlaridan xarsang toshlar ko'rinishida har xil rangdagi turlari qazib olinadi, hamda ularga maxsus ishlov berilgandan so'ng qurilish va boshqa sohalarda keng ko'lamda foydalaniladi



Modeldan qattiq materialga nuqtalar ko'chirish.



Tosh yo'nish qurollari G'ozg'on toshtaroshlarining asboblari

Haykaltaroshlikda qo'llaniladigan materiallarning granit, sienit, diorit, tuf, bazalt kabi tosh turlari mavjud bo'lib, ular katta-katta kristallar shaklida va kvartslardan tashkil topgan. Granitning tarkibida 25%-30% gacha kvarts bo'lsa, seonitda kvarts deyarli yo'q bo'ladi. Granitning qora turi (SHved graniti) ham mavjud. Haykaltaroshlikda granitning mayda donali turlari keng ko'lamda ishlatiladi.

Haykaltaroshlikda ishlatiladigan metallar ham juda xilma-xildir. Ularning eng ko'p qo'llaniladigani bronza bo'lib, ushbu materialdan haykaltaroshlikda asosan katta yodgorliklarni yaratishda foydalaniladi, ayrim hollarda binolarning old ko'rinishlarini badiiy bezash maqsadida ham qo'llaniladi. Haykaltaroshlikda qo'llaniladigan bronza, cho'yan, po'lat, mis, alYuminiy, qo'rg'oshin va boshqa ashyolarning afzalligi shundaki, ushbu metallarda yaratilgan asarlarning chidamliligi, o'ziga xos rangi, mustahkamligi hamda haykaltaroshlikning mahobatli yoki dastgohli turiga mansub bo'lishidan qat'iy nazar saqlanish muddatining uzoqligi uchun ham barcha ijodkorlar ushbu materiallardan ijodiy ishlar yaratishni orzu qiladilar. Haykaltaroshlik mashg'ulotlari o'tkaziladigan xonani jihozlari va asbob-uskunalar

Haykaltaroshlik mashg'ulotlarining asosiy maqsadi – san'at vositasida o'quvchilarning badiiy madaniyati va estetik didini tarkib toptirish, ularning san'atga bo'lgan muhabbatini oshirishdan iboratdir.

SHuningdek, bu mashg'ulotda o'quvchilarning turli asbob-uskunalar bilan ishlan hamda turli xildagi materiallar-dan o'rinli foydalanish bilan malakasini shakllantirish, olingan nazariy bilim va ko'nikmalarini amaliyotga tadbiiq eta olish kabi sifatlarni tarbiyalash nazarda tutiladi.

Haykaltaroshlik mashg'ulotlari haykaltaroshlikka mos-lashtirilgan maxsus xonalarda o'tkaziladi.

Xonaning hajmi 30x40 m bo'lib, tabiiy miqdorda yori-tilgan bo'lishi zarur. Mashg'ulot davomida va keyinchalik ishlatiladigan materiallar - loy, plastilin, shamot, gips va boshqalarni saqlash uchun maxsus idish, qo'shimcha xona yoki erto'la talab etiladi. Mashg'ulotlar o'tkaziladigan xo-nadagi elektr yoritgichlarning nuri ish bajarayotgan o'quvchilarning orqa tomonidan 45o burchak ostida tushishi lozim. Xonadagi loyni muntazam ishlatish uchun vannada yoki maxsus idishda nam holatda ustini tsellofan plyonka bilan o'ralgan holda saqlash maqsadga muvofiq.

O'quvchilarning ishlari deyarli kichik hajmda loy yoki plastilindan ishlanishini hisobga olib, ishlarni shkafda yoki stellajlarda saqlash mumkin.


Haykaltaroshlik dastgohlari turli o'lchamlarda yog'ochdan qo'lda tayyorlanishi yoki zavodda tayyorlangan dastgohlar bo'lishi mumkin. Ish jarayonida ishlanayotgan ob'ekt bilan dastgohdagi ish talabalarning ko'z sathi bilan bir xil ba-landlikda bo'lishi zarur. Shuning uchun bu dastgohlarda baland pastligini o'zgartirish mumkin bo'lgan maxsus mosla-ma bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Yog'ochdan tayyorlangan dastgohlar loy bilan ishlanganda namlikdan chirishiningoldini olish uchun namlik o'tkazmaydigan plastiklar ishla-tish lozim.




Zavodda tayyorlangan dastgoh Plastilindan yoki loydan ishlanadigan ishlarning balandligi 10-15 sm dan oshadigan bo'lsa, ularning ichiga sim yoki temirdan yasalgan —karkaslar o'rnatiladi. Bu karkaslar yasalayotgan haykalchani yoki uning muayyan qismini ma'lum bir harakatda muvozanat nuqtasidan og'ma holatda tasvir-lash imkonini beradi. Masalan, odam boshini loydan ish-lash uchun o'rnatilgan sterjenga (tik holatda) qalinligi 2-3 sm bo'lgan taxtachalardan —krestiklar yasab, plyus shaklida simga bog'lab sterjen yog'ochga osish lozim.



Eskiz uchun karkas Odam bosh qismi uchun karkas



Odam gavdasini to'la ishlash uchun agarda ishlanayotgan haykal 20 smdan ortiq bo'lsa, uning bo'shliqda joylashish o'lchamlari hisobga olib, simdan gavdaning nisbatlari hisobga olinib uning sxematik karkasi tayyorlab olinadi. Avval —G- harfini eslatuvchi temir ushlagich (glagol) tayyorlanadi. Temir ushlagichning pastki tomoni dumaloq yoki uchburchak shaklida bo'lib, u oldindan tayyorlangan taxtachaga mahkamlanadi. Yumshoq simdan tayyorlangan odam gavdasi karkasini yasalgan temir ushlatgich —glagolga mahkamlab qotiriladi. Odam gavdasi karkasi faqat —G simon ushla-gichga mahkamlanganligi, Yumshoq simdan tayyorlanganligi uni istalgan holatga keltirish imkoniyatini beradi.



Odam qomati uchun karkas

Haykaltaroshlik mashg'ulotlarida plastilin, loy va sha-motdan haykallar yasash uchun qattiq yog'och va simdan tayyorlangan steklar ishlatiladi. Ulardan ortiqcha loyni

qirgib olish hamda kichik va nozik joylarini ishlov berishda foydalaniladi. Tayyorlangan steklarga loy va plastilin yopishib qolmasligi uchun avvalo ular jilvirlanadi, keyin esa olif yoki o'simlik moyi bilan yaxshilab to'ydiriladi.

Mashg'ulotlar jarayonida talabalar ko'proq steklar bilan emas, qo'l barmoqlari bilan ishlashga, o'rganishlari lozim, chunki qo'l bu faoliyatda asosiy vazifani bajaradi va tala-balarda hajm, harakatini his etish, uni tasvirly olish malakalarini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Mashg'ulotlarda ishlatiladigan badiiy materiallar, asbob-uskunalar, qalam va qog'ozlarning xonada saqlanishi o'quvchilarning mashg'ulotlarga muntazam qatnashib borishi va doimiy tayyor holda bo'lishini ta'minlaydi.



Yog'och steklar va ilgakli steklar

**Keys.** Mavzu asosida natura qo'yildi. Uni qog'oz yuzasiga joylashtirilganda xatolik yuz berdi. Amaliy ish jarayonida qanday qoidalarga e'tibor berilmagan.

**Keysni bajarish bosqchilari va topshiriqlar:**

- Keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni belgilang (individual va kichik guruhda).
- Topshiriqni to'g'ri bajarilishi uchun bajariladigan ishlar ketma-ketligini belgilang (juftliklardagi ish)

**Amaliy topshiriqlar**

Loy yoki plastilndan meva va sabzavotlar ko'rinishlarini ishlash

**Glossariy**

**Karkas** – qobirg'a.

**Lepka** – yopishtirmoq, yasash.

**Proportsiya** - naturadagi buyum va predmetlarning o'zaro nisbatlari, mutanosiblik.

**Otlivka** – quyma.

**Test**

**Tasviriy san'atning qaysi turida asar uch o'lchamli ko'rinishga ega bo'ladi**

- a) Rangtasvirda
- b) Haykaltaroshlikda
- c) Grafikada
- d) Qalamtasvirda

**Haykaltaroshlik materialini belgilang**

- 1. loy, plastilin, gips
- 2. tosh, yog'och, marmar
- 3. granit, metal, sement
- d) barcha javoblar to'g'ri

**Haykaltaroshlik pichog'i**

- b. Stek
- c. Skalpel
- d. lepka
- e. plast

**Jism va jussalar mutanosibligiga qanday erishiladi**

- a) ko'proq ishlsh orqali



- b) qoramalar qilib olish orqali
- c) o'lchamlar nisbati orqali
- d) chizilgan narsani qayta-qayta o'lchash orqali


**Foydalanish uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar:**

1. Соибов Т.З, Гильманова Н., Слугин А.П, Бродина М.Р, Тё А.В, Чизматасвир, рангтасвир, хайкалтарошлик. Т., 2010
2. Баммес Г. Изображение фигуры человека. Берлин: Изд-во Фольк унд Виссен. 1984.
3. Барчай Е. Анатомия для художников. Будапешт; Корвина, 1959.
4. "Drawing techniques" Peter Stenyer, 2013, Arcturus Publishing, London. The Complete Book of DRAWING TECHNIQUES a professional guide for the artist. Peter Stanyer. Arcturus Publishing England. 2013.
5. Sculpture: materials & process. Flora Street Dallas. 2011. Nasher Sculpture Center.org.
6. Esonov T. Haykaltaroshlik. O'quv qo'llanma. SamDAQI 2011.

## 24-amaliy mashg'ulot

### Mavzu: ME'MORIY QISM: SODDA GIPS ROZETKASI MODELIGA QARAB ISHLASH

Ushbu mashg'ulotga kirishdan avval talabalar mustaqil ravishda 54x36 sm o'lchamli yog'och taxtachalardan planshet tayyorlab kelishadi. Tayyorlangan —planshet (taxtacha)ni temir ramka ichiga o'rnatib, haykaltaroshlik dastgohi ustiga tik holatda mahkamlanadi. O'rnatilgan taxtachaning (planshet) markazi ufq chizig'ida bo'lishi kerak. Natura sifatida qo'yilgan gips rozetkasi ham xuddi shunday holatda o'rnatilishi kerak. Ishlanayotgan gips modelining rele-fi (qavariqligi) balandroq bo'lsa, taxtachaning o'sha joyiga mix qoqib, mayda reykachadan (2-3 smlik) kesib pLYus (+) shaklida yasaladi va Yumshoq sim bilan bog'lab, qoqilgan mixga osib qo'yiladi.



Planshetni dastgohga o'rnatish

Mashg'ulotga ajratilgan to'rt soat muddatning birinchi 30-35 minuti yog'och taxtacha ustini loy bilan to'ldirib, umumiy fon bilan yaratishga ajratiladi. Loy yopishtirilgan fon yog'och taxtaning to'la Yuzasi bo'yicha bir xil qalinlikda qoplashi va tekislangan bo'lishi shart.



Yuqorida aytib o'tilgan tayyorgarlik ishlari bajarib bo'lingandan keyin gips modeldagi gulli naqsh yoki tasvir yog'ochdan tayyorlangan stek uchi yoki qalam bilan tayyorlangan fonga chiziladi. Chizilgan tasvir to'g'riligini tekshirib ko'rib bo'lgach, keyingi bosqichdagi ishlarni bajarishga kirishiladi.

Mashg'ulotning birinchi juftligi yakunlangach, o'quvchilar o'zlari bajargan ishlarini polietilen bilan havo kirmay-digan qilib yopishlari kerak bo'ladi.


Mashg'ulotning ikkinchi juftligi davomida bajarilayotgan relefnining katta-kichik hajmli shakllarining o'zaro nisbatlari, plastik bog'lanishini, qismlarning bir-biriga nisbatan bo'rtib chiqqanligi yoki botiqligi, ularning o'lchamlarini yana qaytadan tekshirib ko'rib bo'lgach, Yuzalarga hamda mayda qismlarga ishlov beriladi va ish umumlash-tirib yakunlanadi. Mashg'ulot uchun juda qisqa muddat ajratilgani sababli uni to'g'ri tashkil etish, har bir bosqich uchun to'g'ri ko'rsatmalar berib vaqtdan unumli foydalanish kerak.



Eskiz yumshoq material



Gulli rozetkalar



Gulli rozetkani bajarish etaplari

Mashg'ulot yakunlangach, talabalar tomonidan bajarilgan ishlarning ko'rgazmasi tashkil etilib, har bir talabala-ning Yutuq va kamchiliklari tahlil qilinadi hamda reyting tizimi asosida baholanadi. Bunday tizimda mashg'ulotni o'tkazish va yakunlash ularning ijodiy faoliyatini oshira-di, bajargan ishlarga nisbatan shaxsiy mulohazalarni bayon etish malakalarini tarbiyalaydi.

**Keys.** Mavzu asosida natura qo'yildi. Uni qog'oz yuzasiga joylashtirilganda xatolik yuz berdi. Amaliy ish jarayonida qanday qoidalarga e'tibor berilmagan.

**Keysni bajarish bosqichlari va topshiriqlar:**

- Keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni belgilang (individual va kichik guruhda).
- Topshiriqni to'g'ri bajarilishi uchun bajariladigan ishlar ketma-ketligini belgilang (juftliklardagi ish)

**Amaliy topshiriqlar**

Loy yoki plastilindan sodda tabiat elementlari(turli o'simlik va barglar) relefini ishlash.

**Glossariy**

**Patinirovka** – pardoqlash, tus berish.

**Plast** – qatlam.

**Plastichnost** - qashishqoqlik.

**Skalpel** – jarrohlik pichog'i

**Test**

**Yopishtirmoq, yasamoq**

- f. model
- g. lepka
- h. karkas
- i. otlivka

**Dumaloq haykallar deganda nimani tushunasiz**

- a) uch o'lchamli: hamma tomondan ko'rish mumkin
- j. Monumental ko'rinishga ega bo'lgan
- k. Bo'rttirib ishlangan tasvirlar
- l. Qabariq yuzali haykaltaroshlik asarlari

**Relefli haykaltaroshlik asarlari**

- a) uch o'lchamli: hamma tomondan ko'rish mumkin
- b) Monumental ko'rinishga ega bo'lgan
- c) Bo'rttirib ishlangan tasvirlar
- d) Qabariq yuzali haykaltaroshlik asarlari

**Monumental deganda nimani tushunasiz**

- a) ko'proq ishlash orqali
- b) qoramalar qilib olish orqali
- c) o'lchamlar nisbati orqali

d) chizilgan narsani qayta-qayta o'lchash orqali

**Foydalanish uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar:**

1. Соибов Т.З, Гильманова Н., Слугин А.П, Бродина М.Р, Тё А.В, Чизматасвир, рангтасвир, хайкалтарошлик. Т., 2010
2. Баммес Г. Изображение фигуры человека. Берлин: Изд-во Фольк унд Виссен. 1984.
3. Барчаи Е. Анатомия для художников. Будапешт; Корвина, 1959.
4. "Drawing techniques" Peter Stenyer, 2013, Arcturus Publishing, London. The Complete Book of DRAWING TECHNIQUES a professional guide for the artist. Peter Stanyer. Arcturus Publishing England. 2013.
5. Sculpture: materials & process. Flora Street Dallas. 2011. Nasher Sculpture Center.org.
6. Esonov T. Haykaltaroshlik. O'quv qo'llanma. SamDAQI 2011.

## 25-amaliy mashg'ulot


### **Mavzu: ODAM YUZ BO'LAKLARINI GIPS MODELIGA QARAB ISHLASH (OG'IZ, BURUN, KO'Z, QULOQ)**

Og'iz (birinchi model). Og'iz teshigi Yuqori va pastki lablar bilan cheklangan bo'lib, gorizonta joylashgan sim-metrik bukik yoriqdan iborat.

Og'iz shakli Yuqori va pastki jag'lar shakliga ko'ra bir-biriga bog'liq. Og'iz shakli jag'larning umumiy shakli bi-lan birgalikda tuziladi.

Yuqori va pastki lab har xil shaklda bo'ladi. Yuqori labning o'rtasida pastga tushib turadigan do'mboqchasi bor. SHu do'mboqchada labning erkin uchi ikkala tomonga qarab oldin sal Yuqoriga, keyin pastga, og'iz burchaklari tomon boradi.





Yuqori labning o'rtasida burun to'sig'ida pastga tik holda vertikal egatchasi tushib keladi, filtr deb shunga aytiladi.

Pastki labning o'rtasida Yuqori labning do'mboq-chasiga mos keladigan chuqurchasi bo'ladi. SHu chuqur-chaning ikkala tomonida lab chetlari sal ko'tarilib turadi, so'ngra og'iz bur-chaklariga tomon tushib bo-radi, shu bilan birga lab jiyagi asta-sekin torayib boradi.

Og'iz tuzilishini loydan ishlash jarayonida og'iz kesmasi chizig'i Yuqori va pastki lab shakllarini to'g'ri topish natijasida aniqlab olinadi. Yuqori lab odatda pastki lab ustida sal ko'tarilib turadi.

Bajariladigan vazifani anatomik tuzilishini o'rganib chiqqandan keyin taxtachaga modeldagidek hajmli qilib loy bo'lagi yopishtiriladi va unga lab-larni ikkiga ajratuvchi gorizontal chiziq chiziladi. Labning eng baland joyi (do'mboqcha)ni topib bo'lgach o'rtasida vertikal chiziq chizamiz. Simmetriyani yo'qotmaslik uchun umumiy hajmli qismlarga loy qo'yib bo'lgach, endi ularni har xil tomondan – pastdan, yuqoridan, yon ko'rinishlaridan modelga solishti-rib, taqqoslanadi.

Ishlanayotgan modelimiz chuqur va do'ngliklardan iborat bo'lgani uchun har xil formadagi soya yorug'liklar hosil bo'ladi. Bu qilingan kamchilik va xatolarni tekshirib tuza tishga yaxshi imkoniyat beradi. Haykaltaroshlik mashg'ulotlari jarayonida asosan qo'l barmoqlari bilan ishlashga o'rganish talab etiladi. YOg'och steklardan esa qo'l bilan ishlanishi qiyin bo'lgan joylarga foydalaniladi.

**Burun (ikkinchi model).** —Burun burun bo'shlig'i ustida ko'tarilib turadi. Yuqori qismi peshonadan qanshar bilan tutashgan burun ildizi, pastki qismi burun uchi, o'rta chiziq bo'ylab tutashadigan va burun qirrasini tashkil qiladigan yon tomonlari farq qiladi. YOn devori pastki tomonida ken-gayib burun qanotiga aylanadi.





Burun qanoti burun teshigini chegaralab turadi: o'ng va chap burun teshiklari tog'ay to'siq bilan bir-biridan ajra-ladi. Burunning suyak asosini ikki yon tomonidan Yuqori jag' suyaklari, yuqori tomonidan esa burun suyaklari hosil qiladi; burun to'sig'ining ichkarisida ham suyak asos bor. Burunning oldingi qismida tog'ay asosi bor. Burun muskullari burunning qirrasiga egarga o'xshab yotadigan umu-miy nayi bor. Bu muskullar ikkala tomondan pastga tushib keladi va burun yon yuzasining terisiga tutashib ketadi. Mana shu ikkala muskul qisqarar ekan, burun terisida uzu-nasiga ketgan burmalar hosil qilib, burun qanotlarini yuqori ko'taradi. Burun to'sig'ini pastga tushiruvchi muskul o'z jufti bilan yonma-yon yotib, o'rtadagi kurak tish ustida yuqori jag'ning alveolar o'simtasidan boshlanadi va yuqoriga tomon borib, burun to'sig'iga tushib ketadi. Bu muskullar burun to'sig'ini pastga tortadi va Yuqori labning o'rtasini pastga tushirib, lablarni qisishga yordam beradi.

Burun va uning anatomik tuzilishi haqida ma'lum tu-shunchaga ega bo'lgandan keyin avvalgi mashg'ulotlardagidek, yog'och taxtachani dastgoh ustiga tik holda o'rnatib, amaliy ishga tayyorlab olinadi. Ishning mustahkamligini ta'min-lash va qo'yiladigan loy bo'laklarining tushib ketmasligi uchun qo'shimcha kichik o'lchamdagi (+) pYus shaklidagi loy ushlatgichlar taxtaga osib chiqiladi. Tayyorlangan Yuzaga bu-runni hajmi shakli asosida kerakli loy yopishtirilib bo'lgach, tsirkul yordamida modeldagi burunning uzunligi-ni, enini o'lchab loydagi ishga solishtiriladi.

Mashg'ulot uchun ajratilgan muddat tugagach ishni yakun-lab, har doimgidek guruh talabalarining bajargan ishla-rini kichik ko'rgazmasi o'tkazilib, ularning Yutuq va kamchi-liklari tahlil qilinadi hamda reyting tizimi asosida baholanadi.

Ko'z (uchinchi model). Ushbu mavzu asosidagi amaliy topshiriqni bajarishga kirishishdan oldin, har galgidek ko'z va uning anatomik tuzilishi bilan tanishib chiqiladi.

Ko'z - ko'ruv organi: ko'ruv nervlari bilan birgalikda ko'z kosasida yotadigan ko'z olmasida, uni oldingi tomondan himoya qiladigan ko'z qovoqlaridan, ko'z olmasini harakatga keltiradigan ko'z muskullari va yosh apparatidan iborat.






Ko'zni harakatlantiruvchi asosiy organi – bu uning atrofidagi muskullardir. Ko'z olmasini harakatlantiruvchi muskullar ko'z olmasiga turli tomondan kelib birikadi va shu yo'l bilan uning har tomonga qarab harakatlanishiga imkoniyat beradi.

Amaliy mashg'ulotga kirishish oldidan ko'zning anatomik tuzilishiga oid nazariy ma'lumotlarni o'zlashtirish, unda ko'rgazmali materiallardan samarali foydalanish maqsadga muvofiq. SHundan keyingina ko'zni amalda bajarishga kirishish mumkin.

Ko'zni ishlashda uning qovoqlar bilan birgalikda ko'z kosasi chetlari orasidan chiqib turadigan sharsimon tana

hosil qilishni esda tutish muhim. Ko'zlar ko'pincha unchalik simmetrik bo'lmaydi, hamisha ham bir xil balandlikda yotavermaydi. Haykal tarosh tomonidan yaratilayotgan o'xshashligi uning o'ng va chap tomonining asimmetriyasini, asosan ko'z va qosh asimmetriyasini payqab olganligiga ko'p darajada bog'liq bo'ladi.

**Quloq (to'rtinchi model).** Har galgidek quloq mode- lini asliga qarab loydan uning andozasini ishlashga ki-rishishdan avval, quloq va uning anatomik tuzilishini o'rganib chiqiladi.



Plastik anatomiyada eshituvchi organning faqat tashqi qismi – quloq suprasi o'rganiladi. Quloq teri bilan qoplangan quloq tog' ayidan hosil bo'lgan. Quloq tog' ayi torayib borib, chakka suyagining tashqi eshituv yo'lining ichkarisiga kirib ketgan tog' aydan iborat kamar eshi-tuv yo'lini hosil qiladi.

Shunday qilib, quloq chakka suyagiga yopishgan va so'rg'ichsimon o'simtaning oldingi tomo-nida pastki jag' ning orqa tomonida turadigan o'ziga xos voronka shaklidagi tuzilmadir. Bu voronka tovushni tutib, chakka suyagining ichkarisiga o'tkazib beradi. Quloqning pastki chakka tomonidagi qismi solinchoq deb ataladi va tog' ayi bo'lmagan Yumshoq yog' qatlami va teridan iborat. Quloq solinchog'i ba'zan oldingi tomonidan pastki jag' te-risi bilan qo'shilib ketgan bo'ladi.

Haykal ishlash yoki rasm chizish jarayonida quloqni bosh-da to'g'ri joylashtirish juda katta ahamiyatga ega. Quloqning tuzilishi bilan tanishib olgach, amaliy ishga o'tiladi. Bu amaliy topshiriqni ham avvalgi modellarni bajarish kabi o'sha tizim asosida bosqichma-bosqich baja-rishga kirishiladi. Shuni yodda tutish kerakki, bo'lajak haykaltarosh birinchi navbatta mohir qalamtasvirchi bo'lishi lozim. Qalamtasvir tasviriy san'atning asosi hisoblansa, u san'atning haykaltaroshlik turini o'rga-nishda esa eng muhim hisoblanadi.

**Keys.** Mavzu asosida natura qo'yildi. Uni qog'oz yuzasiga joylashtirilganda xatolik yuz berdi. Amaliy ish jarayonida qanday qoidalarga e'tibor berilmagan.

### **Keysni bajarish bosqchilari va topshiriqlar:**

- Keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni belgilang (individual va kichik guruhda).
- Topshiriqni to'g'ri bajarilishi uchun bajariladigan ishlar ketma-ketligini belgilang (juftliklardagi ish)

### **Amaliy topshiriqlar**

Odam boshi a'zolaridan nabroska va zarisovkalar ishlash

### **Glossariy**

**Stek** – haykaltaroshlik qalami, pichog'i.

**Forma** – shakl.

**Proportsiya** - naturadagi buyum va predmetlarning o'zaro nisbatlari, mutanosiblik.

**Formovka** – qoliplash.

### **Test**

#### **Haykallarni rangi qanday tanlanadi**

- a) Haykaltaroshlikda tanlangan xom ashyo uning rangini belgilaydi.
- b) Tashqi muhitga chidamli bo'yoqlarda va ranglarda
- c) Haykalning mavzusi va mazmuniga qarab
- d) Quyosh va tashqi ob-havo ta'siriga chidamli

#### **Yuqori uyg'onish davr buyuk haykaltaroshini aniqlang**

- a) Ogyust Renuar
- b) Mikelandjelo Buonarotti
- c) Burdel
- d) Gudon

#### **Yopishtirish, qo'shish yo'li bilan ishlanadigan materiallarni aniqlang**

- a) Maxsus loy, mum, plastilin va boshqalar
- b) turli nav toshlar, yog'och
- c) loy, plastilin, gips
- d) qattiq moddalar(tosh, marmar, granit, yog'och)

#### **Kesib, yo'nib, olib tashlash yo'li bilan ishlanadigan materiallarni aniqlang**

- a) turli nav toshlar, yog'och
- b) loy, plastilin, gips
- c) qattiq moddalar(tosh, marmar, granit, yog'och)
- d) turli qattiq materiallar

## **Foydalanish uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar:**

1. Соибов Т.З, Гильманова Н., Слугин А.П, Бродина М.Р, Тё А.В, Чизматасвир, рангтасвир, хайкалтарошлик. Т., 2010
2. Баммес Г. Изображение фигуры человека. Берлин: Изд-во Фольк унд Виссен.1984.
3. Барчай Е. Анатомия для художников. Будапешт; Корвина, 1959.
4. "Drawing techniques" Peter Stenyer, 2013, Arcturus Publishing, London. The Complete Book of DRAWING TECHNIQUES a professional guide for the artist. Peter Stanyer. Arcturus Publishing England. 2013.
5. Sculpture: materials & process. Flora Street Dallas.2011.Nasher Sculpture Center.org.
6. Esonov T. Haykaltaroshlik. O'quv qo'llanma. SamDAQI 2011.

## 26-amaliy mashg'ulot

### **Mavzu: ODAM BOSH TUZILISHINI GIPS MODELIGA QARAB ISHLASH**

Odam bosh tuzilishini tasvirlashni o'rganish to'rtinchi simmetriyada o'tiladigan haykaltaroshlik mashg'ulotlari-ning asosiy mavzularidandir. Bir vaqtning o'zida ushbu mavzuni qalamtasvir fanida ham o'rganilishi o'quv materi-allarini o'zlashtirishni uzviy holda tashkil etishni ta'minlaydi.

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, haykaltaroshlik mashg'u-lotlarida odam bosh tuzilishini ishlash orqali qalam-tasvirni yaxshi o'zlashtira olishga yordam beradi, chunki talabalar haykal yasash jarayonida uning hajmli shakllarini ko'rish qonuniyatlarini, konstruktiv o'ziga xos xususiyat-larni kuzatib, o'zaro plastik bog'lanishini tushunadilar. SHuni aytish kerakki, odam bosh tuzilishini tasvirlash tasviriy san'atning hamma turlarida ham o'quv dasturidagi eng murakkab bo'lim hisoblanadi. Haykaltaroshlikda odam bosh tuzilishini o'rganish tayyor namunalardan andoza olib ishlashdan boshlanadi. Portret san'atining eng ko'p tarqalgan namunalari qadimgi grek va rimliklar tomonidan yaratilgan modellardir. Chunki, ta'kidlab o'tganimizdek ular anatomik jihatdan to'g'ri ham bajarilishi nuqtai nazaridan Yuksak badiiy talablarga javob beradi. Ulardan andoza olib o'rganish nafaqat texnik tomonini, balki haykaltaroshlikning o'ziga xos bo'lgan siru-san'atlarini qisqa vaqt mobaynida o'rganish imkoniyatini beradi.

Mashg'ulotda bitta gips modeli 8-10 ta talaba uchun quyiladi. Mashg'ulot jarayonida uni soat strelkasi yo'nalishi bo'yicha aylantirib turiladi. Model atrofiga esa haykaltaroshlik dastgohlari doira shaklida joylashti-rilib, har bir talaba model va o'z ishini aylanib ko'ra olishi uchun zarur masofa qoldiradi. Mashg'ulotga kirish-dan avval, kalla suyagi va odam bosh tuzilishiga qisqacha to'xtalib o'tiladi. Kalla suyagi yoki bosh skeleti uning suyak asosida. Boshning ko'zga tashlanib turadigan yoki yashirin suyak do'mboqlari uni tuzish uchun zarur elementlar bo'lib hisoblanadi. Bosh plastik jihatdan yagona va yaxlitdir.

Anatomik ma'lumot bo'lmagan taqdirda odamning kalla qismidagi suyaklarning holati va funksiyalarini tasavvur etish qiyin bo'ladi. Odam bosh tuzilishini gips modeliga qarab ishlash jarayonida uning faqatgina tashqi ko'ri-nishini, ya'ni silliq va chiroyli qilib ishlangan Yuzalar-nigina emas, balki uning ichki anatomik tuzilishini ham har bir bo'rtgan yoki botiqlarni diqqat bilan tahlil qilgan holda ishlash kerak.

San'atning haykaltaroshlik turida ko'p mehnat va nazariy bilim evaziga ma'lum natijaga erishiladi. Shuning uchun ham mashg'ulotlar uchun ajratilgan qisqa vaqtdan unumli foydalanib, mashg'ulotdan keyin esa mustaqil ishlar bajarish talab etiladi.

Odam bosh tuzilishini ishlash eng avvalo —karkas tayyor-lash ishlaridan boshlanadi. Buning uchun 30x30 sm o'lchamidagi to'rtburchak yog'och taglik o'rtasiga 5x5x25 sm o'lchamidagi reyka mahkamlanadi. Yog'och reykaning tepa to-moniga egiluvchan sim shunday bog'lanadiki, uning Yuqori tomoni ishlanadigan odam kalla suyagining eng baland nuqtasiga to'g'ri kelishi kerak. Yog'och reykaga bog'langan Yumshoq simimiz mustahkam bo'lmasa, unga qo'shimcha 3-4 ta (+) shaklidagi loy ushlagichlar osib qo'yiladi. Har qanday haykal uchun yasalgan karkas mustahkam hamda unga qo'shimcha o'rnatilgan sim egiluvchan bo'lishi, loy qo'yib bo'lgandan keyin ham ma'lum o'zgartirishlar kirita olishga (egish yoki o'ngchapga burishga) imkon beradi. Shu sababli ham talabalar karkas tayyorlashga alohida e'tibor berishlari kerak.



Karkas tayyorlab olingandan so'ng, uni dastgoh ustiga o'rnatib sim va yog'och taxtacha namlab oli-nadi va asta-sekin boshning bo'yin qismidan boshning hajmli tuzilishi bo'yicha loy qo'yib chiqiladi.

Avvalgi mashg'ulotlarda aytib o'tilganidek, bo'yin tsilindr Karkasga loy chaplash ko'rinishida, bosh eska tuxumsimon ko'rinishda o'zaro hajmli qilib bog'lab ishlanadi. Ish jarayonida ikkala yon tomondan modelga solishtirib eng asosiy bo'rtib chiqqan nuqtalarni belgilab, loy bo'lagi yoki gugurt cho'pi qo'yib chiqiladi.

Hosil bo'lgan bo'sh oraliqlar loy bilan to'ldirilib, ortiqchasi olib tashlanadi. Shu uslubda odam bosh tuzili-shini hajmli qilib, ishlab olingach, tsirkul yordamida quyidagi o'lchamlarni tekshirishga kirishiladi.

Karkasga hajmli holatga keltirib loy qo'yib, Yuzning nisbatlari aniq topib olingach, asosiy e'tibor suyak tuzilishiga, uning bo'rtib chiqqan yoki botiqliklarini muskullar bilan birgalikdagi boshning xususiyat holati ishlashga yo'naltiriladi. Ishning tsirkul yordamida chizib olingan qosh chizig'i, pastdan burunning ikki yoniga ko'z kosasi chuqurligini qoshlar bilan birgalikdagi holatini aniqlab ishlashdan boshlanadi. Pastki tomonda bir juft yonoq ravoqlari, bir juft yonoq suyaklari ishlanib, ko'z kosasi, chuqurchasi ko'z olmasini qo'yish uchun tayyorlanadi.

Undan keyin peshona suyaklari shakli asosida ishlanadi. Burun va uning qoshlar bilan bog'lanishini pastda esa burun asosi va burun parraklari ishlanadi, undan keyin esa pastki jag' suyaklari tuzilishi asosida ishlanadi. Bu ish quloqlardan boshlanadi, ular hosil qilgan burchak pastki qismidagi nuqtaga pastki jag' birlashtiriladi. So'ngra engak ko'tarmasi, pastki lab, Yuqori jag' ishlanib, og'iz burchaklari, og'iz o'rta chizig'i, burun asosiga nisbatan joylashish o'rni topib ishlanadi. Asosiy katta qismlarni aniqlab ishlab olingach, bajarilayotgan ish va modelni yon ko'rinishga bir xil holatga keltirib, burib olib har ikkala quloqlar ishlanadi. Ish ma'lum darajada tayyorlab olingandan so'ng uni yon, old, orqa va har xil ko'rinish nuqtalaridan modelga solishtirib ishlab chiqiladi.

Qisqacha qilib aytganda, ishni model bilan aniq o'xshashligi topilguncha davom ettiriladi.



Ishni yakunlash uchun model va ishni bir xilda yon tomondan tushirilgan yorug'lik nurida yoritilganda kuchli yorug' soya o'yini shakllardagi o'zgarishlarni aniqlab va o'rnida to'g'rilab olishga imkon beradi. Tepadan yoki to'g'ridan tushirilgan yorug'lik esa ishni ko'rish uchun foydalaniladi.

Mashg'ulot uchun ajratilgan muddat tugagach ishni yakunlab, har doimgidek guruh talabalarining bajargan ishlarini kichik ko'rgazmasi o'tkazilib, ularning Yutuq va kamchiliklari tahlil qilinadi, hamda reyting tizimi asosida baholanadi.

## **Amaliy topshiriqlar**

Odami boshidan nabroska va zarisovkalar ishlash





**Keys.** Mavzu asosida natura qo'yildi. Uni qog'oz yuzasiga joylashtirilganda xatolik yuz berdi. Amaliy ish jarayonida qanday qoidalarga e'tibor berilmagan.

**Keysni bajarish bosqchilari va topshiriqlar:**

- Keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni belgilang (individual va kichik guruhda).
- Topshiriqni to'g'ri bajarilishi uchun bajariladigan ishlar ketma-ketligini belgilang (juftliklardagi ish)

**Keys.** Mavzu asosida natura qo'yildi. Uni qog'oz yuzasiga joylashtirilganda xatolik yuz berdi. Amaliy ish jarayonida qanday qoidalarga e'tibor berilmagan.

**Keysni bajarish bosqchilari va topshiriqlar:**

- Keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni belgilang (individual va kichik guruhda).
- Topshiriqni to'g'ri bajarilishi uchun bajariladigan ishlar ketma-ketligini belgilang (juftliklardagi ish)

## Glossariy

**Apollon** — quyosh va san'at xudosi.

**Afrodita** - (grek mifologiyasi. Rimliklarda Venera deb Yuritiladi). Go'zallik va muhabbat ramzi. Afsonlarga ko'ra Afrodita dengiz ko'pigidan paydo bo'lgan, ayrim manbalarda Zevs qizi deyiladi.

**Barelef** (fr.) past relief. Relief odatda, barelef Yuzaga nisbatan bir oz qavargan bo'lib, ularda ba'zan yorug' -soya o'yinlari keskin sezilmasligi ham mumkin. Barelef-lar, ayniqsa, amaliy san'at bu Yumlarini, me'morchilik bu Yumlarini bezashda juda qo'l keladi.

**Byust** (fr.) — odamning ko'kragigacha tasvirlangan haykali.

**Gorelef** (fr. Yuqori relief) — haykaltaroshlikning bu turida tasvirlar Yuzaga nisbatan sezilarli darajada bo'rtib chiqqan bo'lishi va ba'zida o'z ko'rinishi bilan dumaloq haykalga o'xshashi mumkin, lekin bu haykallarning biror qismi albatta, Yuzaga yopishgan bo'ladi.

**Dekor** (lot. decorase) - bezash.

**Karkas** (fr. - skelet, asos) - binoning asosi, sinchi.

**Kompozitsiya** (lot. «compositio» - tuzilish, qurilish) -badiiy asardagi obrazlar va badiiy vositalarning muayyan g'oyaviy maqsadga xizmat qiladigan tartibda joylashishi va ularning muvofiqligi.

**Nefretiti** - fir'avn Exnatonning xotini.

**Plastika** – 1. Haykaltaroshlik. 2. Silliq, mayin, egaluvchan.

**Stek** - haykaltaroshlikda ishlatiladigan maxsus yog'och va simdan tayyorlangan ish qurollari.

**Sfinks** - odam boshli, sher tanali afsonaviy hayvon.

## Test

**Odamning ko'kragigacha tasvirlangan haykali**

- byust
- monumental
- mayda plastika
- gorelef

**Yuzaga nisbatan bir oz qavargan haykaltaroshli asari qanday nomlanadi**

- gorelef\*
- barelef
- relief
- yumaloq

## **Badiiy asardagi (chizmatasvir) inson tasvirining eng muhim jihatini aniqlang**

- a. Qiziqarliligi
- b. Hayotiyliigi
- c. Yoritilganligi
- d. Proportsionalligi

## **Jism va jussalar mutanosibligiga qanday erishiladi**

- a) ko'proq ishlsh orqali
- b) qoramalar qilib olish orqali
- c) o'lchamlar nisbati orqali
- d) chizilgan narsani qayta-qayta o'lchash orqali

## **Foydalanish uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar:**

1. Соибов Т.З, Гильманова Н., Слугин А.П, Бродина М.Р, Тё А.В, Чизматасвир, рангтасвир, хайкалтарошлик. Т., 2010
2. Баммес Г. Изображение фигуры человека. Берлин: Изд-во Фольк унд Виссен. 1984.
3. Барчай Е. Анатомия для художников. Будапешт; Корвина, 1959.
4. "Drawing techniques" Peter Stenyer, 2013, Arcturus Publishing, London. The Complete Book of DRAWING TECHNIQUES a professional guide for the artist. Peter Stanyer. Arcturus Publishing England. 2013.
5. Sculpture: materials & process. Flora Street Dallas. 2011. Nasher Sculpture Center.org.
6. Esonov T. Haykaltaroshlik. O'quv qo'llanma. SamDAQI 2011.

## V. «Qalamtasvir, rangtasvir va haykaltaroshlik» fanidan test savollari.

### 1. Grafikaning bir ko'rinishi, tugallanmagan rasm.

- A) zastavka      B) zarisovka \*  
C) illyustratsiya      D) nabroska

### 2. Chizilishi lozim bo'lgan naturani, manzarani va boshqalarni qog'ozga chiroyli joylashtirish

- A) kompanovka\*      B) kompozitsiya  
C) proporsiya      D) kontsovka

### 3. Rasm ishlashda qo'llaniladigan moslama

- A) palitra      B) molbert\*  
C) stol      D) stul

### 4. Xarakterli chiziq va shtrihlar yordamida tez bajariladigan qoralama, homaki ish

- A) illyustratsiya      B) zarisovka  
C) nabroska \*      D) zastavka

### 5. Perspektiva so'zini ma'nosi

- A) qisqarish \*      B) kengayish  
C) uzayish      D) torayish

### 6. Binoning tashqi ko'rinishi

- A) eksteryer \*      B) interyer  
C) fasad      D) plan

### 7. Chizma tasvirda tasvirlarni tuslashda ishlatiladigan chiziq

- A) simmetrik chiziq      B) o'q chiziq  
C) kontur chiziq      D) shtrix chiziq\*

### 8. Narsalarning yorug' tushmaydigan qismdagi ko'rinishi, dog'

- A) refleks      B) soya\*  
C) blik      D) yarim soya

**9. Predmetga tushayotgan yorug'lik aksini natijida hosil bo'lgan shu'la**

- A) refleksi\*                      B) soya  
C) blik                              D) yarim soya

**10. Chizmatasvir qurollari**

- A) chizg'ich, qalam, qog'oz      B) qalam, qog'oz, 'chirg'ich\*  
C) qog'oz, tush, mo'yqalam      D) chizg'ich, sirkul, qog'oz

**11. Chizmatasvirda ishlatiladigan yumshoq qalam markalari**

- A) T, 2T, 3T                      B) M, 2M, 3M\*  
C) TM, 2M, 3T                    D) T,M, TM

**12. Predmetlarga tushayotgan nurlarning eng yorug' joyi**

- A) soya                              B) yarim soya  
C) refleksi                          D) blik\*

**13. Kitob, jurnal va gazetalar uchun ishlangan rangli-rangsiz suratlar**

- A) illyustratsiya      B) zarisovka  
C) zastavka              D) gravyura

**14. Narsaning chizmatasvirini ishlashda qo'llaniladigan zirx chiziq**

- A) kontur chiziq\*      B) shtrix chiziq  
C) o'q chiziq              D) simmetrik chiziq\*

**15. Geometrik chiziq**

- A) aylana\*                              B) doira  
C) oval                                      D) shar

**16. Yoritishni qat'iy oq va qora tuslari orqali tasvirlash turlari**

- A) applikasiya      B) grafika\*  
C) mozaika              D) vitraj

**17. Narsani chizishda foydalaniladigan o'q chiziq**

- A) simmetrik chiziq\*      B) assimetrik chiziq  
C) gorizontal chiziq      D) vertikal chiziq

**18. Badiiy asarlardagi tasvirlarni o'zaro nisbatlari, mutanosiblik**

- A) proporsiya\*    B) kontsovka
- C) komponovka    D) masshtab

**19. Badiiy asarni mohiyatini ochib beruvchi asosiy vosita**

- A) shakl va mazmun\*
- B) g'oya
- C) koloritlik
- D) kontrastlik

**20. Buyumlarni badiiy bezash, loyihalash, konstruktiv o'zgartirishlar kiritish**

- A) kollaj
- B) vitraj
- C) amaliy san'at
- D) dizayn\*

**21. Rangtasvirning asosiy badiiy tili, vositasi**

- A) rang\*
- B) tus
- C) soya
- D) yorug'lik

**22. Badiiy asardagi yetakchi rang**

- A) koler\*
- B) fon
- C) kontrastlik
- D) koloritlik

**23. Badiiy asardagi ranglar, tonlar, obraz va o'lchamlar qarama-qarshiligi**

- A) Koloritlik
- B) Kontrastlik\*
- C) Mutanosiblik
- D) Mashtab

**24. Rassomning ko'rish darajasidagi tekislik chizig'i**

- A) ufq chizig'i\*
- B) perspektiva
- C) bertikal chiziq

D) gorizantal chiziq

**25. Badiiy asar mazmunini ochish uchun bajariladigan xomaki chizmasi**

- A) etyud
- B) zarisovka
- C) nabroska
- D) eskiz \*

**26. Yorug'likni prizma yordamida ko'p rangli ekanligini isbotlagan olim?**

- A). I. Nyuton.\*
- B). M. V. Lomonosov.
- C). X. Gyugens.
- D). J. K. Maksvel.

**27. Janr nima?**

- A). San`atning mazmunan turlari.
- B). Janr, ijod.
- C). Tasviriy san`at asarlarining syujetini ifodaviy shakli.
- D). Tasviriy san`atning bir turi.\*

**28. Ochiq havodagi natyurmortda qanday jihatlar seziladi?**

- A). Tabiat manzarasi.
- B). Buyumlarni faqat soyasi.
- C). Orqa plan.
- D). Buyumlarni shakli, rangi va yorug'-soyalari .\*

**29. Rangtasvirda rang-baranglikni kuchaytirish deganda nimalar tushuniladi?**

- A. Sof spektr ranglarni qo'llash.\*
- B. Har bir buyumni lokal ranglarini va buyumlarni bir-biriga tushgan. reflekslarni kuchaytirish.
- C. Kulrangdan foydalanish.
- D. Qizil rangdan ko`proq foydalanish.

**30. Tasviriy san`at janrlari qaysi qatorda ko`rsatilgan?**

- A. Ofort, ksilografiya, yog'och.
- B. Haykaltaroshlik, rangtasvir, grafika.
- C. Natyurmort, manzara, portret, tarixiy, maishiy, batal... \*
- D. Musiqqa, teatr, kino, televideniya.

**31. Stilizatsiya so`zining ma`nosi nima?**

- A. Naqshga shakl beruvchi chiziq.
- B. Soddalashtirish.\*
- C. Murakkablashtirish.
- D. Oddiy bajarish.

**32. Kontrast ranglar deb nimaga aytiladi?**

- A. Ikkita bir xil rang.
- B. Uchta bir xil rang.
- C. Bir-biridan keskin farq qiluvchi rang.\*
- D. Bir-biriga yaqin bo`lgan rang.

**33. Tasvirda narsa va predmetlarning mazmun tashkil qilib, tartibli joylashuvi nima deyiladi?**

- A. Kompozitsiya.\*
- B. Komponovka.
- C. Kontsovka.
- D. Perspektiva.

**34. Akvarelda qog`oz yuzasiga rang berish qay yo`sinda olib boriladi?**

- A. Pastdan tepaga qarab.
- B. O`ng tomondan.
- C. Chapdan o`ngga va so`ngra pastga.\*
- D. To`q rangdan ochga qarab.

**35. Akvarelda etyud bajarish qaysi tartibda olib boriladi?**

- A. To`qlikdan ochlikka qarab.
- B. Eng chiroyli rang birinchi beriladi.
- C. Ochlikdan to`qlikka qarab.\*
- D. Soyalar rangi eng avval beriladi.

**36. Bo`yoqning aralashuvidan hosil bo`ladigan omuxta ranglar?**

- A. Xromatik ranglar.
- B. Qo`shimcha ranglar.\*
- C. Axromatik ranglar.
- D. Asosiy ranglar.

**37. O`quv etyudlariga asosan qanday talablar qo`yiladi?**



- A. Ijodkor tomonidan qo`shimcha yangiliklar kiritish.
- B. Naturani badiiylashtirib ishlash.
- C. Bo`rttirib ishlash.
- D. Rang munosabatlarni topish, hajm va fazoviylik holatini, yorug'-soya nisbatlarini topish.\*

**38. Kompozitsiya nima?**

- A. Hayoliy ishlangan tasvir.
- B. Yangi ijod namunasi yaratish.
- C. Mazmun asosida joylamoq, tuzmoq.\*
- D. Har- bir buyumga yaxlit va uzviy qaramoq.

**39. Mazok rangtasvirda....**

- A. Alla prima uslubiga o`xshash uslubda.
- B. Surtma, mo`yqalamda kesib va uzib-uzib ishlanadi ishlanadi.\*
- C. Faqat girizayl uslubida ishlanadi.
- D. Faqat girizayl uslubida ishlanadi.

**40. Mahobatli rangtasvir qaysi javobda to`g`ri ko`rsatilgan?**

- A. Katta hajmli devor sathiga ishlanadigan mahobatli asar.\*
- B. Qoramalar uchun ishlatiladigan usul.
- C. Ko`p muddatli qoramalar chizishda ishlatiladigan usul.
- D. Dastgohda ishlangan rangtasvir asari.

**41.«Lessirovka» deganda nimani tushunasiz?**

- A. Suyuq bo`yoqning tasvir ustidan to`qlashtirish.
- B. Bo`yoqni suyuq va quyuq qilib ishlatish metodi.\*
- C. Quyuq bo`yoq qatlami ustidan rangni jilolash, boyitish uchun beriladigan, suyuq bo`yoq qatlami, silliqlab ishlash.
- D. Quyuq bo`yoqning tasvir ustidan surtish.

**42. Rangtasvir ishlashda o`quv natyurmorti qanday tuziladi?**

- A. To`q rangli buyumlardan tuziladi.
- B. Shakli, rangi, aniq buyumlardan tuziladi.\*
- C. Och rangli buyumlardan tuziladi.
- D. Eng yorqin buyumlardan tuziladi.

**43. Diptix nima?**

- A. Besh qismdan iborat rangtasvir asari.
- B. Uch qismdan iborat rangtasvir asari.

- C. Ikki qismdan iborat rangtasvir asari.\*
- D. Ikki muallif tomonidan ishlangan bir asar.

**44. Muzey bu...**

- A. Odamlar hordiq chiqaradigan maskan.
- B. Qadimiy va zamonaviy buyum, asori -atqalar saqlanadigan muassasa.\*
- C. Davriy eksponatlarni namoyish etuvchi maxsus muassasa.
- D. Qadimiy buyumlarni saqlash uchun maxsus muassasa.

**45. Mo`yqalam nima?**

- A. Rassomlar ishlatadigan ish quroli.
- B. Qilqalam, rassomlar ishlatadigan yozuv va tasvir quroli.\*
- C. Moybo`yoqda ishlatiladigan tasvir quroli.
- D. Akvarelda ishlatiladigan tasvir quroli.

**46. «Grizayl» qalamtasvir sohasiga kiradimi yoki rangtasvirgami?**

- A. Rangtasvirga.
- B. Ikkala sohaga taalluqli.
- C. Qalamtasvirga.\*
- D. Haykaltaroshlikka.

**47. Perspektiva turlari qaysi javobda to`g`ri ko`rsatilgan?**

- A. Inter`er, ekster`er.
- B. Chiziqli perspektiva, rang va havo perspektivasi.\*
- C. Fazoviy perspektiva, inter`er.
- D. Gorizont, masofa, ufq chizigi.

**48. Mahobatli rangtasvir turlari qaysi javobda to`g`ri belgilangan?**

- A. Devor va bino shiftini naqsh bilan bezatish.
- B. Vitraj, mozaika.
- C. Devoriy surat, freska, mozaika.\*
- D. Rel`ef, keramika, qoralama.

**49. Rangtasvirga monand bo`lgan iboralar qatorini belgilang?**

- A. Glazur, rel`ef, karkas, natura, byust.
- B. Hoshiya, sopol, simmetriya, ritm, chinni.
- C. Shrift, vitraj, applikatsiya, ilyustratsiya.

D. Palitra, triptix, fon, kompozitsiya, kolorit.\*

**50. Akvarel' bo'yog'i qurigach, ochlashadimi yoki to'qlashadimi?**

- A. O'zgarmaydi.\*
- B. Ochlashadi.
- C. To'qlashadi.
- D. Qisman to'qlashadi.

**51. Yaxlit idrok etish nima?**

- A. Natura yoki tasvirni yaxlitlikda ko'rish.\*
- B. Materiallarni aniq ishlamaslik.
- C. Naturadagi asosiy buyumni bo'rttirish.
- D. Naturani bir xil rangda ishlash.

**52. Suvda erimaydigan bo'yoqni belgilang?**

- A. Akvarel.
- B. Guash.
- C. Tempera.
- D. Moybo'yoq.\*

**53. Tus qanday ma'noni anglatadi?**

- A. Narsaning rang hamda tusini och-to'qlik darajasini bildiruvchi tushuncha.\*
- B. Narsaning soyasi.
- C. Buyumning materialiligi.
- D. Buyumdagi barcha soyalar.

**54. Etyud nima?**

- A. Ranglar bilan naturaning eng xarakterli xususiyatlarini qisqa muddatda tasvirlash.
- B. Tez ishlangan tasvir.
- C. Asar yaratishdan avval tayyorgarlik sifatida ishlangan tasvir.
- D. Ma'lum maqsadni ko'zlab naturani o'rganish maqsadida chizilgan tasvir.\*

**55. Yashil rang qaysi bo'yoqlarning aralashuvidan hosil bo'ladi?**

- A. Qizil va zarg'aldoq.
- B. Qizil va ko'k.
- C. Zangori qizil.

D. Ko`k va sariq.\*

**56. Hosila ranglar qaysi qatorda to`g`ri berilgan?**

- A. Qizil, sariq, zangori.
- B. Sariq, jigarrang, havorang.
- C. Zarg`aldoq, yashil, binafsha.\*
- D. Oq, qirmizi, qora.

**57. Sovuq ranglar qaysi javobda to`g`ri ko`rsatilgan ?**

- A. Yashil, havorang, zangori.\*
- B. Qora, jigarrang, kulrang.
- C. Qizil, sariq, oq.
- D. Yashil, qizil, zarg`aldoq.

**58. Axromatik ranglar qaysi qatorda ?**

- A. Oq, qora, kulrang.\*
- B. Jigarrang, sabza, havorang.
- C. Barikaram, zarg`aldoq, binafsha.
- D. Qizil, havorang, sariq.

**59. Rangtasvir asarlari qanday yuzalarga ishlanadi?**

- A. Maxsus qog`ozga.
- B. Maxsus grunt qoplangan matoga. \*
- C. Devor yuzasiga.
- D. Yog`och materiallariga.

**60. Inter`er – bu....**

- A. Binoning old ko`rinishi.
- B. Binoning poydevori.
- C. Binoning old tomdan ko`rinishi.
- D. Binoning ichki ko`rinishi.\*

**61. Plastika – bu.....**

- A. Uyg`unlik.\*
- B. Egiluvchan, mahobatli .
- C. Mahobatli, solobatli.
- D. Nafis, ko`rkam ma`nolarini anglatadi.

**62. Garmoniya – bu...**

- A. Ranglar nisbati.
- B. Ranglar uyg'unligi. \*
- C. Ranglar muttanosibliği.
- D. Ranglar tizimi.

**63. Kombinatsiya – bu....**

- A. Ketma-ketlik.\*
- B. Hamohanglik, uyg'unlik.
- C. Qarama-qarshilik.
- D. A va B to'g'ri javob.

**64. Rangning kishi ruxiyatiga ta'siri deganda nimani tushinasiz?**

- A. Barcha javoblar to'g'ri \*
- B. Rang tuslaridan to'g'ri foydalanilmasa insonni xar xil kasalliklarga duchor kilish mumkin .
- C. Ranglar noto'g'ri foydalanilsa inson miyasini charchatadi.
- D. Ranglar insonni tetiklashtiradi.

**65. Kontrastlik – bu...**

- A. Mutanosiblik.
- B. Qarama-qarshilik .\*
- C. Uyg'unlik.
- D. Katma-ketlik.

**66. Rasm chizish jarayonining bosqichma-bosqich tashkil etilishini ketma-ketligini aniqlang?**

- A. Ko`rish, yorug'-soyalarini ajratish joylashtirish.
- B. Ko`rish, tus echimi, yakunlash.
- C. Joylashtirish, nisbatlarni aniqlash, yorug' - soya berish, tus yechimini ifodalash.\*
- D. Joylashtirish, umumlashtirish, yakunlash.

**67. Statik holat – bu:**

- A. Dam olish.
- B. Harakatdagi holat.
- C. Harakatsiz holat. \*
- D. Mashq bajarish.

**68. Inson holatini noodatıy ko`rinishi – bu:**

- A. Rakurs holati.\*
- B. Tik turgan holati.
- C. O`tirgan holati.
- D. Yugurish holati.

**69. Realistik tasvirlash – bu:**

- A. Buyumlarni ramziy shaklda tasvirlash.
- B. Narsa va hodisani turli shakllarda tasvirlash.
- C. Narsa va hodisani bo`rttirib tasvirlash.
- D. Narsa va hodisani haqqoniy tasvirlash.\*

**70. Bir biridan rangi va turi jihatidan keskin ajralib turuvchi bo`yoq xillari nima deb nomlanadi?**

- A. Kontrast. \*
- B. Axromatik.
- C. Spektr.
- D. Unikoler.

**71. Bo`yoqda rasm ishlash maqsadida ramkaga tortilgan bo`z yoki kartonga surtiladigan qorishma?**

- A. Emulsiya.
- B. Elim.
- C. Moybo`yoq.
- D. Gruntovka.\*

**72. Grizal deganda nimani tushunasiz?**

- A. Bir rangni har-xil tuslari yordamida ishlanadigan tasvir.\*
- B. Qizil rangdan foydalanib ishlangan asar.
- C. Tasvir ishlashda o`rganadigan yo`l.
- D. Akvarelda ishlash moslamasi.

**73. Ochiq havo sharoitida tasvir ishlash nima deb nomlanadi?**

- A. Manzara.
- B. Plener. \*
- C. Peyzaj.
- D. Fon rang tasviri.

**74. Rang tasvirda oynaga ishlash nima deb nomlanadi?**

- A. Nafis.
- B. Freska.

- C. Vitraj. \*
- D. Gravyura.

**75. Ranglar necha turga bo`linadi?**

- A. 4 turga.
- B. 3 turga.
- C. 7 turga.
- D. 2 turga.\*

**76. Allaya prima usulida qanday ishlanadi?**

- A. Quriq xolda ishlanadi.
- B. Bo`rttirib ishlanadi.
- C. Ranglar bir-biri bilan qo`shilib suyuq holda ishlanadi bir seansda tugatiladi.\*
- D. Ustma-ust holda ishlanadi.

**77. Qizil, sariq va ko`k ranglar...**

- A. Xromatik ranglar.
- B. Qo`shimcha ranglar.
- C. Asosiy ranglar.\*
- D. Axromatik ranglar.

**78. Qalamtasvirda ishlatiladigan ish qurollari**

- e) chizg'ich, qalam, o'chirg'ich, qog'oz
- f) qog'oz, tush, mo'yqalam, chizg'ich
- g) qalam, qog'oz, o'chirg'ich, mo'yqalam\*
- h) sirkul, qalam, o'chirg'ich, qog'oz

**79. Chizmatasvirda yengil va umumlashgan chiziqlar orqali badiiy obrazlarni tasvirlash turi**

- a) chiziqli\*
- b) yorug'-soyali
- c) tusli
- d) siluetli

**80. Buyum yoki naturaning hajmliligi, yorug'ligi, fakturasi va fazoviy munosabatlarining to'liq tasvirlanishi**

- a) chiziqli
- b) yorug'-soyali

- c) tusli\*
- d) siluetli

**81.Chizmatasvirda buyum yoki naturaning tashqi ko'rinishi orqali xarakteri, harakati va boshqa fazilatlarini bir xil tekis tus bilan qoplab tasvirlash**

- a) chiziqli
- b) yorug'-soyali
- c) tusli
- d) siluetli\*

**82.Ufq chizig'i deb nimaga aytiladi**

- a) ko'zimiz balandligida o'tadigan nurga
- b) tasvirlanayotgan buyumning joylashgan tekisligiga
- c) rassom bilan natura o'rtasidagi vosita
- d) ko'zimiz balandligi darajasiga\*

**83.Surat tekisligi deb nimaga aytiladi**

- a) tasvirlanayotgan natura bilan rassom orasidagi bo'shliqqa aytiladi\*
- b) buyumlarning fazo ta'sirida o'zgarib ko'rinishiga aytiladi
- c) buyumning joylashgan tekisligiga aytiladi
- d) ko'zimiz balandligida o'tadigan nurga aytiladi

**84.Buyum tekisligi deb nimaga aytiladi**

- e. tasvirlanayotgan natura bilan rassom orasidagi bo'shliqqa aytiladi
- f. buyumlarning fazo ta'sirida o'zgarib ko'rinishiga aytiladi
- g. buyumning joylashgan tekisligiga aytiladi\*
- h. ko'zimiz balandligida o'tadigan nurga aytiladi

**85. Fazoviy perspektiva deb nimaga aytiladi**

- a) tasvirlanayotgan natura bilan rassom orasidagi bo'shliqqa aytiladi
- b) buyumlarning fazo ta'sirida o'zgarib ko'rinishiga aytiladi\*
- c) buyumning joylashgan tekisligiga aytiladi
- d) ko'zimiz balandligida o'tadigan nurga aytiladi

**86.Chizmatasvirda tasvirlarni tuslashda ishlatiladigan chiziq**

- a) Simmetrik chiziq
- b) Kontur chiziq
- c) O'q chiziq
- d) Shtrix chiziq\*



**87. Buyumlarning yorug'lik tushmaydigan qismidagi ko'rinishi, dog'**

- a)refleks
- b)shu'la(blik)
- c)soya
- d)yarim soya

**88. Predmetga tushayotgan yorug'lik aksi natijasida hosil bo'lgan shu'la**

- a)refleks\*
- b)blik
- c)soya
- d)yarimsoya

**89. Predmetlarga tushayotgan nurlarning eng yorig' joyi**

- a) refleks
- b) blik\*
- c) soya
- d) yarimsoya

**90. Narsaning chizmatasvirini ishlashda qo'llaniladigan zirx chiziq**

- a)Simmetrik chiziq
- b)Kontur chiziq\*
- c)O'q chiziq
- d)Shtrix chiziq

**91. Geometrik chiziqni aniqlang**

- a)aylana\*
- b)oval
- c)doira
- d)shar

**92. Narsani chizishda foydalaniladigan o'q chiziq**

- a)Simmetrik chiziq
- b)Gorizontal
- c)Shtrix chiziq
- d)Vertical chiziq

**93. Badiiy asarlardagi tasvirlarni o'zaro nisbatlari, mutanosiblik**

- a) proportsiya\*
- b) kompanovka
- c) konsovka
- d) mashtab

**94. Chizmatasvirda shakl ifodaligiga qanday erishiladi**

- a)Buyumda aks etgan nur orqali
- b)Ikkinchi bir buyumning aksi orqali
- c)Qaytuvchi nurning soyadagi aksi orqali
- d)Yorug'-soyalar va tus ifodalari orqali\*

**95. Badiiy asarlardagi tasvirlarning o'zaro nisbatlari, mutanosiblik**

- a)kompanovka
- b)kompozitsiya
- c)proportsiya\*
- d)mashtab

**96. Uch o'lchamlik tasavvurni beruvchi bo'rttirib ishlangan shakl**

- a)Hajmdor shakl\*
- b)siluet
- c)fon
- d)contrast

**97. Chizilayotgan o'quv mashq ishi uchun qo'yilgan natyurmort yoki qiyofani orqa tarafi**

- a) fon\*
- b) ton
- c) siluet
- d) peyzaj

**98. Nabroskadan ko'ra tugallanganroq tasvir**

- a)nabroska
- b)zarisovka\*
- c)eskiz
- d)etyud

**99. Qo'yilgan naturani ishlash bosqichlarini ko'rsating**

- a)Kompanovka qilish, qurish, detallashtirish

- b)Kuzatish, joylashtirish, nisbatlar asosida qurish
- c)Qurish, detallashtirish, tushlash
- d)Kompanovka qilish, qurish, yorug'-soyalarini aniqlash, tushlash.\*

**100. Inson qiyofasi va tanasini o'rganish uchun namuna sifatida qabul qilingan "Dovud" haykalining muallifi kim**

- a)Titsian Vechello
- b)Gudon Jak
- c)Roden Ogyust
- d)Mikelandjelo Buonarotti

**101. Chizmatasvir so'zining inglizcha atamasi**

- a) graphics
- b) painting
- c) composition
- d) creative

**102. Qisqarish ma'nosini toping(masalan, yo'l, temir yo'llarning olis ufqqa tutashishi)**

- a) zastavka
- e) perspektiva\*
- c) dekoratsiya
- f) diorama
- g)

**103. Chizilishi lozim bo'lgan naturani qog'ozga to'g'ri, chiroyli joylashtirish**

- a) kompanovka\*
- b) kontrast
- c) kolorit
- c) konsovka

**104. Fon uchun ishlatiladigan har xil rangli gazlama, materiallar**

- a) dekoratsiya
- b) drapirovka \*
- c) detal
- d) diorama

**105. Mutanosiblik, biror buyum qismlarining ma'lum chiziq yoki tekislikka, bir-biriga o'xshashligi**

- a) zastavka
- b) illyustratsiya
- c) stilizatsiya

d) simmetriya\*

**106. Chizmatasvirida fazo chuqurligiga qanqay erishiladi**

- a) Ko'rgan narsani oynadagi aksiday qilib ishlash orqali
- b) Ko'rgan narsani tahlili asosida ishlash orqali
- c) Ko'rgan narsaning har birini bo'rtirib ishlash orqali\*
- d) Ko'proq ishlash orqali

**107. Eng buyuk rassomni aniqlang**

- a) Leonardo da Vinchi
- b) Mikelandjelo Buonarotti
- c) Kamoliddin Behzod
- d) Tabiat\*

**108. Badiiy asardagi (chizmatasvir) inson tasvirining eng muhim jihatini aniqlang**

- a) Qiziqarliligi
- b) Hayotiyligi\*
- c) Yoritilganligi
- d) Proportsionalligi

**109. Jism va jussalar mutanosibligiga qanday erishiladi**

- a) ko'proq ishlsh orqali
- b) qoramalar qilib olish orqali
- c) o'lchamlar nisbati orqali\*
- d) chizilgan narsani qayta-qayta o'lchash orqali

**110. Anatomik bosh (Ekorshe) modeli avtorini toping**

- a) Roden Ogyust
- b) Mikelandjelo Buonorotti
- c) Gudon Jan Antuan \*

**111.Rasm ishlashda qo'llaniladigan moslama**

- a) molbert \*
- b) planshet
- c) palitra
- d) stol

**112.Xarakterli chiziq va shtrixlar yordamida tez bajariladigan xomaki ish**

- a) nabroska \*
- b) illyustratsiya
- c) zastavka

d) zarisovka

**113. Muskullar yuzdagi emotsional va psixologik holatlarni, odamning kayfiyatini namoyon etadi.**

- a) emotsional va psixologik holatlarni
- b) odamning kayfiyatini
- c) mimik holatlarni
- d) emotsional va psixologik holatlarni, odamning kayfiyatini \*

**115. Bosh suyagi necha qismdan iborat**

- a) Ikki qismdan \*
- b) Uch qismdan
- c) To'rt qismdan

**116. Burun kosasi qanday shaklni eslatadi**

- a) noksimon \*
- b) sharsimon
- c) prizma shakli

**117. Ko'z kosasi qanday shaklni eslatadi**

- a) noksimon
- b) sharsimon \*
- c) prizma shakli

**118. Odam boshi qanday shaklni eslatadi**

- a) sharsimon
- b) tuxumsimon \*
- c) prizma shakli

**119. Avtoportretida rassom kimni tasvirlaydi**

- a) O'zini \*
- b) Biror kishini
- c) Qahramonni

**120. Portretida inson xarakterini ochishda qaysi a'zolar ko'proq muhim rol o'ynaydi**

- a) Qo'l va ko'zlar\*
- b) Yuzdagi mimika holatlar
- c) Lab va quloqlar

**121. Qo'l panjasi asosan qanday suyaklardan tashkil topgan**

- a) Bilaguzuk, kaft va barmoqlarning mayday suyakchalaridan \*
- b) Kaft va barmoqlarning mayday suyakchalaridan
- c) Tovon do'mbog'I, oyoq kaft suyagi, tirnoq falangalari

**122. Oyoq panja asosan qanday suyaklardan tashkil topgan**

- a) Tovon do'mbog'I, oyoq kaft suyagi, tirnoq falangalari\*
- b) Bilaguzuk, kaft va barmoqlarning mayday suyakchalaridan
- c) Kaft va barmoqlarning mayday suyakchalaridan

**123. Barmoq suyakchalari yig'indisi nima deb ataladi**

- a) Bilaguzuk
- b) Falanga \*
- c) Kaft suyagi

**124. Anatomik model rasmini ishlashdan maqsad**

- a) Inson tanasining tuzilishi va muskullarini o'rganish uchun \*
- b) Inson organizmini o'rganish uchun
- c) Inson skeletini o'rganish uchun

**125. Anatomik model(Ekorshe) muallifi kim**

- a) Jak Antuan Gudon\*
- b) Mikelandjelo Buonarotti
- c) Ogyust Roden

**126. Plastika so'zining ma'nosini ko'rsating**

- a) silliq, mayin, egiluvchan, hamohang\*
- b) Joylashtirish, qurish
- c) Jozibali, chiroyli

